Til – dil tarjimoni
O'zbek xalq maqoli

1991-yildan chiqa boshlagan

2021-yil. 1-son

ISSN 2010-5584

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

til_adabiyiot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyiot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyiot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyiot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz

2021 YIL – "YOSHLARNI QO'LLAB-QUVVATLASH VA AHOLI SALOMATLIGINI MUSTAHKAMLASH YILI"

ALISHER NAVOIY TAVALLUDINING 580 YILLIGI

Ushbu sonda

Dars – muqaddas

"Ilmdin kasb qilki…" 15-bet

Metodik tavsiya

Muammolar xususida ba'zi mulohazalar 19-bet

Tahlil

Istiqlol davri dramaturgiyasida Navoiy talqini 36-bet

К 580-летию со дня рождения Алишера Навои

Союз смысла и художественности 49-bet

1991-yildan chiqa boshlagan

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ ПРЕПОДАВАНИЕ

LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

2021-yil. 1-son.

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Sherzod SHERMATOV
Dilshod KENJAYEV
Qozoqboy YO'LDOSHEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Nargiza RAHMONQULOVA
Yorqinjon ODILOV
Mamatqul JO'RAYEV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Valijon QODIROV
Nilufar NAMOZOVA
Abdurahim NOSIROV
Tolib ENAZAROV
Ravshan JOMONOV
Zulxumor MIRZAYEVA
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinbosari)

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
EMMA TOROSYAN

Tahririyat manzili:
100038, Toshkent shahri Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10,
(71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyot ta'limi"dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga 2021.05.02. da topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84 1/8. Shartli bosma tabog'i 6,0. «Times» garniturasi. 10, 11 kegl. "PRINT RABEL" matbaa korxonasida chop etildi. Manzil: Toshkent sh., Olmazor tum., O'rozboyev ko'chasi, 35- uy. Buyurtma №:27 Adadi 3400 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

MUNDARIJA

ALISHER NAVOIY TAVALLUDINING 580 YILLIGI

Orifjon OLIMJANOV. "Alisher Navoiy darslari"ni joriy etish ... 3

DOLZARB MAVZU

Zulxumor MIRZAYEVA. Ilmiy maqolangiz "Scopus" yoki "Impakt faktor" xalqaro jurnallarda e'lon qilinganmi? ... 6
Nargiza MUSULMONOVA. Til va ta'lim integratsiyasi ... 9
Manzar ABDULXAYROV. Navoiy qo'lyozmalarining joriy imloga tabdili ustida olib borilgan harakatlar tahlili ... 10
Nargiza XODJAKULOVA. An'anaviy lingvistikaga yangicha qarash ... 13

DARS – MUQADDAS

Dilfuza TUXLIYEVA. "Ilmdin kasb qilki..." ... 15
Barno ABDURAHMONOVA. O'quvchilarga badiiy tasvir vositalarini o'rgatish usullari ... 17

METODIK TAVSIYA

Oybibi ISKANDAROVA. Muammolar xususida ba'zi mulohazalar ... 19
Zebo SAIDJANOVA, Nilufar ZARIPOVA. Badiiy asar tahlilida ta'limiy-didaktik o'yin metodidan foydalanish ... 21
Gulnigor HALIMOVA. Chet tilni o'qitishda ta'lim sifati va samaradorligiga erishish usullari ... 23
Zukhra KHAKIMOVA. Independent work – a factor in activating students' cognitive activity and forming communicative competence ... 26

ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Ravshanbek EGAMBERDIYEV. "Hedone" texnologiyasi ... 28
Sayyoraxon ABDUVALIYEVA. O'zbek tili fanidan mustahkamlash darslarida "Zakovat" usulidan foydalanish ... 30
Shoira SODIQOVA. Butundan qismga besh qadam ... 32

TAHLIL

Elmurod NASRULLAYEV. Istiqlol davri dramaturgiyasida Navoiy talqini ... 36
Xurshida NISHONOVA. O'zbek tilida ma'no ko'chish hodisasi ... 37

TADQIQOTLAR

Abdumannon HASANOV. Tilshunoslikda lakuna muammosi ... 38
Nazokat BOBOJONOVA. Yozma adabiyotdagi Yusuf alayhissalom qissasi sujetining genetik asoslari ... 41
Ozoda TURSUNOVA. "Paronimlarning izohli lug'ati"ni tuzish xususida ... 44

KICHIK TADQIQOT

Dilshod RO'ZIQULOV. Harbiy matbuotda badiiy-publitsistik janrlar leksikasi va lisoniy xususiyatlari ... 47

К 580-ЛЕТИЮ СО ДНЯ РОЖДЕНИЯ АЛИШЕРА НАВОИ

Кодиржон НОСИРОВ. Союз смысла и художественности ... 49
Максуда НАЖМИДДИНОВА. «Мой труд! Найди к душе народной путь» ... 53

ЛУЧШИЙ УЧИТЕЛЬ-ФИЛОЛОГ – 2020

Эльвина АЛИЕВА. «Счастливый случай» ... 54
Насиба НИЯЗОВА. Изучение текста на базе современных гаджетов на уроках русского языка ... 57

МЕТОДИКА. ОПЫТ

Аль-Мария БАБАРАХИМОВА. Развитие навыков диалогической и монологической речи у студентов иноязычных групп по теме «Описание внешности человека» ... 59
Анвар ЮСУПОВ. Отношение к произносительным ошибкам в педагогической практике ... 61
Азиза БЕДИЛОВА. Узбекские пословицы как лексический материал для занятий по русскому языку ... 62

ЯЗЫКОЗНАНИЕ

Светлана ИМ. Становление морфонологии как науки ... 65

ИЗУЧАЕМ ИНОСТРАННЫЕ ЯЗЫКИ

Мунаввар РАШИДОВА. Проблемы преподавания коммуникативного английского языка военным ... 67

ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ

Зулхумор ЭГАМНАЗАРОВА. Центральный образ в сатирическом романе А.Ф.Писемского «Люди сороковых годов» ... 69

ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ

Шахзода АБДУЛЛАЕВА, Сайёра САИДЖАЛАЛОВА, Масъуда ТАХИРОВА. Инновационная организация образовательного процесса по совершенствованию речевых компетенций по русскому языку ... 72
Угилой КУСАНОВА. Дидактическая инженерия как инновационная деятельность учителей иностранных языков ... 74

НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

Жамила БУРАНОВА. Формы мифа и образ главного героя в романе Тимура Пулатова «Черепаха Тарази» ... 76
Алина ЗИГАНШИНА. Основные этапы знакомства учащихся и студентов с понятием научной этики ... 78

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI Я ПРЕПОДАВАНИЕ ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ L ANGUAGE AND LITERATURE TEACHING ***jurnali***

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining Filologiya va Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

“ENG FAOL FILOLOG-MUALLIM” TANLOVINING G‘OLIBLARINI QUTLAYMIZ!

O‘zbekiston Respublikasi “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonun ijrosini ta’minlash, yosh avlod qalbida ona tiliga hurmat, g‘urur hissini o‘stirish, ularning xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini rag‘batlantirish va ilg‘or metodikalarni ommalashtirish maqsadida Xalq ta’limi vazirligi hamda “Til va adabiyot ta’limi” – “Преподавание языка и литературы” – “Language and literature teaching” ilmiy-metodik jurnali tahririyati hamkorligida tashkil etilgan navbatdagi “Eng faol filolog-muallim – 2” (o‘zbek, rus, xorijiy tillarda) maqolalar tanlovi yakunlandi. Unda sohada faoliyat yuritib kelayotgan yuzdan ortiq qatnashchilar o‘z pedagogik tajribalari, dars ishlanmalari, metodik tavsiya hamda ilmiy-pedagogik tadqiqotlari bilan ishtirok etdilar.

Tanlov natijalariga ko‘ra birinchi o‘ringa:

Buxoro viloyati G‘ijduvon tumanidagi 17-maktab o‘qituvchisi, “Shuhrat” medali sohibasi Maxfurat Otayevaning “Tafakkurdan tomgan tomchilar”; Xalq ta’limi vazirligi tasarrufidagi tabiiy fanlarga ixtisoslashtirilgan davlat umumta’lim maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi Rayxon Rasulovaning “Dunyo degan shundayin anglab bo‘lmas sir ekan”; Buxoro davlat tibbiyot instituti pedagogika, psixologiya va tillar kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent Qurbonova Gulnozaning “Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-operativ tafakkurini rivojlantirish”; Samarqand davlat universiteti masofali ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi Abdumurod Nomozovning “Qiyosiy va tahliliy yondashuv – bilim olishga yangicha munosabat”; Buxoro shahridagi 30-maktab o‘qituvchisi Marvar Sharafutdinovaning “Читательский дневник”; Toshkent viloyati Angren shahridagi 21-maktabning oliy toifali rus tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi Zamira Nurmanovaning “А.П.Чехов. Рассказ “Мальчики”; O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti o‘qituvchisi Yekaterina Aminovaning “Редукция как инструмент практической фонетики”; O‘zMU dotsenti Elvina Aliyevaning “Счастливый случай (интеллектуальная игра, посвященная жизни и творчеству В.Набокова)”.

Ikkinchi o‘ringa:

Surxondaryo viloyati Termiz shahridagi 23-maktab o‘qituvchisi, Xalq ta’limi a’lochisi Dildor Nurmuhamedovaning “O‘quvchi nutqi – milliy til ko‘zgusi”; Samarqand shahridagi 24-maktab o‘qituvchisi Aziza Saydullayevaning “Ta’lim mazmunini takomillashtirish: o‘quv dasturi va darsliklar”; Navoiy shahri, NDPI akademik litsey hamda 11- AFCHO‘IM oliy toifali ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi Nafisa Sulaymonovaning “Onlayn darslardagi yutuq va kamchiliklar”; Namangan viloyati Uychi tumanidagi 27-maktab o‘qituvchisi Nodira Abdullayevaning “Darslarning samaradorligi va qiziqarli bo‘lishini ta’minlovchi vositalar”; Nukus shahridagi 34-maktab o‘qituvchisi Artur Tenning “А.Т.Твардовский. “Василий Тёркин”; Samarqand shahridagi 41-maktabning birinchi toifali o‘qituvchisi Yuliya Tinkovaning “Мотив экипажа и дороги в жизни и творчестве А.С.Пушкина”; Namangan davlat universiteti professori Farit Gabdulxakov va doktorant Rasima Gabdulxakovaning “Преподавание русского языка: не пора ли перейти к обучению?”.

Uchinchi o‘ringa:

Xorazm viloyati Qo‘shko‘pir tumanidagi 41-maktab o‘qituvchisi Adiba Bekchanovaning “Besh tashabbus – besh imkon”; Navoiy shahar 11-son aniq fanlarni chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktab o‘qituvchisi, Xalq ta’limi a’lochisi Komila Radjabovaning “Matn bilan ishlash orqali o‘quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlash”; Farg‘ona viloyati Yozyovon tumanidagi 16-maktab o‘qituvchisi Mohidil Nizomovaning “G‘afur G‘ulomning hayoti va ijodi. “Sog‘inish” she’ri bilan tanishish”; Samarqand viloyati Urgut tumanidagi 65-maktab o‘qituvchisi, Xalq ta’limi a’lochisi Shodiyor Po‘latovning “Jonimga Masihdir shu ona tilim!”; Qoraqalpog‘iston Respublikasi Taxiatash tumanidagi 3-maktab o‘qituvchisi Erkin Jeksenbayevning “Описание быта и традиций старой махалли в повести Г.Гуляма “Озорник”; Toshkent viloyati Angren shahridagi 7-maktab o‘qituvchisi Xonbibi Dusmatovaning “Разработка кружкового занятия “Путешествие по королевству “Русский язык”; Toshkent davlat yuridik universiteti o‘qituvchisi, pedagogika fanlari nomzodi Nasiba Niyazovaning “Изучение текста на базе современных гаджетов на уроках русского языка” sarlavhali maqola, dars ishlanma, metodik tavsiyalari loyiq topildi.

Shuningdek, Navoiy davlat pedagogika instituti o‘zbek tili kafedrasi o‘qituvchisi Surayyo Muqimova, Farg‘ona viloyati Beshariq tumanidagi 3-ixtisoslashtirilgan davlat umumta’lim maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi Feruzaxon Abdusalomova, Surxondaryo viloyati Termiz shahar 11-maktabning ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi Dilbar Normurodova, Namangan davlat universitetidan pedagogika fanlari nomzodi Komiljon Abdullayev, Buxoro davlat tibbiyot instituti o‘qituvchisi Ruqiya Ashurbayeva, Buxoro davlat universiteti maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi Nigora Adizova, Buxoro viloyati Shofirkon tumanidagi 22-maktabning ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi Umid Hamroyev, Toshkent shahar Chilonzor tumanidagi 202-maktabning ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi Shoira Sodiqova, Buxoro viloyati G‘ijduvon tumanidagi Olimpiya va milliy sport turlari bo‘yicha davlat ixtisoslashtirilgan maktab-internatning ingliz tili fani o‘qituvchisi Dilnora Tolibova, Surxondaryo viloyati Qiziriq tumanidagi 36-maktabning ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi Hilola Xudoynazarova, Guliston tumanidagi 30-maktab o‘qituvchisi Sevara Xoljigitova, Andijon viloyati Izboskan tumanidagi 20-maktabning oliy toifali o‘qituvchisi Klara Usmonova, Namangan viloyati Kosonsoy tumanidagi 37-maktab o‘qituvchisi Sayyora Bozorova, Namangan viloyati Chortoq tumanidagi 46-maktabning ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi Nozima Qoraboyeva, Buxoro viloyati Olot tumanidagi 7-maktabning Oliy toifali ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi Nodira Hotamovani rag‘batlantiruvchi o‘rin egasi bo‘lganliklari bilan qutlab qolamiz.

Yurtimizda epidemik vaziyat hali ham hukm surishiga qaramay o‘z ustida ishlashdan to‘xtamagan, “Eng faol filolog-muallim – 2” tanlovida ishtirok etib, ona tili va adabiyot, rus tili va xorijiy tillar hamda jahon adabiyotini o‘qitish samaradorligini yanada oshirish yo‘lida ilg‘or tajribalari bilan o‘rtoqlashgan barcha izlanuvchan, faol muallimlarga tahririyatimiz nomidan minnatdorlik bildiramiz.

Muxlisa DO‘STMUHAMEDOVA

"ALISHER NAVOIY DARSLARI"NI JORIY ETISH

uzluksiz ta'limda nafaqat ma'naviy, balki siyosiy ahamiyatga ham ega

Ma'lumki, 2020-yil 19-oktabrda davlatimiz rahbarining "Buyuk wshoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi Qarori qabul qilndi. Yurtimiz taraqqiyoti va xalqimiz ma'naviy yuksalishida mazkur qarorning ahamiyati alohida. Zero, taniqli navoiyshunos olim Vahob Rahmonov ta'kidlaganidek, "Navoiy biz uchun adabiy dahogina emas, axloqiy namunagina emas, komillik timsoligina emas, balki faoliyatimizning barcha jabhalarida ko'z-quloq bo'lib turishga chorlovchi vijdonning ogohlantiruvchi qo'ng'irog'idir".

Shu nuqtai nazardan, mutafakkir shoir Alisher Navoiy ijodini yanada kengroq o'rganishga katta ahamiyat berilayotgan bugungi kunda ta'lim tizimi, adabiyotshunos olim va yosh avlod oldidagi dolzarb vazifalar xususida Navoiyshunos olima, filologiya fanlari doktori Dilnavoz YUSUPOVA bilan suhbat qurdik.

– Ustoz, suhbatimizni dastlab davlatimiz rahbarining 2020-yil 19-oktabrdagi "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi Qarori va ushbu tarixiy qarordan keyingi hayajonlar, taassurotlaringiz bilan boshlasak…

– Yurtboshimizning ushbu qarori nafaqat mumtoz adabiyot bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar, navoiyshunos olimlarni, balki Navoiy asarlarining muhibi bo'lgan butun xalqimizni quvontirdi. Qarorda juda ko'plab yangiliklarni, hazrat asarlarini targ'ib qilish uchun tavsiyalarni ko'rishimiz mumkin. Xususan, "Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondi"ning tashkil etilishi, g'azal mulkining sultoni nomida orden ta'sis qilinishi hamda poytaximizda alohida ijod maktabi bunyod etilishi, shoir qalamiga mansub va u yashagan davrga oid xorijda saqlanayotgan qo'lyozmalarning faksimile nusxalarini mamlakatimizga olib kelish choralari bilan bog'liq bandlar navoiyshunoslik sohasida yangi ufqlarni ochishi tabiiy. Bu esa barchamizni behad quvontirishi bilan bir qatorda navoiyshunoslar zimmasiga ulkan mas'uliyat ham yuklaydi.

– Qarorning 8-bandida Alisher Navoiy asarlarini uzluksiz o'qitish konseptsiyasini ishlab chiqish va 2021–2022-o'quv yilidan barcha ta'lim muassasalarida shu asosda o'qitish yo'lga qo'yilishi bo'yicha tegishli vazirliklarga topshiriqlar berilgan. Ustoz, bilamizki, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida respublikamizda birinchi bo'lib Navoiyshunoslik fani joriy etilgan. Kelgusi o'quv yilidan esa ushbu fan respublikamizning barcha oliy ta'lim muassasalarida o'qitilishi boshlanadi. Siz navoiyshunoslik fanidan yaratilgan darslikning mualliflaridan biri sifatida ushbu fanning maqsadi va o'qitilish yo'sini yuzasidan fikrlaringiz bilan o'rtoqlashsangiz.

– Bizni xursand qilgan jihat – endi yoshlarimiz qaysi soha vakili bo'lib yetishishlaridan qat'i nazar, Navoiy asarlari bilan hamohang tarzda tahsil oladilar. Boisi, Navoiy faqat filologlar yoki gumanitar soha kishilariniki emas, barchaniki. Har bir o'zbek ziyolisi buyuk ajdodining merosi va faoliyatini tom ma'noda bilsa, uning ko'lamini his qilsagina, milliy merosimizdan faxr tuya oladigan ajdodlarga munosib avlod shakllanadi. Yoshlar ma'naviy dunyosining milliylik va insonparvarlik zaminida shakllanishiga g'oyat kuchli ta'sir ko'rsatadigan, ayni paytda, o'zbek mumtoz adabiyoti va o'zbek milliy ma'naviyatining shakllanish hamda rivojlanish qonuniyatlarini anglash yo'lida ochqich – kalit vazifasini bajaradigan Navoiy ijodini o'rganish orqali yoshlarda sog'lom tafakkur tarzini shakllantirish, o'zbek adabiyoti tarixining eng muhim davri haqida har tomonlama bilim hosil qilish, ma'naviy dunyosi mukammal bo'lishi-

ga ko‘maklashish ushbu o‘quv fanining bosh maqsadi bo‘lmog‘i lozim.

– Ma’lumki, bugungi kunda hatto ikki yoshli kichkintoylarimiz ham telefon yoki boshqa texnik vositalardan foydalana oladi. Ustoz, nuqtai nazardan, Navoiy hazratlarini o‘qitishni maktabgacha ta’lim muassasalaridan boshlash juda ham ijobiy natija beradi. Zero, bola iqtidorini Navoiyga muhabbat uyg‘otish asosida to‘g‘ri tarbiyalash muhimdir. Ushbu yo‘nalishda qanday ishlarni amalga oshirish kerak deb hisoblaysiz?

– O‘rinli mulohaza bildirdingiz. Bu borada, avvalo, pedagoglar bilan bolalarning yoshiga mos tarzda uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish lozim. Xondamirning “Makorim ul-axloq”, Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror”, “Sab’ai sayyor”, “Saddi Iskandariy”, “Lison ut-tayr”, “Mahbub ul-qulub” asarlaridagi hikoyatlardan tanlab olib, ularni bola tiliga muvofiqlashtirib, “Navoiy bobo saboqlari” yoki “Navoiy bobo ertaklari” nomi bilan rangli kitoblar seriyasini tayyorlash va uni respublikadagi har bir maktabgacha ta’lim muassasasiga yetkazish zarur. Shu asosda bir haftada ikki marta 30 daqiqalik “Navoiy bobo saboqlari” mashg‘ulotlarini tashkil qilish maqsadga muvofiq. Qolaversa, tanlab olingan hikoyatlar asosida multfilmlar va boshqa formatdagi filmlar yaratish ham yaxshi samara beradi. Shuningdek, yosh iqtidorli rassomlar o‘rtasida Alisher Navoiy asarlarida uchrovchi qahramonlarning suratini chizish bo‘yicha tanlovlar tashkil etish ham ijobiy samara beradi, nazarimda. Tanlovning eng yaxshi natijalari logotiplardek ommalashtirilishi o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ulardan bolalar uchun rasmli o‘yin vositalari: rangli qilib bo‘yaladigan albomlar (raskraska), nakleyka ishlab chiqarishda foydalanish mumkin.

– Darhaqiqat, “Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi Qarorda Navoiy hazratlarining hayoti yoritilgan to‘liq metrajli badiiy-publitsistik film suratga olish haqida ham band bor. Tarixiy film yaratishning nechog‘lik zaruriyati, ahamiyati bor deb o‘ylaysiz?

– Tarixiy filmlarning xalq ma’naviyatini oshirishdagi ahamiyati juda katta. Masalan, oynayi jahonni kuzatsangiz, telekanallarimizda turk va koreys tarixiy seriallarining salmog‘i yuqori. Taassuflar bo‘lsinki, hozirda xalqimiz yuqorida sanalgan millatlarning tarixini o‘z xalqining, bobokalonlarining tarixidan ko‘ra yaxshiroq biladi. Bu yerdagi ahamiyatli jihat shundaki, muayyan tarixiy davr yoki shaxs faoliyati oddiy xalqqa kitoblardan ko‘ra badiiy filmlar orqali tezroq yetib boradi. Kino ijodkorlarimiz “Elparvar”, “Islomxo‘ja”, “Ibrat”, “Ilhaq” kabi tarixiy filmlarni yaratishdi hamda bu janrda ancha tajriba orttirishdi. Ana shu tajriba asosida buyuk shoirimiz haqida olinadigan film ham muvaffaqiyatli chiqishiga ishonaman.

– Shu o‘rinda hazrat Navoiyni xalq orasida targ‘ib qilish va o‘qitish bilan bog‘liq muammolarga ham to‘xtalib o‘tsangiz.

Bu borada hali muammolarimiz talaygina. Hozirgi kunda qayerga qaramaylik: shahar va tuman markazlari ko‘chalari, istirohat bog‘lari, madaniy go‘shalar yoki dam olish maskanlari deysizmi, hamma joyda turli tillardagi (o‘zbek tilida nisbatan kam) mahobatli bannerlarga ko‘zimiz tushadi. Agar Navoiyni xalqimizga yaqinlashtirmoqchi bo‘lsak, ana shunday bannerlar, reklama joylashtirilgan oynali ekranlarning o‘rniga Navoiy hikmatlari (asliyat va, albatta, zamonaviy tildagi) aks etgan matnlar o‘rin olishi kerak. Yurtimizdagi har bir fuqaro, sayyoh yoki mehmon har safar shu matnlarga ko‘zi tushganda o‘z-o‘zidan ushbu hikmatlar ularga yod bo‘lib ketadi, Navoiyning xalq orasida ommalashuvi birmuncha tezlashadi...

Alisher Navoiy ijodi ko‘pqirrali ekanidan kelib chiqib, muayyan sohaga oid qarashlarini o‘rganib, ularni tadqiq etish, natijalarni kitob holida nashr etish, ijtimoiy tarmoqlarda targ‘ib etish hamda tadqiqot natijalarini tegishli sohaga tatbiq etish zarur. Ana shundagina Navoiyning hamma zamonlar uchun birdek dolzarb va progressiv fikrlari amaliyotga tatbiq etiladi, faqat adabiyot, madaniyat yoki filologiya o‘zanida qolib ketmaydi.

Shuningdek, oynai jahonning ko‘p tomoshabinli kanallarida TVdagi “Zakovat” ko‘rsatuvi tajribasi asosida intellektual ko‘rsatuvlar tashkil qilish lozim. Bunda savollar faqat Alisher Navoiy ijodiga taalluqli bo‘lishi maqsadga muvofiq. “Zakovat” ko‘rsatuvi ko‘plab iqtidorli yoshlarni kashf qildi, millionlab muxlislarga ega bo‘ldi. Bu ko‘rsatuvlar ham shunday natijaga erishishi shubhasiz.

Shu o‘rinda yana o‘z-o‘zidan ta’limdagi muammolarni tilga olishimga to‘g‘ri kelyapti. Yuqorida ta’lim tizimidagi uzluksizlik konsepsiyasi haqida gapirdik. Ana shu uzluksizlikni ta’minlash maqsadida maktabgacha ta’lim muassasalaridan so‘ng keyingi bosqich sifatida maktablarda **5-sinfdan boshlab “Alisher Navoiy darslari” maxsus fanini o‘qitishni yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyatga ega. Bu haqda anchadan beri fikr bildirib kelyapmiz, lekin hozircha Xalq ta’limi vazirligi bunga jiddiy e’tibor qaratayotgani yo‘q. Takror aytaman: bu fan “Adabiyot” fanlari tarkibida emas, balki mustaqil fan sifatida dasturga kiritilishi zarur, aks holda natija o‘zgarmaydi.** “Alisher Navoiy

darslari" uzluksiz tarzda har haftada bir soatdan bo'lsada o'qitilishi lozim. Bunda shoir haqidagi zamondoshlari asarlaridan tortib (Mirxond, Xondamir, Vosifiy), buyuk mutafakkirning hayoti va ijodi, eng muhim asarlari tahliliga to'xtalib o'tilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Alisher Navoiy merosining o'ndan biricha kelmaydigan Pushkin ijodini Rossiyada o'rganishga maktabdayoq maxsus fan ajratganda yoki Qozog'iston maktablarida asr boshidan beri "Abayshunoslik" fani o'qitilayotganda, Alisher Navoiy ijodini maxsus o'qitish nafaqat ma'naviy, balki siyosiy ahamiyatga ham ega. Bu orqali biz ham yoshlarimizning ma'naviy olamini butun va beshikast saqlash, yosh qalblarni turli g'oyaviy xuruj va adashishlardan himoya qilish, farzandlarimizda sog'lom tafakkur tarzini shakllantirishga erisha olamiz.

– Darhaqiqat, Alisher Navoiy hazratlari har tomonlama insoniyat uchun o'rnak bo'ladigan xislatlar sohibi bo'lganlar. Shu o'rinda hazratning adabiyotimiz oldida amalga oshirilgan bemisl xizmatlaridan tashqari, davlat va jamiyatni rivojlantirish, xalq farovonligi yo'lidagi faoliyatini yana bir eslab o'tsak.

– Chex olimi Yan Ripka "Alisher Navoiy jamiki go'zalliklarning buyuk homiysidir" deb yozganida yuz karra haq edi. Shoirning davlat arbobi sifatidagi faoliyati, birinchi galda, bunyodkorlik ishlarida namoyon bo'ladi. Xondamirning ma'lumot berishicha, "Shams ul-millat" tomonidan 4 madrasa, 25 dan ortiq masjid, 11 xonaqoh, 52 rabot, 20 hovuz va 16 ta ko'prik qurdirilgan bo'lib, jami 300 dan ortiq inshoot Navoiyning homiyligida bunyod etilgan.

Hotamtoy shoir faqat ushbu inshootlarni qurdiribgina qolmay, ilmi toliblarni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlab ham turgan. Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma"da shunday yozadi: **"Ahli fazl va ahli hunarg'a Alisherbekcha murabbiy va muqavviy ma'lum emaskim, hargiz paydo bo'lmish bo'lg'ay".** Ya'ni ilm-u hunar ahliga Alisher Navoiychalik homiylik qilgan va qo'llab quvvatlagan inson ma'lum emas, bundan keyin ham ma'lum bo'lmaydi.

Bobur o'z fikri davomida ustoz Qulmuhammad, Shayxi Noyi, Husayn Udiy kabi sozandalarning Navoiy homiyligida shuhrat topganlarini yozadi. Shuningdek, Bekzod va Shoh Muzaffar kabi musavvirlar ham shu munosabat bilan esga olingan. Yakunda: "Muncha binoyi xayr kim, ul qildi, kam kishi shundoqqa muvaffaq bo'lmish bo'lg'ay", – deyiladi. Haqiqatan ham, o'z zamonasida Alisher Navoiychalik o'z mablag'ini xalqqa bag'ishlagan odam bo'lmagan. Buni shoirning zamondoshlari e'tirof etayotganlarini alohida ta'kidlash zarur.

Ma'lumingizki, hazrat Navoiyga "Amir ul-muqarrab", ya'ni "Shohning eng yaqin kishisi" unvoni berilgan. Bu unvonni olgan shaxs bir masala yuzasidan podshohga 9 marotaba murojaat qilish huquqiga ega bo'lgan. Xondamir Navoiyning Husayn Boyqaro buyrug'i bilan Hirotdan uch ming oilani Xorazmga ko'chirish haqidagi qarori yuzasidan 9 marta emas, 11 marotaba murojaat qilganini yozadi. Shundan so'ng ko'chiriladigan xonadonlar sonini uch mingdan mingtaga tushirishga muvaffaq bo'lingan. Bilasiz, Navoiy 1487–1488-yillarda Astrobodga hokimlik qilgan. Uning Astroboddagi faoliyatini Mirxond "Eram gulistonining g'ayrati (rashki)ni keltiradigan" deya ta'riflaydi. Chunki viloyatda ta'rifga mos ezgu ishlar amalga oshirilgan edi.

Ma'lumki, hozirgacha ko'plar Navoiyni Astrobodga hokim rutbasi berilib, "faxriy surgun" qilingan deb o'ylaydi. Professor Shuhrat Sirojiddinovning "Navoiy Astrobodga surgun qilinganmi?" maqolasini o'qisangiz, vaziyat boshqacha ekani haqida ma'lumotga ega bo'lasiz. Astrobod Xurosonning juda muhim, bugungi kun tili bilan aytganda, strategik ahamiyatga ega viloyati bo'lgan. Astrobodga, asosan, shahzodalar yoki sultonning eng yaqin kishilari hokim etib tayinlangan. Adolatda, saxovatda, xalqparvarlikda tengsiz bo'lgan Navoiy shu bois ham Astrobodga hokim sifatida yuborilgan.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Navoiy merosi tarixiy, ma'rifiy, shu bilan birga, juda katta ijtimoiy-tarbiyaviy va estetik ahamiyatga ega. Insonparvarlik, xalqparvarlik, do'stlik, tinchlik uchun kurash g'oyasini hormay-tolmay kuylagan, ajoyib obidalar va o'lmas obrazlar yaratgan Navoiy yangilanish sari odimlayotgan o'zbek xalqi bilan doim birgadir!

– Suhbatimiz so'ngida Shermuhammad Munisning quyidagi bayti yodimga tushdi:

So'z ichra Navoiyki, jahongir turur,
Munisga maoniy yo'lida pir turur.

Ustoz, buyuk bobokalonimiz haqidagi ajoyib suhbat uchun behad tashakkur! Sizning fikrlaringizdan shuni angladimki, biz yoshlar so'z jahongirining "so'zim martabasi avjdin quyi inmagay" degan jumlalarini o'zimizga dasturulamal qilib, Navoiyni o'qishdan, o'rganishdan aslo charchamasligimiz, "maoniy yo'lida" hazratni o'zimizga pir, deb bilishimiz lozim.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Yoshlar yetakchisi Orifjon OLIMJANOV suhbatlashdi.

Zulxumor MIRZAYEVA,
ToshDO'TAU huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash
va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi direktori, f.f.d

ILMIY MAQOLANGIZ *"SCOPUS"* YOKI *"IMPAKT FAKTOR"* XALQARO JURNALLARDA E'LON QILINGANMI?

son muhimmi, sifat?

Jahoniy miqyosdagi globallashuv murakkab va shu bilan birga ko'p qirrali hodisa sifatida davlat va jamiyat hayotidagi yangidan-yangi taraqqiyot g'oyalarining paydo bo'lishiga, ilmiy, ijodiy tafakkurning dunyoviylashuviga zamin bo'layotgani hammamizga ma'lum haqiqat. Ayni damda globallashuvning millat ma'naviyatini izdan chiqaruvchi, butun dunyo havas qiladigan eng go'zal tutumlariga tahdid soladigan jihatlari oz emasligini ham ta'kidlash barobarida o'z qobig'iga o'ralashib qolgan, rivojlanishning xalqaro standartlariga javob bera olmaydigan har qanday harakat bugun biz orzu qilgan istiqbolli kelajakni ta'minlab berolmasligini ham unutmaslik lozim.

Keyingi yillarda milliy oliy ta'lim muassasalari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, natijaga erishgan universitet rahbari va xodimlarini rag'batlantirish fan va ta'lim sifatini ko'tarishning eng muhim mezonlaridan biriga aylandi. Hatto bu masala O'zbekiston Respublikasi Ta'lim haqidagi qonunning 41-moddasida "Ta'lim tashkilotlarining reytingi" nomi bilan muhim ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilab qo'yildi.

Muayyan OTMlari professor-o'qituvchilarining xorijiy nashrlari, ularga xalqaro miqyosda berilayotgan havolalar milliy universitetlar reytingida muhim ahamiyat kasb etdi va ularning har biri moliyaviy rag'batlantirildi.

Sog'lom raqobat muhitini shakllantirish va natijaga erishgan oliy o'quv gargohi professor-o'qituvchilarini muntazam rag'batlantirib borish nafaqat ta'lim, balki O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishiga ham o'z ijobiy ta'sirini berayotganini bugungi tajriba isbotlab turibdi. Zotan, har yili Britaniyaning *Quacquarelli Symonds (QS)* va *Times Higher Education (THE)* global oliy ta'lim konsaltingi (konsulligi) tomonidan e'lon qilinadigan dunyo universitetlari reytingi asosida ham juda katta raqobat muhiti ustuvor. Universitetlar faoliyatini baholashda ilmiy salohiyat, olimlarning ilmiy tadqiqotlariga xalqaro miqyosda berilgan havolalar umumiy ballning 40 (QS) yoki 30 (THE) foizini tashkil etadi. Demak, ma'lum bo'ladiki, ilmiy tadqiqotlar saviyasi ta'lim dargohi reytingining eng muhim va jiddiy ahamiyatga ega qismi hisoblanadi.

Keyingi ikki yil mobaynida nafaqat milliy, balki boshqa xorijiy universitetlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislardan ham SCOPUS ma'lumotlar bazasidagi jurnallarda maqola e'lon qilishi birdek talab qilina boshladi. 2018-yilda Qozonda Chingiz Aytmatovning 90 yilligiga bag'ishlangan xalqaro konferensiyada dunyoning turli universitetlaridan kelgan olimlarning suhbatlari ham mana shu mavzu atrofida bo'lgan va ular bir-birlarini hamkorlikka chaqirgan edi. Hatto "Scopusda maqola nashr etish kerakmi?" mavzusidagi masala xalqaro maydonlarda ham jahonning nufuzli olimlari tomonidan muhokama qilindi.

Scopus – dunyo miqyosidagi adabiyotlar – ilmiy jurnallar, kitoblar va konferensiya materiallari aks etgan nufuzli, ayni paytda juda katta ma'lumotlar bazasi bo'lib, u muayyan fanning turli sohalarida jahon miqyosida olib borilgan eng muhim va jiddiy tadqiqot natijalari to'g'risida to'liq ma'lumot berishga asoslangan. Dunyoning tajribali olimlari qatorida o'z ilmiy salohiyatiga ishongan yosh mutaxassislar ham izlanishlari natijalarini xalqaro miqyosda katta qiziqish bilan o'qiladigan Scopus jurnallarida nashr etishni istaydi. Bunday natijalar ularga jahoniy miqyosdagi hamkorlik imkoniyatlarini kengaytiradi, istiqbolli kelajak va muvaffaqiyat eshiklarini ochib beradi, tadqiqotlari global miqyosdagi tajriba sinovidan o'tishiga imkon yaratadi. Qolaversa, har qanday milliy tadqiqotlarning jahon ilmi kontekstida o'rganilishi va xalqaro miqyosdagi aprobatsiyalashuvi uning sifat jihatdan yuksalishiga xizmat qiladi. Chunki jahonda yuz berayotgan siyosiy-ijtimoiy o'zgarishlar, munosabatlardagi yangicha yo'nalishlar ilmiy tadqiqot ishlariga obyektiv tamoyillarga asoslangan yondashuvlarni talab qilmoqda. Ilmiy tadqiqot ishlarining nufuzli jurnallarda nashr etilishi jahoniy miqyosdagi ilmiy metodologik asoslarga yaqinlashishga, tadqiqotning dunyoviylashuvi, jahoniy miqyos kasb etishiga rag'bat beradi.

O'zbek mutaxassislari jahon olimlari qatorida o'z ilmiy izlanishlarini Scopus, WOS (Web of Science), Google Scholar hamda impakt faktori yuqori bo'lgan xalqaro jurnallarda e'lon qilib milliy tadqiqotlarimizni jahoniy miqyosda yuksaltirishga harakat qilayotgani, umuman, xalqaro miqyosdagi jarayonlardan ortda qolmay bor kuch va imkoniyati darajasida jahonga intilayotgani e'tirofga loyiq. Ayniqsa, keyingi ikki yilda nafaqat ijtimoiy-gumanitar balki boshqa sohalarda ham milliy tadqiqotlarning xalqaro nashrlardagi soni statistik jihatdan yuqori bosqichlarga ko'tarilganini ta'kidlash lozim.

Lekin qancha sog'liq va vaqt evaziga, xayrli niyatda "scopus uchun" yaratilgan yoki yaratilayotgan maqolalar o'z manzillarini to'gri topa olyaptimi?

Katta miqdordagi to'lovlar evaziga nashr etilayotgan maqolalarning necha foizi O'zbekistondagi Oliy ta'lim muassasalarini jahon reytingiga olib chiqishga hissa qo'shyapti?

Qancha foizi xalqaro maydonlarda e'tirof etilib, dunyo miqyosida havolalar berilmoqda?

Maqolalar qaysi va qanday saviyadagi jurnallarda nashr etilyapti?

Besh-olti sahifaga ham bormaydigan, oldi-qochdi gaplardan iborat, ilmiy-nazariy jihatdan asoslanmagan, nufuzli jurnallarning hech bir talabiga javob ber(ol)maydigan, faqat son uchun xizmat qilayotgan saviyasiz maqolalar qayta tahrirlarsiz, juda qisqa muddatda qanday qilib SCOPUS jurnallarida nashr etilayotir? Yaxshi maqolalar ham ayrim holatlarda aldov yo'li bilan "xishnik" predator – "qaroqchi jurnallarning o'ljasiga aylanib qolib, nafaqat olimning o'z sha'ni balki u faoliyat olib borayotgan universitet va hatto O'zbekiston imiji uchun ham teskari natija bermayaptimi? Chunki olimlarning yolg'on "scopus" jurnallarida nashr etilgan maqolalari nafaqat ularning nufuziga putr yetkazish, balki kelgusida ularning boshqa nufuzli jurnallarda maqola nashr etish imkonini ham cheklab qo'yadi.

Olim ham ijodkor, yaratish to'lg'og'i esa uning yaratuvchisigagina ma'lum. Uzoq yillik izlanishlar natijasini, inson ongida paydo bo'lgan fikr-g'oyalarni bitta maqola qilib yozish jarayonida uning miyasidagi qanchadan qancha sog'lom hujayralar qurbon bo'lishi fanda isbotlangan.

Keyingi ikki yil badalida yolg'on "scopus" jurnallarida birgina filologiya va pedagogika yo'nalishining o'zida juda ko'plab maqolalar nashr etilganini ko'rish mumkin va ularning aksariyati muayyan "vositachi"lar orqali ancha miqdordagi xorijiy valyuta evaziga chop etilgani hech kimga sir emas.

Hindistondagi "International Journal of Recent Technology and Engineering (IJRTE)" va "International Journal of Psychosocial Rehabilitation" (bunisi aynan qayerda nashr etilishi ham aniq yozilmagan) jurnallari uchun o'zbek olimlari maqolalari katta daromad manbaiga aylandi. **Birgina sonida 5000 sahifadan ortiq bo'lgan, texnika yo'nalishidan tortib ta'limgacha bo'lgan barcha sohalardagi ilmiy tadqiqotlar natijasini nashr etishni maqsad qilgan mazkur xalqaro nashrlarni "nufuzli" deb aytish mumkinmi!?** ("International Journal of Recent Technology and Engineering" (IJRTE) jurnali domiga vositachilar orqali o'zim ham ilinib qolganimni va yaxshigina maqolam mazkur jurnalda juda tez sur'atda nashr etilganini yashirmayman).

Mamlakatimizda bir qancha ilmiy, ilmiy-ommabop jurnallar faoliyat ko'rsatadi hamda ularning har biri o'z profillari (talablari)dan kelib chiqib maqolalar qabul qiladi va nashr etadi. Respublikaning obro'li jurnallaridan biri hisoblangan "Jahon adabiyoti"da sog'liqni saqlashga oid yoki texnikaga bag'ishlangan maqolaning nashr etilishi qaysi mantiqqa to'g'ri keladi? Yoki "Farmatsevtika jurnali"da Abdulla Qodiriy ijodi tahliliga oid maqolaning berilishi o'ta mantiqsizlik ekanligi, menimcha, oddiy ziyoli uchun ham inkor qilib bo'lmaydigan haqiqat.

Shu paytgacha 60 dan ortiq (balki undan ham ko'proqdir) o'zbek olimlarining maqolalari nashr etilgan "International Journal of Psychosocial Rehabilitation" jurnalining xalqaro saytida jurnal yo'nalishi haqidagi quyidagi ma'lumotni ko'rish mumkin. Fikrimizni dalillash uchun ma'lumotni asliyatdagidek qoldirdik:

This ("International Journal of Psychosocial Rehabilitation" jurnali nazarda tutilyapti, ta'kid bizniki – Z.M) *private NON-PROFIT professional publication and associated web-based, information archive service* ***is dedicated to the enhancement of practice, program development, program evaluation and innovations in mental health and substance abuse treatment programs worldwide****. Its goal is to provide a public forum for practitioners, consumers and researchers to address the multiple service needs of patients and families and help determine what works, for whom under a variety of circumstances.*

Ya'ni "butun dunyo bo'ylab ruhan sog'lomlashtirish va giyohvandlikni davolash dasturlarini rivojlantirish va innovatsiyalashtirish", "bemorlar va oilalarning ko'p sonli xizmat ehtiyojlarini qondirish"ga bag'ishlanadi.

Jurnalning ham nomidan ma'lum bo'lyaptiki, bu muayyan bir profil – yo'nalish doirasida ishlamaydigan, ammo, asosan, tibbiyot, psixologiyaga va giyohvandlikka oid muammolarga qaratilgan tadqiqot ishlarini nashr etishga yo'naltirilgan jurnal. Qizig'i, ularning har ikkisi bir yilda bir marotaba yangilanib turadigan, SCOPUS bazasining hech bir arxivida ham mavjud emas.

Odatda nufuzi baland xalqaro jurnallar, jumladan, bugungi kunda ijtimoiy-gumanitar sohalarda dunyo reytingida yuqori o'rinlarda turgan "Central Asian Survey" (*Markaziy Osiyo Tadqiqotlari)*, "Literature and History" (*Adabiyot va tarix*), "International Journal of Asian Studies" *(Osiyoni o'rganishga oid xalqaro jurnal)*" kabi nashrlarning barchasi muntazam Scopus bazasida indekslangan jurnallar hisoblanadi va quyidagi mezonlar doirasida faoliyat olib boradi:

Nashr uchun maqola mualliflaridan hech qanday mablag' talab qilmaydi, aksincha, ularning ayrimlari taqdim etilgan akademik ma'lumotlar uchun mualliflarga gonorar beradi. (Bunga o'z tajribamda guvoh bo'ldim).

Hech qaysi nufuzli jurnal maqolalarni qisqa muddatda (1-3 oy) nashr etmaydi, bitta yaxshi maqolani nashr etish uchun kamida bir yildan ortiq vaqt kerak bo'ladi. (Fransiyaning obro'li jurnallaridan birida nashr etilgan "Critisizm as War: The Ideological Battlefield of Uzbek Literary Studies from the 1950 s to the 1990 s" maqolam bir yil deganda nashr etilgan edi).

Nufuzli jurnallar ayni damda "xishnik" predator – qaroqchi, sifatsiz nashrlarda an'anaga aylangan IMRAD (abstrakt – *abstract;* kirish – *introduction;* tahlil metodlari – *methods;* olib chiqiladigan holatlar – *discussion;* kutilayotgan natija – *result;* xulosa – *conclusion;* foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati – *bibliography)* yondashuvni talab qilmaydi. Jurnallarda juda ko'p uchraydigan bo'limlar, asosan, **Abstrakt (absrtact)**, **Tadqiqot bo'limlari (Topic chapters) Xulosa (Conclusions)**, **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (Bibliography)** va ayrim holatlarda **Eslatmalar yoki Izohlar (Notes, Acknowledments)**dan tarkib topgan. Mavzuning yangiligi, dunyo miqyosidagi ahamiyati, fanga qo'shayotgan hissasi, xalqaro ilmiy tadqiqotlardagi standartlarga javob bera olishi, foydalanilgan adabiyotlarning xalqaro miqyosdagi ahamiyati, nufuzi, birlamchi manbalardan foydalanish darajasi, masalaning ilmiy jihatdan asoslanganligi muhim hisoblanadi. Xusu-

san, filologiya, ijtimoiy gumanitar yo'nalishda mashhur xalqaro jurnallarning hech birida, jumladan, "International Journal of Asian Studies" (IJAS) (*Osiyoni O'rganish xalqaro jurnali)da* yuqorida ta'kidlangan IMRAD yondashuvi muhim mezon qilib belgilanmagan.

Aksariyat jurnallar maqola hajmini 8 000 va 10 000 so'z oralig'ida bo'lishini talab etadi. Bu odatda dissertatsiyaning bitta bobi yoki faslini tashkil qiladi. Demak, maqolada kichik bir tadqiqot natijasi har jihatdan ilmiy asoslangan bo'lishi lozim.

Akademik ingliz tilida yozilishi xalqaro jurnallarning eng muhim talablaridan biri bo'lib, bundagi sifatni ikki tomonlama harakatsiz (ona tilisi ingliz bo'lgan mutaxassis nazarda tutilyapti) amalga oshirib bo'lmaydi.

Juda ko'p holatlarda jurnal bosh muharriri yoki boshqa a'zolari nomidan mutaxassislarning e-mail manzillariga maqolalarini nashr etish takliflari aks etgan xabarlar keladi. Vaholanki, o'zini hurmat qilgan nufuzli jurnallarning hech biri o'zini reklama qilishga yoki muayyan hamkorlar bilan shartnomalar tuzishga ehtiyoj sezmaydi. Har bir talabgor jurnalning ijtimoiy tarmoqdagi manzili orqali ro'yxatdan o'tib, maqolalarini jurnal talablaridan kelib chiqib taqdim etishlari mumkin bo'ladi.

Maqola mavzusining konseptualligi uning nashr qilinishini ta'minlovchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Umumiy, g'oyalar aks etgan sarlavhalardan qochish talab etiladi.

Maqolaning abstrakt (qisqacha ma'lumoti) qismi tahririyat a'zolarida maqolani to'liq o'qish yoki o'qimaslik to'g'risidagi qarorni chiqarishda juda katta ahamiyat kasb etadi. Unda mavzuning dolzarbligi, maqsadi, yangiligi, muayyan sohada amalga oshirilgan ishlardan farqi, tadqiqotdan kutilayotgan natijalar aks etishi lozim.

Odatda har yili yanvar-fevral oylarida Scopusda indekslangan jurnallar ro'yxati taqdim qilinadi. 2020-yilda quyidagi jurnallar filologiya, pedagogika va tarjimashunoslik yo'nalishida Scopus tarkibida mavjud bo'lib, mazkur jurnallarda chop etilgan maqolalar va ularga berilgan havolalar OTMlar va olimlarning xalqaro miqyosdagi nufuzini belgilab beradi.

1. "Central Asian Survey" (*Markaziy Osiya Tadqiqotlari*, Buyuk Britaniya).

2. "Literature and History" (*Adabiyot va tarix,* Mazkur jurnalning Buyuk Britaniya, Amerika va yana qator mamlakatlarda nashr filiallari mavjud).

"International Journal of Asian Studies" *(Osiyoni o'rganishga oid xalqaro jurnal,* Angliya, Yaponiya).

"Theory and Research in Education" *(Ta'lim nazariyasi va tadqiqotlari,* Buyuk Britaniya).

"Theory and Practice of Second Language Acquisition" *(Ona tilini ikkinchi til sifatida o'qitish nazariyasi va amaliyoti,* Polsha)

"Translation and Literature" *(Tarjima va adabiyot,* Buyuk Britaniya).

"Turkic Languages" *(Turkiy tillar,* Germaniya).

"Turkish Studies" *(Turkshunoslik,* Turkiya).

"Вопросы когнитивной лингвистики" (*Kognitiv tilshunoslik masalalari,* Rossiya).

"Вопросы лексикографии" *(Leksikografiya masalalari,* Rossiya).

"Вопросы литературы" (*Adabiyot masalalari,* Rossiya).

Bu ro'yxatni yana davom ettirish mumkin. Qayd qilingan jurnallarning har birining o'z elektron sahifalari, manzillari mavjud bo'lib, ularda maqola nashr etishga oid barcha ma'lumotlar, talablar aks etgan. Professor-o'qituvchilar jurnallarning ijtimoiy tarmoqdagi sahifasi orqali ro'yxatdan o'tib, hech bir muammosiz hamkorlik qilishi va maqolalarini talab doirasida tahririyat a'zolariga taqdim etishlari mumkin. Faqat ayrim jurnallar (masalan, Literature and History) ro'yxatdan o'tish jarayonida professor-o'qituvchi faoliyat olib borayotgan universitet *Ringgold ID*sini talab qiladi. O'zbekistondagi ayrim OTMlari *Ringgold ID* siga ega, ammo ba'zi universitetlarda bunday hujjat mavjud emas. Odatda *Ringgold ID*si ta'lim vazirligining maxsus xati orqali amalga oshiriladi. Agar biror bir universitet mazkur *Ringgold ID*siga ega bo'lmasa professor-o'qituvchining ro'yxatdan o'tishida muammolar bo'lishi mumkin.

Shu o'rinda yana bir muhim masala: bugun dunyo miqyosida hech qanday xalqaro ma'lumotlar bazasida indekslanmagan bo'lsa-da, dunyoning eng ko'p o'qiladigan, o'n minglab mushtariylariga ega, o'z yo'nalishlarida ilmiy manbalarni boyitib kelayotgan, jahon kutubxonalarining elektron ma'lumotlar bazasida mavjud jurnallar ham borki, ularning dunyo miqyosidagi nufuzi, saviyasi, sifati va nashr talablari Scopus jurnallaridan qolishmaydi. Masalan, Yaponiyada nashr etiladigan, lekin hech qanday SCOPUS bazasiga kiritilmagan *Central Asian Trends* jurnali ana shunday jurnallar qatoriga kiradi.

Mutaxassislar impakt faktori yuqori bo'lgan xalqaro jurnallarda maqolalar nashr etishda ham ularning faktor raqamiga emas, balki yo'nalishiga mos maqolalar saviyasi, jurnal nufuzi va dunyo miqyosidagi o'rniga qarab maqolalar nashr etishi maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz.

Respublika Oliy ta'lim muassasalarining xorijiy nashrlarini nazorat qiluvchi va baholovchi tashkilotlar, mas'ul mutasaddilar mazkur masalalar tahlilida yuqorida aytilgan mezonlarga tayanishsa, bu sekin-asta o'z samarasini berishiga ishonamiz.

Biz mazkur maqolani kimningdir mehnatini inkor qilish uchun emas, balki qancha mashaqqat, vaqt evaziga yaratilayotgan salmoqli tadqiqotlarning mavqeyiga putr yetib qolayotganidan, hali ham yolg'on "scopus"larda maqola chiqarish jarayonlari muntazam davom etayotganidan, bu maqolalar hisobotlarda faqat songa xizmat qilayotganidan, xalqaro maydonlarda hech qanday qiymatga ega bo'lmagan tadqiqotlar qatoriga tushib qolayotganidan va, eng xunigi, ularning barchasi milliy ta'lim muassasalari va olimning mavqeyiga putr yetkazayotganidan tashvishlanib, bir ogohlantirish sifatida yozishga jazm qildik.

Yuqorida qayd etilgan jurnallarda maqola e'lon qilish oson emas, albatta, lekin o'zbek olimlarining ilmiy salohiyati, kuchi, bilimi va saviyasi jahonning eng nufuzli jurnallarida yaxshi maqolalar nashr ettirib, O'zbekistondagi Oliy ta'lim muassasalarini jahonning yuqori reytinglaridan joy olishiga munosib hissalarini qo'sha olishiga ishonamiz. Faqat maqsad to'g'ri olinib, harakatlarimiz songa emas, sifatga xizmat qilsa bas.

Nargiza MUSULMONOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili kafedrasi katta o'qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi

TIL VA TA'LIM INTEGRATSIYASI

Tilni muloqot vositasi va ilm-u ma'rifat kaliti sifatida o'rganish tarixiy mavzulardan biridir. Bugungi kunda til davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya maskanlarida davlat tilini o'qitish tizimini yanada takomillashtirish masalasi ham bugungi kun tartibidagi asosiy masalalardan biri bo'lib qoldi. Bir qator tilshunos olimlar, turli ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa soha vakillari, mamlakatimiz ziyolilari, tilimiz jonkuyarlari va fidoyilari tomonidan o'zbek tilini dunyo miqyosiga olib chiqish, obro'yi, tarixini qayta tiklash, yosh avlod qalbida ona tiliga nisbatan mehr uyg'otish, xorij fuqarolariga ham o'zbek tilining jozibadorligini namoyish etish va uning auditoriyasini yanada kengaytirish masalalari qayta-qayta ko'rib chiqildi. Natijada 2020-yil 20-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni imzolandi.

Uzluksiz ta'lim jarayonida maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab oliy va undan keyingi ta'limda ham o'zbek tilini mukammal o'rgatish, aholining til savodxonligini oshirish, ayniqsa, tarbiyachi va o'qituvchilarning asosiy vazifalaridan biri bo'lishi zarur. Respublikamizda faoliyat yuritayotgan milliy va ta'lim o'zga tillarda bo'lgan deyarli barcha o'rta umumta'lim maktablarida ona tili yoki o'zbek (davlat) tili fanlari o'qitiladi. Shu o'rinda bir fikrni e'tirof etib ketishni o'rinli deb bildik. Maktablarda o'qitiladigan rus va chet tillari kichik guruhlarga bo'linib, ikkitadan o'qituvchi tomonidan olib boriladi. Bu azaliy an'anaviy usul. Sababi til o'rganish boshqa sohalarga nisbatan ham zarur, ham murakkab hisoblanganligi sababli har bir o'quvchi bilan individual ishlash imkoniyatini yaratish maqsadida sobiq sho'ro davridan shunday qabul qilingan edi va bu an'ana bugungi kunda ham davom etmoqdi. Bu, albatta, juda o'rinli. Lekin nega aynan rus yoki chet tillarini o'qitishda shu usuldan foydalaniladi? O'zbekistonda o'z ona tilini ham shu tariqa o'qitish vaqti kelmadimikin? To'g'ri, bugungi kunda ko'plab olimlarimiz tomonidan til o'rgatishni soddalashtirish, inson hayoti davomida zarur bo'lgan til ilmi, qonun-qoidalarinigina o'rgatish kerakligi haqida juda ko'plab gapirilyapti. Bu fikrlarga to'la qo'shilgan holda o'zbek tiliga hurmat nuqtayi nazaridan uni chin ma'noda millat vatanparvari sifatida o'rganishda sinflarni kichik guruhlarga bo'lib o'qitish davri kelmadimikan? Milliy maktablarda o'quvchilarga ona tilini hijjalab o'qitish zarurati yo'q, albatta. Lekin boshqa tillarni o'rganishi uchun zamin bo'ladigan tilni, kerak bo'lsa, shunday o'qitish kerak deb hisoblaymiz. Chunki ona tili darslarida olinadigan yozma ishlar (diktant, insho, bayon) o'qituvchi tomonidan tekshirilgach, xatolar ustida ishlash, o'quvchiga keyingi safar yana shu xatolarni takrorlamasligi uchun tushuncha berish til ilmini singdirishning bir qismi hisoblanadi. Bir sinfda kamida 30 nafar o'quvchi bo'lsa, shundan hech bo'lmaganda 20 nafarining yozma ishidagi xatolarini tahlil qilish kerak bo'ladi. 40–45 daqiqa davomida o'qituvchi bunga to'laligicha ulgurmaydi. Agar sinfda (guruhda) 10–15 nafar o'quvchi bo'lganda, barchasining ishi to'liq tahlil qilinib, hatto husnixatiga ham e'tibor qaratish imkoni bo'lar edi. O'zga tilli maktablarda o'zbek (davlat) tili fani, yuqorida aytilganidek, kichik guruhlarga bo'lib o'qitiladi.

Respublikada faoliyat olib borayotgan xususiy maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarida ham davlat ta'lim-tarbiya maskanlarida bo'lgani kabi o'zbek tilining maxsus muallimlari dars va mashg'ulotlar olib borishi zarurati bugungi kunda sezilmoqda. Aynan shuning uchun Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida "O'zga tilli guruhlarda o'zbek tilini o'qitish" yo'nalishi bo'yicha O'zbek tili fakulteti tashkil etilgan. Bugungi kunda bu fakultet mamlakatimizdagi rus, qoraqalpoq, tojik va boshqa ta'lim o'zga tillarda olib boriladigan maktablar uchun o'zbek (davlat) tili fani mutaxassislarini tayyorlab beradi. Shuningdek, ushbu fakultet o'zbek tilini o'rganishni ixtiyor qilgan xorijlik qiziquvchilar bilan ham masofaviy ta'lim mashg'ulotlarini olib boradi. Fakultet talabalari xorijiy hamkorlik asosida turli davlatlarning turkolog olimlari videodarslarida (ZOOM platformasi orqali) ham ishtirok etadi.

"Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonga muvofiq 2025-yilga qadar davlat maktabgacha ta'lim tizimida amaldagi maktabgacha ta'lim muassasalarining hududlarini kengaytirish yoki yangi quriladigan muassasalar hisobiga o'zbek tilli guruhlar qamrovini 72%, 2030-yilgacha esa 80% ga yetkazish ko'zda tutilgan. Shu o'rinda biz xususiy maktabgacha ta'lim muassasalarida ham rus, ingliz, xitoy, arab va boshqa tillar singari aynan o'zbek tilini bolalarga maxsus mashg'ulotlar orqali o'rgatish, bolalarni qaysi millat vakili bo'lishidan qat'i nazar, o'zi yashab turgan mamlakatning – Vatanining tilida bemalol o'z fikrini ifodalay olishi, Vatan ramzlari, tarixiy shaxslari, qadriyatlari, shoir, yozuvchi, olim-u ulamolari haqida ma'lumotga ega bo'lishlari ham dolzarb hisoblanadi.

Bugun yoshlarimizda ko'p til o'rganish, xorijda tajriba oshirish, ta'lim olish ishtiyoqi juda baland. Bu mamlakatimiz uchun, uning gullab-yashnashi, rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo'shilishi uchun juda muhim, albatta. Ammo o'z ona tiliga bepisandlik bilan qarash, uni ardoqlamaslik, boshqa tillardan past ko'rish bu –

Vatanim, deb yonib yashaydigan avlodning ishi emas. To‘g‘ri, qancha ko‘p til bilsa, olamni o‘rganish uchun shuncha vositayi robita bo‘lar, ammo har tilni ona tilidek bilish – bu o‘zga tilni undan ortiqroq bilish yoki sevish degani emas. Tajribamiz davomida shunga guvoh bo‘lganmizki, har qanday tilni to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘rganib bo‘lmaydi. Ma’lum bir davlat tilini o‘rganish uchun uning grammatikasi, alifbosi va so‘z zaxirasini qaysidir o‘ziga yaqin bo‘lgan til bilan qiyoslab o‘rganadi. Shunday ekan, uzluksiz ta’lim jarayonida o‘qitilayotgan ona tili, o‘zbek (davlat) tili fanlari hech bir boshqa fandan kam bo‘lmasligi lozim.

Bola dunyoga kelar ekan, uning tegrasida qaysi tilda gapirishsa, u o‘sha tilni o‘z ona tili sifatida qabul qiladi. Go‘dak uchun ona allasi, eshitgan shirin muomalasi, muloqot jarayonidagi emotsiyalar uning ruhiyatiga bir umrlik ta’sir qiladi. Insonning aytgan birinchi so‘zi, birinchi yod olgan she’ri, birinchi dil izhori... Bularning bari u uchun ona tilining jozibasini belgilab beradi. Shunday ekan, bolalarimizning tillari ravon bo‘lishi, boshqa tillarni ham oson va tez o‘rganishlari, o‘zligini unutmasliklari uchun oilada, bog‘cha, maktab, oliy o‘quv yurtida ona tilining mavqeyi, jozibadorligi va, eng asosiysi, bu til uning uchun birinchi til ekanligini har daqiqada uqtirib borish darkor.

Ma’lumki, O‘zbekiston ko‘p millatli mamlakat hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Davlat tili to‘g‘risida”gi qonun va boshqa ko‘plab qonunlarda yurtimizda istiqomat qiladigan boshqa millat vakillarining tili, dini, urf-odatlariga hurmat bilan qarash alohida e’tirof etilgan. Bu “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonida ham o‘z aksini topgan. Demak, o‘zga til vakillari uchun o‘zbek tilini o‘rgatish, uni o‘z tili barobarida ishlatishga keng imkoniyatlar yaratish ham bugun asosiy e’tiborda bo‘lmog‘i lozim.

O‘zbekistonda barcha ta’lim tashkilotlari, xususan, oliy ta’lim muassasalarida “O‘zbek tili” kafedralari tashkil etilgan. Farmonda e’tirof etilishicha, ular 2025-yilga qadar 120 taga, 2030-yilda esa 140 taga yetkazilishi kerak. Kafedra professor-o‘qituvchilari tilni o‘qitish tizimini yanada takomillashtirish, uning ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish vazifasini oldilar. Ta’lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga integratsiyalashuvni ta’minlash talab qilinadi. Bu – ma’naviy eskirgan, zamon talablaridan ortda qolgan yoki javob berolmaydigan texnologiyalar asosida emas, balki bugun yosh avlod hayotining bir bo‘lagiga aylanayotgan axborot texnologiyalari, kommunikatsion qurilmalar orqali ularga til o‘rgatishni yo‘lga qo‘yish deganidir.

Hozirgi kunda bir qancha davlatlarda o‘zbek tiliga nisbatan qiziqish ancha kuchaygan. Biz buni deyarli har oyda o‘tkazilayotgan Xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar orqali bilib boryapmiz. Aynan xorijlik fuqarolarning o‘zbek tilini o‘rganishiga imkoniyat yaratish, masofaviy ta’lim orqali saboqlar olib borish, o‘zbek tilining ta’limiy korpusi, platformasini yaratish, lug‘atlarni yangilash kabi bir qancha vazifalar belgilab olindi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, til va ta’lim o‘rtasidagi integratsiya, mazkur farmonda ko‘rsatilganidek, faqatgina belgilangan muddatga qadar emas, balki doimiy mavzuga aylanishi hamda o‘ziga barcha soha vakillarini jalb etishi kerak.

Manzar ABDULXAYROV,
filologiya fanlari nomzodi

NAVOIY QO‘LYOZMALARINING JORIY IMLOGA TABDILI USTIDA OLIB BORILGAN HARAKATLAR TAHLILI

O‘zbek matnchiligida XV asr oxiri yoki XVI asr boshlarida kitobat qilingan adabiy manbalarni o‘rganish, joriy imloga tabdil (transliteratsiya) qilish va ularni nashr etish bilan bog‘liq katta salmoqqa ega ilmiy hamda amaliy tajriba to‘plangan. Xususan, Mir Alisher Navoiyning ulkan merosini tabdil qilish ustida olib borilgan amaliy harakatlar bir necha matnshunos olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Istiqlol sharofati bilan mumtoz yozuvimizda bitilgan shoir asarlari nafaqat kirill alifbosida, balki lotin yozuvida ham o‘z ifodasini topayotir. Biroq bu nashrlarda, o‘z navbatida, shu imkoniyatlarga muvofiq, professional bilim va ko‘nikma yetishmasligi namoyon bo‘layotganligi ham sir emas.

Avvalo, shu o‘rinda, tabdil istilohiga sharh berib o‘tish o‘rinli. Tabdil “almashtirish”, “o‘girish” ma’nolarini anglatadi. Jahon matnshunosligida “transliteratsiya” deb ataluvchi bu termin tor ma’noda bir yozuvning ikkinchi bir yozuvga aynan o‘zgartirilishiga aytiladi. Alibek Rustamov transliteratsiya va transkripsiya haqida gapirar ekan, shunday yozgan edi: “Bir yozuvdagi matnni ikkinchi bir amaldagi yozuvda ko‘chirish shartli ravishda hozirgi ilmda “transliteratsiya” (harf ko‘chirish) deyiladi. Ammo bu terminning asosiy ilmiy ma’nosi bir yozuvdagi harflarni ikkinchi yozuvda aynan aks ettirishdir...”[1]. Tabdil (transliteratsiya) keng ma’noda eski alifboda bitilgan o‘tmish bitiklarini joriy alifboda kitobxonlarga yetkazish usulidir. Bu sohaning nazariy masalalari bilan matnshunoslik shug‘ullansa, uning amaliyoti bilan Alibek Rustamov ta’biri bilan aytganda “matnchilik” shug‘ullanadi.

O‘tmishda yaratilgan mumtoz asarlarni tabdil qilishda, eng avvalo, matnshunoslikning bosh mezoni bo‘lgan ikki tamoyilga asoslaniladi:

1) ommaviy ehtiyojlar;

2) ilmiy manfaatlarga qaratilgan ijtimoiy talab.

Ayni shu ma’noda, bu tadqiqotchi yoki noshirdan ham shaklan, ham mazmunan bugungi yosh avlod ruhoniyati, talab-istaklari, saviyasiga mos ravishda hamda fan va texnika taraqqiyotining asosiy tamoyillari talablariga javob bera oladigan nashrlar tayyorlashni taqozo etadi.

Matnni tabdilga tayyorlash, birinchi navbatda, asarning qo‘lyozma nusxalari ustida ishlash, uni to‘g‘ri o‘qish, ayniqsa, badiiy matn salohiyatini anglash tadqiqotchidan keng qamrovli bilim talab qiladi. Xususan, matnshunos tadqiqotchi badiiy metod yoki ijodiy metod tamoyillarini to‘la ravishda matniy tadqiq etishi lozim[2].

Alisher Navoiy asarlari matnini mufassal o‘rganish usullari bundan ancha burun boshlangan. Shu paytgacha Navoiy asarlari matnini o‘rganishda o‘ziga xos matniy tadqiq etish usullaridan keng foydalanib kelingan. Zero, ulug‘ shoir asarlarini matniy tadqiq etish usullari, eng avvalo, matnshunoslikning tadrijiy taraqqiyoti uchun ikki yo‘nalishda xizmat qiladi: 1) Navoiy asarlarining mukammal ilmiy-tanqidiy matnini tuzish va, shu asosda, to‘liq sharhlar bilan ta’minlangan shoir asarlari ilmiy va ilmiy-ommabop nashrlarini amalga oshirish; 2) bu boradagi ilmiy tekshiruvlar shoir asarlari matnini o‘rganish yuzasidan olib boriladigan nazariy xarakterdagi ilmiy tadqiqotlar uchun ham asosiy omil vazifasini o‘taydi.

Navoiy asarlari matnini ilmiy o‘rganishda amalga oshirilgan dastlabki tadqiqot ishlari, asosan, 1938-yildan boshlangan edi[3]. Ungacha faqat 1928-yili nashr etilgan “O‘zbek adabiyoti namunalari” to‘plamidan boshqa ko‘zga ko‘rinarli biror bir tadqiqot ishi mavjud emas edi[4]. Dastlab Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligini keng nishonlash munosabati bilan “Xamsa”ning qisqartirilgan varianti tabdili, “Chor devon”, “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Mahbub ul-qulub” asarlari matni tabdili chop etildi.[5]

1938-yili Navoiy anjumanini o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish munosabati bilan shoir asarlari matnini nashr etish, ya’ni “Xamsa”ni nasriy ifoda, izoh va lug‘atlari bilan nashrga tayyorlash ishlari boshlandi. Navoiy yubileyini o‘tkazuvchi maxsus komissiyaning a’zosi bo‘lgan akademik G‘afur G‘ulom tayyorgarlik ishlarida faol ishtirok etadi. U (1940-yil) “Farhod va Shirin” dostonini nasriy bayonlash usuli bilan lotin alifbosi asosidagi o‘zbek yozuvida nashrga tayyorlaydi. Bu haqida taniqli matnshunos olim Porso Shamsiyev shunday yozadi: “Bu tekstologik usul o‘sha davrda yangilik bo‘lib, u qabul qilgan prinsip asosida shoirning boshqa asarlari ham nasriy bayoni ilova qilingan holda nashrga tayyorlana boshlandi”[6]. Darhaqiqat, mumtoz matnni bunday o‘rganish usuli, ya’ni dostonning zamonaviy nasrga o‘girilishi o‘tgan asrning 20–30-yillar o‘zbek navoiyshunosligining o‘ziga xos yangi bir yo‘siniga aylandi[7]. Shoirning bu faoliyatini ayrim adabiyotshunos tadqiqotchilar shunday baholaydi: “G‘afur G‘ulomning “Farhod va Shirin” dostonini nashrga tayyorlaganligi, shubhasiz, o‘zbek tekstologiyasi faniga qo‘shilgan munosib hissa bo‘lib, bu fakt G‘afur G‘ulomni birinchi o‘zbek tekstolog olimlari qatoriga qo‘yadi”[8].

XX asrning 60-yillaridan boshlab navoiyshunoslik yanada sermahsul ishlarni amalga oshirdi. “Xamsa”ning mukammal matni tabdili (Porso Shamsiyev, 1960), “Xazoyin ul-maoniy”ning akademik tabdili nashri (Hamid Sulaymonov, 1959–1960) va Alisher Navoiy “Asarlar”i 15 jildligining e’lon qilinishi navoiyshunoslikdagi muhim voqealardan bo‘ldi. O‘tgan asrning 90-yillarigacha Navoiy hayoti va ijodiy faoliyatiga bag‘ishlangan tadqiqotlar ro‘yxatining o‘zi alohida bir kitobni tashkil qiladi. 1987–2003-yillar davomida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti hamda H.S.Sulaymonov nomidagi Qo‘lyozmalar instituti tomonidan Alisher Navoiyning kirill yozuvida qilingan tabdili 20 jildlik “Mukammal asarlar to‘plami” nomi ostida e’lon qilindi[9].

Bulardan tashqari, bu davrlarda shoir ayrim asarlarining ommaviy nashrlari ham amalga oshirila boshlandi. Bunda E.E.Bertels, A.N.Kononov, A.K.Borovkov, M.A.Sale, H.Sulaymonov, P.Shamsiyev, S.Ibrohimov, I.Sultonov, Sh.Eshonxo‘jayev, S.Tosheva, L.Xalilov singari matnshunos, adabiyotshunos olimlarning tayyorlagan ilmiy matnlari asos bo‘ldi. Pirovard natijada, 1963-yili O‘zR FA A.S.Pushkin nomidagi Til va adabiyot institutida navoiyshunoslikda erishilgan ana shu matnshunoslik yutuqlari bazasida Mir Alisher Navoiy “Asarlar”ining o‘n besh jildlik nashrini tayyorlash ishlari boshlandi. Bu navoiyshunoslik tarixida shoir asarlarining qadim kulliyotlariga nisbatan ham eng to‘liq majmuasi bo‘lib, unda shoirning qariyb 30 asaridan 25 tasi ayrim o‘rinlarda ba’zi qisqartirishlar bilan berilgan edi. Bu majmua 1965–1968-yillar bosmadan chiqdi[10]. Ushbu nashrlar Oybek, G‘afur G‘ulom, Vohid Zohidov, Aziz Qayumov, Hamid Sulaymon, Porso Shamsiyev, Hodi Zarif, Ramz Bobojon kabi taniqli olimlar va adiblarning tahrir hay’ati safida o‘zaro hamkorliklari natijasida amalga oshirilgan bo‘lib, keyinchalik shu asosda shoir asarlarining o‘n tomligi rus tilida chop etiladi. Bu ishlar, birinchi navbatda, Navoiy adabiy merosini o‘rganish va targ‘ib etishda oldinga qo‘yilgan katta qadamlar bo‘ldi.[11] Alisher Navoiy “Xamsa”si tarkibiga kiruvchi besh doston 2006-yilda asl matni va mukammal nasriy bayoni bilan G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi tomonidan lotin yozuvida nashr etildi[12].

Alisher Navoiy tavalludining 570 yilligi munosabati bilan shoir asarlarining 10 jildligi e’lon qilindi[13]. Shuningdek, “Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti tarkibiga kiruvchi 4 devon ham nashrdan chiqdi[14].

Taqdim qilinayotgan matn qanday maqsad bilan yoki qaysi toifaga mo‘ljallanishidan qat’i nazar, har bir qism nashri ilmiy asosga ega bo‘lishi lozim. Shundagina uning mukammalligi ta’minlanadi. Afsuski, Alisher Navoiy asarlarining hozirgacha amalga oshirilgan nashrlariga qanchalik ko‘p mehnat va ilmiy salohiyat bilan yondashilgan bo‘lmasin, kamchilik va nuqsonlardan xoli emas.

Buning asosiy sabablaridan biri shoir asarlari tabdilining puxta tayyorlanmaganligi va matnning izohli lug‘ati to‘liq emasligidadir. Binobarin, ularning badi-

iy qimmati haqida qanchalik ko‘p gapirilmasin, bu hol ularning mukammalligiga hanuz soya solib turibdi. Shuning uchun ham, ushbu o‘rinda shoir qo‘lyozmalarining o‘rganilishi, tabdili, nashrlarining holati, sharh va izohlar bilan ta’minlanganlik darajasi, ularning saviyasi haqida to‘xtalish maqsadga muvofiq.

Har bir davrda adabiy jarayondagi katta evrilishlar shu soha bo‘yicha dong taratgan tarixiy siymolar asarlarining keng jamoatchilikka ommalashishidan boshlanadi. Binobarin, sobiq ittifoq davrida ham adabiyotshunoslikning yangi bir qirrasi – navoiyshunoslik katta adabiy yangilanishlarga sabab bo‘ldi. Unda ilk navoiyshunoslar V.V.Bartold, E.E.Beretels, A.Semenov, I.Yu.Krachkovskiy, A.N.Kononov, A.K.Borovkov, Oybek, G‘afur G‘ulom, S.Ayniy, Hamid Olimjon, ustoz navoiyshunoslar V.Abdullayev, Vohid Zohidov, Porso Shamsiyev, I.Sulton, H.Sulaymonov, A.Qayumov, A.Hayitmetov, S.G‘aniyeva, B.Valixo‘jayev, M.Hakimov, M.Hamidovalar bilan bir qatorda navoiyshunoslikning kenja avlodi I.Haqqulov, N.Jumaxo‘ja, Sh.Sirojiddinov, S.Olimov, A.Erkinov, U.Jo‘raqulov, D.Yusupova, D.Salohiy, K.Mullaxo‘jayeva kabi olimlarning xizmatlari katta bo‘ldi. Bu borada, ayniqsa, shoir asarlari yuzasidan olib borilgan tekstologik tekshirishlar, tabdillarga bag‘ishlangan ommaviy va nazariy xarakterdagi monografik ishlarni bu sohadagi eng katta ilmiy yutuqlar, deb hisoblash mumkin.

Shuni ta’kidlash joizki, sovet davrida shoir asarlarining kommunistik tuzum senzurasi ostida yaratilgan ommaviy nashrlari g‘oyaviy tahrir va mafkuraviy qisqartirish bilan nashr etilgan edi. Sho‘ro mafkurasi diniy mazmundagi matnlarning berilishiga yo‘l qo‘ymas, Alloh yoki Muhammad nomi uchragan har bir satr matndan olib tashlanar edi. Darhaqiqat, rus matnshunosi D.S.Lixachev to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “Matnning g‘oyaviy tahrir”dan o‘tishi asarning stilistik jihatlari bilan bog‘liq bo‘lishi yoki bo‘lmasligi mumkin. Tahrir ba’zan butun matn tarkibiga, ayrim hollarda uning alohida qismiga aloqador bo‘ladi. Yozma yodgorlikka butunlay teskari ma’no yuklanishi, matnda u yoki bu xil “g‘oyaviy tozalash” o‘tkazilgan bo‘lishi mumkin. Hatto asarga unda mutlaqo bo‘lmagan g‘oya qo‘shilishi yoki matnda mavjud bo‘lgan g‘oya qisqartirilishi “hollari uchraydi”[15]. Ommaviy nashrlarda asliyatga nisbatan katta farq va g‘oyaviy qisqartirishlar mavjud ekanligi haqida mutaxassislar o‘sha davrlardayoq e’tirof etishgan: “Ayni shu jihatdan, bu “O‘n besh tomlik”, umuman, ommaviy xarakterdagi nashr bo‘lib, unda, xususan, shoirning o‘zbekcha devonlaridagi she’rlar juda qisqartirib berilgan (“G‘aroyib us-sig‘ar”dagi g‘azallarning o‘zidangina 290 tasi, “Navodir ush-shabob” dan esa 291 tasi tushirib qoldirilgan!) bo‘lib, ayrim asarlardan ba’zi narsalargina (“Nasoyim ul-muhabbat”, “Tarixi anbiyo va hukamo”) keltirilgan edi. Shu sababdan ham bu nashr ilmiy talablarga javob berishdan ancha uzoq edi”[16]. Bulardan tashqari, filologiya fanlari doktori H.Sulaymonov “Xazoyin ul-maoniy”, “Devoni Foniy” asarlarining ilmiy-tanqidiy matnlarini tuzishga kirishgan va bu ishlar yuzasidan bir qancha muhim tadbirlarni bajargan[17]. Afsuski, bu nashrlar mafkuraviy tazyiq ostida chop etilgan bo‘lib, undagi hamd va na’tlardan tashqari, shoirning ayrim asarlari jiddiy qisqarishga uchragan edi. Aniqroq aytganda, bu ishlar Navoiy asarlariga bepisandlikdan boshqa narsa emas edi. Shoirning diniy qarashlari mavjud bo‘lgan tazkiralari ustida tadqiqot olib borish qo‘llab-quvvatlanmadi. Shoirning “Xamsat ul-mutahayyirin”, “Nasoyim ul-muhabbat” asarining esa, umuman, ilmiy-tanqidiy matnlari yaratilmagan edi[18].

Mamlakatimiz mustaqilikka erishgach, diniy qadriyatlarga, ota-bobolarimizning merosiga munosabat tubdan o‘zgardi. Ilgari mumtoz asarlarda “xudo”, “payg‘ambar” va ular bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalovchi hamd, na’t, munojotlar tushirib qoldirilgan bo‘lsa, mustaqillikdan so‘ng, ularni yozish, o‘qish imkoniyatiga ega bo‘ldik.

Yigirma jilddan iborat Navoiy “Mukammal asarlar to‘plami”ning nashr etilishi, birinchi navbatda, Navoiyning boy adabiy, ilmiy merosini to‘liq xalqqa yetkazishga imkon yaratdi. Ana shu majmua asosida yangi-yangi ilmiy tadqiqotlar yaratila boshlandi. Natijada, mustaqillik yillarida adabiyotshunoslik sohasining muhim bir qirrasi – navoiyshunoslik keng miqyosda rivojlana bordi. Shoir asarlari kirill alifbosiga o‘girilishi bilan bir qatorda, lotin yozuviga ham tabdil qilina boshlandi va ularning ayrimlari mazkur yozuvda nashr ham etildi. Ayni paytda, bu sohada qilinadigan vazifalardan ham ko‘z yumib bo‘lmaydi. Shoir asarlarining joriy lotin yozuviga qilingan tabdillari kirill yozuvidagining o‘zi. Har bir yangi nashr oldingilaridan mukammal bo‘lishi lozim. Tayanch matnlarni yaratmasdan turib, ilmiy tekshirishlar olib borish qiyin. Shuningdek, shoir asarlari hanuz to‘la ma’noda izohlar bilan to‘liq ta’minlamagan.

Akademik nashrning keyingi nashrlarida ma’nosi izohlanmagan ko‘plab, arabcha va forscha kiritmalar mazmun-mohiyatini ochish, ularni ilmiy muomalaga kiritish xalqqa Navoiy dahosini tushuntirish, uning ulkan so‘z san’atkori ekanini ko‘rsatishni taqozo etadi.

Ma’lumki, Alisher Navoiy o‘z ijodida uch til unsur (arab, fors, turkiy)laridan juda keng miqyosda foydalangan. Ehtimol shuning uchun ham shoir merosidagi ko‘plab so‘zlar hanuzgacha sharh-izohlar bilan to‘la ta’minlanmagandir. Bu holat, eng avvalo, endi ilmga kirib kelayotgan yosh matnshunos va manbashunoslar uchun qiyinchilik tug‘dirishi hech kimga sir emas. Hozirgi davrda ko‘plab o‘zbek adabiyoti namoyandalari qo‘lyozmalarining nashrlari yoki ular haqidagi tadqiqot ishlarida juda ko‘p nuqson va kamchiliklarning uchrashi shuning oqibati bo‘lsa kerak. Bunday holatlarning oldini olish uchun akademik nashr ustida ishlayotgan matnshunoslar oldiga germenevtik izohlash talabini ham qo‘yish maqsadga muvofiq bo‘lgan bo‘lardi. Ayni ma’noda, shoirning “Mukammal asarlar to‘plami”da uning ochqichi bo‘lgan ANATIL[19]da qayd etilmagan, ma’nosi tushunilishi qiyin, notanish forsiy, arabiy va ular bilan bog‘liq diniy-falsafiy, so‘fiyona tushunchalarni ifodalovchi kiritmalarni izohlab chiqish to‘g‘ri ish bo‘lgan bo‘lardi. Ularni mazmun-mohiyatiga ko‘ra, quyidagicha tasniflab, guruhlarga ajratish mumkin: 1) Qur’oni Karim oyatlari; 2) payg‘ambarlarimiz hadislari; 3) hikmatlar; 4) an’anaviy duolar; 5) an’anaviy sharaflash iboralari; 6) diniy kitob nomlari; 7) tasavvufiy kitob nomlari; 8) muallif ijodi; 9) so‘fiyona kalimalar; 10) pand-u nasihatlar; 11) hamd-u sano va munojotlar.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy asarlarining hozirgi o‘zbek yozuvidagi nashrlari ko‘payayotgani xalqimizni Navoiy dahosi bilan tanishtirish, ulug‘ shoir g‘oya va intilishlarini targ‘ib etish nuqtayi nazaridan tahsinga sazovor. Ammo Navoiy asarlarining tabdili saviyasi haqida ancha yillardan beri davom etib kelayotgan bahs-munozaralar kelajakda shoir asarlarining qo‘lyozmalar asosida qayta tabdil qilinishi va unda ilgari yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko‘rishni navoiyshunoslik oldiga bosh vazifa qilib qo‘yadi. Bu yo‘nalishda tadqiqotlarni davom ettirish dolzarb masaladir.

[1] Rustamov A. Matnchiligimizdagi nuqsonlar // O‘zAS, 1982-yil, 3-sentabr.
[2] Hayitmetov A. Alisher Navoiyning ijodiy metodi // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1968. № 3. – 10-bet.
[3] Shamsiyev P. Navoiy asarlari matnlarini o‘rganishning ba’zi masalalari: filol. fan. dokt. ... diss. – Toshkent: O‘zRFA, 1969. 1-bet.
[4] O‘sha asar. – 2-bet.
[5] Alisher Navoiy: Adabiyotlar ko‘rsatkichi. – Toshkent, 1991.
[6] Shamsiyev P. O‘sha asar. – 5-bet.
[7] Hayitmetov A. Adabiy merosimiz ufqlari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1997. – 53-bet.
[8] Ravshanov A. G‘afur G‘ulomning adabiyotshunoslik faoliyati // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1973. 4-son. – 28-bet.
[9] Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. – Toshkent: Fan, 1987–2003.
[10] Alisher Navoiy. Asarlar. 15 tomlik. - Toshkent, 1965-1968.
[11] Hayitmetov A. Alisher Navoiy asarlarining akademik nashrini tayyorlash haqida // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1976. 1-son. – 32-bet.
[12] Alisher Navoiy. Xamsa. / S.Ayniy tomonidan qisqartirib nashrga tayyorlangan. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2006.
[13] Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 10 jildlik. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 1987–2003.
[14] Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy. Nashrga tayyorlovchi O.Davlatov. – Toshkent: Tamaddun, 2011.
[15] Лихачев Д.С. Текстология. – М. – Л.: Изд. АН СССР, 1962. – С.83-84.
[16] Hayitmetov A. Alisher Navoiy asarlarining akademik nashrini tayyorlash haqida // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1976. 1-son. – 32-bet.
[17] Alisher Navoiy. “Navodir ush-shabob”. Ilmiy-tanqidiy matn / Nashrga tayyorlovchi: Hamid Sulaymonov. – Toshkent, 1959. 781-son.
[18] Hakimov M. Alisher Navoiyning to‘plovchilik faoliyati // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1978. 1-son. – 31-37-betlar.
[19] Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati, T. I – IV. – Toshkent: Fan, 1983–1985.

Nargiza XODJAKULOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti katta o‘qituvchisi

AN’ANAVIY LINGVISTIKAGA YANGICHA QARASH

(kompyuter lingvistikasi to‘g‘risida fikr va mulohazalar)

Til sistema sifatida aynan matematikaning o‘zidir.
Matematika aniq fan bo‘lib, formulalar munosabati orqali reallashadi.Til ham matematika singari aniqlikni talab qiladi va unda ikki yoki undan ortiq elementlarning o‘zaro munosabati bir butunlikni tashkil etadi.

Berezin

Ma’lumki, tilshunoslik fani XIX asrda (1816-yilda) mustaqil fan sifatida shakllandi. Shundan boshlab u turli aspektlarda, yo‘nalishlarda rivojlanib kelmoqda. Keyingi yillarda barcha fanlardagi kabi tilshunoslikda ham ikki fan“chorrahasida” yuzaga kelgan fanlar jadal rivojlanmoqda. Jumladan, ana shunday fanlar sirasiga sotsiolingvistika (sotsiologiya va tilshunoslik),psixolingvistika (psixologiya va tilshunoslik), etnolingvistika (etnografiya va tilshunoslik), neyrolingvistika (nevrologiya va tilshunoslik), matematik lingvistika va kompyuter lingvistikasi fanlarini kiritish mumkin. Bunday holni boshqa fanlar doirasida ham kuzatish mumkin: bioximiya, astrofizika, matematik fizika, matematik logika kabi. Buni fanlar tizimida bir necha fanlarning o‘zaro hamkorligi, integratsiyasi deb baholash lozim bo‘ladi.[1:5]

XX asrning 50-yillaridan boshlab tilshunoslikda “mashina tarjimasi”, “mashina tilshunosligi”kabi terminlar qo‘llana boshlandi. [2:4] Bu asrning buyuk kashfiyoti bo‘lgan kompyuter texnologiyalari tilshunoslikka ham kirib kelganining isboti edi. [3:4–5] Mashina tarjimasi yoki avtomatik tarjima deyilganda bir tildagi matnni ikkinchi bir tilga EHM (kompyuter) vositasida, tez vaqt ichida tarjima qilish nazarda tutiladi. Mashina tarjimasining asoschilari kibernetika va matematika sohasi vakillari bo‘lib, keyinchalik, bu ishda tilshunoslar ham faol qatnasha boshlagan. Shu tariqa mashina tarjimasi g‘oyalari butun dunyoda nazariy va amaliy tilshunoslikning rivojlanishida katta ahamiyat kasb etdi. Bu yo‘nalish bilan parallel ravishda formal grammatika nazariyasi yuzaga kelib, til va uning alohida aspektlari modelini yaratishga e’tibor qaratildi. Tilning bu jihatlari matematik lingvistika fanida ishlab chiqilib, o‘z navbatida, kompyuter lingvistikasi fanining yuzaga kelishi uchun poydevor bo‘ldi. Demak, shu asosida, tilshunoslikning yangi yo‘nalishi bo‘lgan kompyuter lingvistikasi va tilshunoslikning bir qator nazariy va amaliyyo‘nalishlari vujudga keldi.

Kompyuter lingvistikasi inglizcha “computational linguistics” so‘zining kalkasidir. XX asrning 80-yillariga qadar bufan turlicha nomlar bilan atalgan: *hisoblash lingvistikasi*, *matematik lingvistika*, *kvantitativ lingvistika*, *injener lingvistikasi* kabi. Bu fanning asosiy maqsadi lingvistik masalalarni yechishning kompyuter dasturlarini ishlab chiqish, inson va mashina (kompyuter) muloqotini optimallashtirish [4:10], tabiiy tilni qayta ishlash



(Natural Language Processing)dir. [5:2–3] NLP (Natural Language Processing)kompyuter lingvistikasida tabiiy tillarning kompyuter analizi va sintezini o‘z ichiga oladi. Bunda *analiz* tabiiy tilning kompyuterda morfologik, sintaktik va semantik tahlil yordamida tushunilishiga nisbatan ishlatiladi, *sintez* esa kompyuterda matnning grammatik shakllantirilishi va *generatsiyasi* (hosil qilinishi) demakdir. NLP bo‘yicha yaratilgan dasturiy ta’minotlar quyidagilar: *AlchemyAPI, Expert System S.p.A.,-General Architecture for Text Engineering (GATE), Modular Audio RecognitionFramework, MontyLingua, Natural Language Toolkit (NLTK)*. [1:7]

Kompyuter lingvistikasining asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

– avtomatik o‘qitish tizimini ishlab chiqish;
– bilimlarni tekshirish;
– matnlarni turli jihatdan avtomatik tahrirlash;
– matnlarning avtomatik tarzda morfologik, sintaktik va semantik tahlilini(inglizcha *parsing*) ta’minlovchi tizimlar yaratish (*parser*dasturlar);
– mashina tarjimasi uchun mo‘ljallangan dasturlarni ishlab chiqish;
– lug‘atlarni va kompyuterdagi matnni statistik tahlil qilish;
– lingvistik muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan optimal dasturlar yaratish;
– muloqotning kompyuter modelini ishlab chiqish;
– matn strukturasining gipertekst texnologiyasini yaratish;
– elektron lug‘atlar va tezauruslar yaratish;
– sun’iy intellekt tizimini ishlab chiqish;
– matnlar korpusini yaratish;
– matnni avtomatik referatlash;
– sujet strukturasini modellashtirish;
– nutqni avtomatik tushunish tizimini ishlab chiqish (inglizcha *ASR – Automatic Speech Recognition*);
– matndan faktlarni avtomatik ajratib olish (inglizcha *fact extraction, text mining*). [1:8]

Kompyuter lingvistikasida qo‘llaniladigan va yaratiladigan linvistik vositalarni shartli ravishda ikki qismga bo‘lish mumkin: deklarativ hamda protsedura qismlari. Deklarativ qismga til va nutq birliklari lug‘ati, grammatik ma’lumotnomalar, matnlar korpusi kabilarni kiritish mumkin. Protsedura qismi esa yuqoridagi lingvistik ta’minot bazasini boshqarish vositalarini (algoritmlar tuzish, dasturlar yaratish, kompyuter analizi va sintezi kabilar) o‘z ichiga oladi.

O‘zbek tili materiallari bo‘yicha kompyuter lingvistikasiga oid tadqiqot olib borgan olimlar sifatida H.Arziqulov, S.Rizayev, S.Muhamedov, A.Po‘latov, S.Muhamedova, N.Jo‘rayevalarni ko‘rsatish mumkin. Olimlar, asosan, statistik tahlil, algoritmlash, o‘zbek tilining aksiomatik nazariyasi, fe’llarning kompyuter analizi va sintezi kabi yo‘nalishlar bo‘yicha izlanishlarni amalga oshirganlar.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, kompyuter lingvistikasi hozirgi globallashuv davrida eng dolzarb mavzu hisoblanadi. Bu fan maktab darsliklari hamda oliy ta’lim muassasalarida chuqurroq va batafsil o‘rganilsa, yurtimizda hozirgidan ham ko‘proq yosh kompyuter savodxonlari yetishib chiqqan bo‘lar edi. Chunki bu sohada hali o‘rganilmagan qirralar ko‘plab topiladi. Ayniqsa, mashina tarjimasida boshqa bir til, masalan, ingliz tilidan o‘zbek tiliga matn tarjima qilinganda ma’no o‘zgarib ketish holatlari ko‘p uchraydi, ya’ni bu jarayon quyidagi rasmda ifodalangan holatga o‘xshab ketadi: kompyuter tushunadigan til *Piton, Java, C++* kabi tillardir. Bu rasmdagi it ham odam gapirgan gapni tushungani yo‘q.

Mashhur olim Maks Kaufman aytganidek, *“NLP is “Teaching computers to understand human languages”,*ya’ni “NLP – bu kompyuterga inson tilini tushunishni o‘rgatish”. Demak, dunyodagi 6000 dan ziyod tillarni kompyuter tushunadigan 0 va 1 raqamlar orqali unga o‘rgatishimiz mumkin. Buning uchun, albatta, yaxshi mutaxassislar kerak bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Rahimov. Kompyuter lingvistikasi asoslari.– Toshkent, 2010.
2. Grishman R. Computational linguistics. – Cambridge University Press, 1994.
3. Po‘latov A., Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent, 2007.
4. Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 24. Компьютерная лингвистика. – Москва: Прогресс, 1989.
5. Jurafsky D., Martin J.H. Speech and Language Processing. – New Jersey, 2000.

Dilfuza TUXLIYEVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

"ILMDIN KASB QILKI…"

Darsning mavzusi: Talaffuz va imlo me'yorlari bo'limi yuzasidan mustahkamlash darsi. (5-sinf, III chorak)

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad: o'quvchilarning talaffuz va imlo me'yorlari bo'limlari yuzasidan olgan bilimlarini umumlashtirish, mustahkamlash va tekshirish;

b) tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarni Vatanga muhabbat, ajdodlarga hurmat, buyuk an'analarimiz, yuksak ma'naviy qadriyatlarimizga sodiqlik, tinchlikni qadrlash ruhida tarbiyalash;

d) rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilar nutqini o'stirish, so'z boyligini oshirish va dunyoqarashini kengaytirish.

Darsning turi: mustahkamlash darsi

Darsda foydalaniladigan usullar: "Aqliy hujum", "To'g'risini top", "Muharrir minbari".

Darsda foydalaniladigan jihozlar: darslik, proyektor, imlo lug'ati, rangli qog'ozlar, tarqatma materiallar, taqdimotlar (slaydlar), ko'rgazmali qurollar.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

O'quvchilar bilan salomlashilgach, davomat aniqlanadi, sinf xonasining tozaligi va o'quvchilarning darsga tayyorgarligi ko'zdan kechiriladi. Dars musobaqa tarzida tashkil etilishi e'lon qilinadi.

II. O'tilgan mavzularni mustahkamlash.

O'quvchilar 7 ta kichik guruhga bo'linadilar. Buning uchun o'quvchilar o'qituvchi taqdim qilgan qutichadan o'zlari xohlagan 7 rangdan birini tanlab olishadi. Bu rangli qog'ozlarning har biriga guruh nomini ifodalovchi so'z bo'g'inlari ham qayd qilingan bo'ladi. Bir xil rangga ega bo'lgan o'quvchilar birlashib bitta guruhni tashkil qiladilar. Har bir o'quvchi qo'lidagi ranglarni birlashtirganda quyidagicha guruh nomlari hosil bo'ladi:

1. Harflar imlosi.
2. Asos va qo'shimchalar imlosi.
3. Qo'shib yozish.
4. Chiziqcha bilan yozish.
5. Ajratib yozish.
6. Bosh harflar imlosi.
7. Ko'chirish qoidalari.

Har bir kichik guruh belgilangan joyga joylashadi. O'qituvchi birma-bir shartlarni e'lon qiladi. Har bir shartga muvofiq Alisher Navoiy bayti o'qiladi va proyektorda ko'rsatiladi. So'ng guruhlar ushbu baytni sharhlaydilar.

Ekranda Alisher Navoiy qalamiga mansub dastlabki bayt namoyish etiladi va uni o'qituvchi o'qib, sharhlab beradi:

Olam ahli, bilingizkim, ish emas dushmanlig',
Yor o'lung bir-biringizgakim, erur yorlig' ish.

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar bugun imlo qoidalari bo'limi yuzasidan egallagan bilimlaringizni musobaqa tarzida tekshirib, aniqlab olamiz. Musobaqa shartlarini diqqat bilan tinglang va bajaring. Siz bugungi darsda o'zaro bir-biringizga shartli raqib bo'lsangiz-da, shartlarni bajarish davomida o'zaro hurmat, do'stona munosabatni aslo unutmang. Hazrat Navoiy aytganidek, "ish emas dushmanlig'". Chunki biz hammamiz bir jamoamiz.

I shart. To'g'risini top.

Bu shartda har bir guruhga 14 tadan o'zbek tilining asosiy imlo qoidalariga doir qoidalar beriladi. O'quvchilardan ana shu qoidalarni to'g'ri yoki noto'g'riga ajratib, qog'ozga yopishtirib chiqishlari so'raladi. So'ng javob varaqalari guruhlar o'rtasida almashtirilib tekshiriladi.

Tilga ixtiyorsiz – elga e'tiborsiz.

O'qituvchi: Aziz bolajonlar, demak, tilga e'tiborsiz odam butun elga e'tiborsiz, bepisand odam bilan teng ekan. Shuning uchun og'zaki va yozma nutqda doimo har bir so'zimizni o'z o'rnida, imlo va talaffuz me'yorlariga muvofiq holda ishlatishga e'tibor qaratish lozim. Buning uchun, avvalo, imlo qoidalarini puxta o'zlashtirishimiz kerak bo'ladi.

TO'G'RI	NOTO'G'RI
g' undoshi bilan tugagan so'zlarga jo'nalish kelishigi qo'shimchasi *-ga* tarzida qo'shiladi	*Mo'jiza, mo'tadil* kabi so'zlarda unlini cho'ziqroq aytish uchun tutuq belgisi qo'yiladi
a unlisi bilan tugagan fe'llarga *-v, -q, -qi, -vchi* qo'shimchalari qo'shilganada *a* unlisi *o* aytiladi va yoziladi	*-da, -dan, -di* qo'shimchalari jarangsiz undoshlarga qo'shilganda *-ta, -tan, -ti* shaklida aytiladi va yoziladi
Ikkinchi qismi turdosh ot yoki *obod* so'zi bilan yasalgan joy nomlari qo'shib yoziladi	*-ar, -mas* qo'shimchasi bilan yasalgan qo'shma so'zlar ajratib yoziladi
Har, hech, bir kabi so'zlar o'zi birikib kelgan so'zdan ajratib yoziladi	*Yildan yilga, kundan kunga* birliklari orasiga chiziqcha qo'yiladi
So'zning *-ma, -ba* yordamida birlashgan qismlari chiziqcha bilan yoziladi	*-chi, -a(-ya), -u(-yu), -da* qo'shimchalari o'zidan oldin kelgan so'zlarga qo'shib yoziladi
Muhim tarixiy sana va bayramlarning nomlari tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan yoziladi	Joy nomlari kichik harf bilan yoziladi
So'z boshida kelgan yolg'iz unli yakka o'zi oldingi satrda qoldirilmaydi	Harflar birikmasi alohida ajratib ko'chirilishi mumkin

II shart. Lug'at diktant. Ushbu shart bo'yicha har bir guruhdan quyidagi so'zlardan lug'at diktant olinadi va javob varaqalari guruhlar o'rtasida almashib tekshiriladi:

Ilmdin kasb qilki, sud ermas
Charx mushkillarin hal qilmoq.
Lekin ul ilm dag'i naf etmas
Bilibon, bo'lmasa amal qilmoq.

O'qituvchi: Sizlar bilan imlo qoidalarini qay darajada yod olganligimizni sinovdan o'tkazib oldik. Endi mazkur qoidalarni amalda qay darajada qo'llay olishingizni tekshirib olamiz: *ko'zoynak, afzal, supurgi, e'tiroz, halqum, xohlamoq, atirsovun, asab, tutun, qip-qizil.*

Guruhlar o'qituvchi tomonidan aytilgan so'zlarni yozadilar va o'zaro bir-birlarining yozganlarini tekshiradilar. O'qituvchi fikrlarni umumlashtirib, g'olib guruhga rag'bat kartochkasini taqdim etadi.

III shart. Muharrir minbari. Ushbu shartga ko'ra o'quvchilarga Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonidan olingan "Karam vasfida" maqolati taqdim qilinadi va ular matndagi imlo xatolarini tuzatishlari kerak bo'ladi:

Falon kotib gar xatni bundog' yozar,
Ani bu mansabdin qo'pormoq kerak.
Yuzin nomasidek qora aylabon,
Qalamdek boshi dag'i yormoq kerak.

O'qituvchi: Alisher Navoiy imlo qoidalariga rioya qilmay xato yozuvchi kotiblarni qattiq qoralaydi. Bunday xatoga yo'l qo'yganlarning yuzini xuddi yozgan xatidek butun xalq oldida qora qilib, qalamni yozish uchun ochqichda boshini kesgan kabi (ya'ni qalamni uchini ochgan kabi) yorish lozimligini uqtiradi. Quyida mana shunday kotibning xatolarini topib to'g'irlashingiz lozim.

V-maqolat. Karam vasfida

*Shunday kishilar ham borki, hech isrofga yo'l qo'ymasalar ham, bunday odamlarni saxiy deb bo'lmaydi, birovga ehson berishda ular me'yorga e'tibor **qiladilaru**, lekin ehson **berilayotkan** odamning ehsonga qanchalik muhtoj ekanligiga qaramaydilar. To'q odamning oldiga **dastur xon** yozadilar, egni but odamga esa to'n kiygizadilar. La'l chiqadigan **badaxshonga** la'l yuboradilar, ziraning koni bo'lgan Kirmonga zira keltiradilar. Shamni kuni bo'yi yoqib qo'yadilar, bu **blan** quyosh yorug'iga qo'shimcha yorug' bermoqchi bo'ladilar. Ular qaqrab yotgan bog'ning ustidan yog'may o'tib, yomg'irni **toqqa** to'kkan bulutga o'xshaydilar.*

*Sen shunday odamni saxiy deb bilki, baxt va davlat uning boshini yuqori ko'tarib, ahvoli yaxshi bo'lsa ham, yomon bo'lsa ham birovdan **molu** amal tama qilmaydi. Bunday odam Xudo nimani bersa qanoat etadi. **Dengizni** oldida tursa ham, undan bir tomchi suv so'ramaydi. Birovning yarasini ko'rsa, malhamni ayamaydi.*

IV shart. Qoidalarni izohla! Bu shartga ko'ra har bir guruhga bittadan qoida o'qib eshittiriladi, o'quvchilar shu qoidaga mos so'zni topib javob qaytarishi kerak. Har bir to'g'ri javob uchun rag'bat kartochkalari beriladi.

Befoyda so'zni ko'p aytma va foydalig' so'zni ko'p eshiturdan qaytma.

O'qituvchi: Bu shartda har bir qoidaga mos bittadan so'z aytasizlar, qolganlar esa ushbu javoblarni diqqat bilan tinglashlari lozim.

"Harflar imlosi" guruhi: *Bilan* va *uchun* so'zlarining qisqargan *-la* va *-chun* shakli chiziqcha bilan yoziladi. Masalan, sen-chun, onam-la.

"Asos va qo'shimchalar imlosi" guruhi: Ikkinchi qismi turdosh ot yoki *obod* so'zi bilan yasalgan joy nomlari qo'shib yoziladi. *(Davlatobod, Uchtepa)*

"Qo'shib yozish" guruhi: Ruscha baynalmilal yoki tarjima qilingan qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi. *(telestudiya, radioto'lqin)*

"Chiziqcha bilan yozish" guruhi: *-mas* qo'shimchasi bilan yasalgan qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi. *(o'rinbosar, ishyoqmas)*

"Ajratib yozish" guruhi: *parvo, obro', mavqe* so'zlariga egalik qo'shimchasi qo'shilganda *y* tovushi ortadi va shunday yoziladi. *(parvoyim, mavqeyi)*

"Bosh harflar imlosi" guruhi: So'z oxirida kelgan unli yolg'iz o'zi keyingi satrga ko'chirilmaydi. *(qal'a, mudofaa)*

"Ko'chirish qoidalari" guruhi: *a* unlisi bilan tugagan fe'llarga *-v, -q, -qi, -vchi* qo'shimchalari qo'shilganda *a* unlisi *o* aytiladi va yoziladi. Masalan, *saylov, taroq, to'quvchi*.

V shart. Sardorlar bellashuvi.

Bu shartga binoan, guruh sardorlari o'rtasida o'tilgan mavzu yuzasidan tezkor savol-javob o'tkaziladi. Savollarni har bir guruh keyingi guruh sardoriga beradi.

Kishi chin so'z desa zebo durur,
Necha muxtasar bo'lsa, avlo durur.

O'qituvchi: Demak, ushbu shartga ko'ra siz savollarga to'g'ri va muxtasar – qisqa tarzda javob berishingiz talab etiladi.

"Aqliy hujum" usulidan foydalanib sardorlarga savollar beriladi. Oxirida qolgan guruh sardori g'oliblikni qo'lga kiritadi.

IV. Baholash va rag'batlantirish.

To'plangan ballar hisoblanib, natijalar e'lon qilinadi. G'olib guruh hamda darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi. Darsda ishtirokiga ko'ra barcha o'quvchilar baholanadi.

O'qituvchi: Aziz bolajonlar, mana sizlar bilan bugun talaffuz va imlo me'yorlari bo'limini yakunladik. Siz barcha qoidalarni o'zlashtirib olganingizga amin bo'ldim. Bu bugungi musobaqa darsimizda ham o'z isbotini topdi. Darsimiz bevosita Navoiy bayti bilan boshlangan edi. Endi uning yakunida ham bu an'anaga sodiq qolamiz. Alisher Navoiy "Layli va Majnun" dostonini quyidagicha yakunlagan edi, men ham darsni ushbu baytlar bilan tugatishga qaror qildim:

Yozmoqda bu ishqi jovidona,
Maqsudim emas edi fasona.
Mazmunig'a bo'ldi ruh mayli,
Afsona edi aning tufayli.
So'gin nechakim uzattim oxir,
Yig'lay- yig'lay tugattim oxir.

O'qituvchi: Yo'g'e, adashdim chog'i:

Qoidalarni berib uzattim oxir,
Xursand bo'lib tugattim oxir.

V. Uyga vazifa.

"Alisher Navoiy – o'zbek adabiy tili asoschisi" mavzusida matn tuzish. Matndagi talaffuzi va imlosi farqlanadigan so'zlar tagiga chizish.

Barno ABDURAHMONOVA,
Qo'qon davlat pedagogika instituti dotsenti

O'QUVCHILARGA BADIIY TASVIR VOSITALARINI O'RGATISH USULLARI

Men yovvoyi so'zlarni tutdim. (Yusuf Xos Hojib)

Darsning mavzusi: "Qutadg'u bilig" asarining badiiy xususiyatlari. (11-sinf)

Darsning maqsadi:

a) tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarning badiiy tasvir vositalari orqali badiiy adabiyotga, xususan, Yusuf Xos Hojib ijodiga bo'lgan qiziqishlarini orttirish;

b) ta'limiy maqsad: o'quvchilarni asardagi tasvir vositalari, ularning turlari va qo'llanish xususiyatlari bilan tanishtirish;

d) rivojlantiruvchi maqsad: mavzu asosida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq malakalarini rivojlantirish, badiiy tasvir vositalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish va takomillashtirish.

Darsning jihozi: "Qutadg'u bilig" nashrlaridan namunalar, asardagi badiiy-tasvir vositalari jadvali, asardan olingan parchalardan iborat tarqatmalar.

Darsning borishi:

I. O'qituvchi darsni kirish suhbatidan boshlaydi:

Biz o'tgan darslarimizda Yusuf Xos Hojibning hayoti va ijodi, u yaratgan muhtasham asar "Qutadg'u bilig" dostonining tuzilishi, sujeti, obrazlar tizimi, unda ifodalangan asosiy g'oya va mavzular haqida suhbatlashgan edik. Keling, shu asar haqida o'qiganlarimizni yana bir marta xotirlaylik.

O'qituvchi: Yusuf Xos Hojib o'z asarini nima maqsadda yozgan? Maqsadini amalga oshirish uchun qaysi ramziy obrazlardan foydalangan?

Birinchi o'quvchi: Badiiy asarning yaratilishi faqat shaxsiy istak bilangina bog'liq emas. U jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichidagi talab va ehtiyojlar zamirida yuzaga keladi. Yusuf Xos Hojibning asari turkiy xalqlarning milliy tiklanish jarayonlari boshlanib kelayotgan davrda yaratilgan. Bu paytda qoraxoniylar davlati mustaqil bir davlat sifatida shakllangan edi. Unda turkiy xalqlarning ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-madaniy imkoniyatlari ko'rsatib berilgan.

Ikkinchi o'quvchi: Qo'lga kiritilgan yutuq – davlatchilikning paydo bo'lishi uchun ramziy obrazlardan foydalanilgan. Undagi hukmdor – elig Kuntug'di qiyofasida ko'rsatilgan. U Adolat ramzidir. Hukmdorning eng yaqin yordamchisi, qo'ldoshi vazir Oyto'ldi Davlat ramzini anglatadi. O'gdulmish Aqlning ramzi. U asarda Oyto'ldining o'g'li qiyofasida ko'rinadi, keyinroq otasining o'rniga vazir bo'ladi. O'zg'urmish esa zohid timsolida keladi. Adib shu qahramonlarning badiiy taqdiri, ya'ni talqini vositasida Adolat va Aqlni ulug'laydi.

Uchinchi o'quvchi: Insonning baxtli va saodatli bo'lishi uchun zarur bo'ladigan xislat va fazilatlarni badiiy tarzda ko'rsatib beradi. Turkiy tilning nozik imkoniyatlaridan unumli foydalanadi. Turkiy tilning ichki, nozik imkoniyatlarini namoyish etish ham adib oldidagi asosiy vazifalardan biri edi.

O'qituvchi o'quvchilarning javobini tinglaydi, o'rni bo'lsa qo'shimcha ma'lumotlar beradi.

II. Yangi mavzu bayoni.

Dars suhbat metodi asosida olib boriladi. O'quvchilar beshinchi sinfdan boshlab tashbeh, tazod, istiora, tajnis, irsoli masal kabi tasvir vositalari haqida nazariy bilimga ega bo'lganlar. O'qituvchi o'quvchilarning quyi sinflarda olgan adabiy-nazariy bilimlariga tayangan holda quyidagi savollardan foydalanishi mumkin: Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" asarida qaysi badiiy tasvir vositalarini ko'proq qo'llagan? Ular qaysi maqsadda qo'llangan?

O'quvchi: Yusuf Xos Hojibning badiiy uslubi uchun tashbeh – o'xshatish, istiora, ta'did, jonlantirish, tazod singari tasvir vositalari xosdir. U anafora, inversiya, alliteratsiya, ritorik so'roq, ritorik murojaatlardan ham unumli foydalanadi.

O'qituvchi: Tashbeh nima, uning qanday qismlari bor? Yusuf Xos Hojib tashbehlarining o'ziga xosligi nimada?

O'quvchilardan biri **tashbeh** haqida bilganlarini darslikdan o'qiganlariga tayanib, quyidagi misralar misolida izohlashga harakat qilishi mumkin:

Bo'dum erdi **o'qteg**, ko'ngul erdi **ya**,
Ko'ngul qilg'u **o'qteg**, bo'dum bo'ldi **ya**.

Mazmuni: Qaddim **o'qteg** (to'g'ri) edi, ko'nglim esa **yoydek** edi. Ko'ngil orzulari hanuz **o'qdek**, qaddim esa **yoy** bo'ldi.

O'qituvchi proyektor orqali "Qutadg'u bilig" asaridagi badiiy tasvir vositalariga misollarni tayyor holda o'quvchilarga ko'rsatadi hamda ulardan she'rdagi poetik ohangdorlik to'g'risida fikr yuritishlari talab qilinadi. Har bir so'zning boshida kelgan birinchi tovushni ajratib ko'rsatishlarini, bu tovushlar takrori qanday badiiy hodisani yuzaga keltirayotganligini va ularni nima uchun qo'llanganini tushuntirib berishlarini so'raydi. Masalan:

Tarig'chi **t**urur, ko'r, **t**aqi bir qu**t**u,
Keraklig kishilar **t**urur, bu bu**t**u.

O'quvchi: Keltirilgan misolda o'n bitta so'z bo'lib, bu so'zlarning oltitasi tarkibida "t" tovushi qatnashgan. Shundan to'rtta so'zning boshida "t" tovushi ishlatilgan. Tovushlarning bunday takroriga asoslangan hodisa she'riyatda alliteratsiya hodisasi deb yuritiladi. Alliteratsiya hodisasi so'zlardagi ohangdorlikni ta'minlaydi,

asosan, undosh tovushlarning takror ishlatilishidan paydo bo‘ladi. Ayrim hollarda unli tovushlar ham takror kelishi mumkin. Yusuf Xos Hojibning bu baytlarida undosh tovush takror kelib, konsul alliteratsiyaga (undosh tovushlarning takror kelishi) misol bo‘ladi.

Agar o‘quvchi bu javobni berishga qiynalsa, o‘qituvchi ko‘mak bergani ma’qul.

O‘quvchining javobini eshitgan o‘qituvchi navbatdagi she’riy misraga o‘quvchilar diqqatini jalb qiladi:

Tili yalg‘an erning jafa qilqi – ul,
Jafa kimda ersa o‘shul yilqi – ul.
Kishi yalg‘aninda tilama vafa,
Bu bir so‘z sinamish o‘kush yilqi – ul.

To‘rtlik matni ustidagi ishni o‘quvchilar o‘zlari uchun notanish bo‘lgan so‘zlar lug‘atini tuzishdan boshlaganlari ma’qul. Bunda, avval, hozirgi tilimizga yaqin keladigan, ma’nolarida ayirma bo‘lmagan so‘zlar aniqlanadi (Savol: qo‘shimcha lug‘atlarsiz tushunilishi mumkin bo‘lgan qaysi so‘zlarni ajrata olasiz?). Gap shundaki, mazkur to‘rtlikdagi deyarli barcha so‘zlar alohida-alohida olinadigan bo‘lsa, ular hozirgi tilimizda ham mavjuddir. Bu yerda birgina “o‘kush” so‘zi tushunarsiz, xolos. Ikkinchi “yilqi” so‘zining o‘zagini topish so‘ralsa, u ham osonlik bilan “hazm bo‘ladi”. Demak, bu yerda “yilqi” shakli hozirgi “yilgi” so‘zi bilan bir xil ekanligi (“o‘kush yilqi – ko‘p yilgi”) ma’lum bo‘ladi.

O‘quvchi: Muallif bu she’rning ikkinchi misrasida kelgan “yilqi” so‘zi bilan to‘rtinchi misrada kelgan “yilqi” so‘zlarini o‘zaro omonimlik munosabatda qo‘llab, she’riyatda keng qo‘llaniladigan jinsdoshlik asosida yaratiladigan tajnis san’atini qo‘llagan.

So‘ngra to‘rtlik mazmuni izohlanadi. Buning uchun quyidagicha topshiriqdan foydalanish mumkin bo‘ladi. Har bir misraning bir necha variantdagi izohlari o‘quvchilar e’tiboriga havola etiladi. Ular matn mazmuniga mos variantni ajratishlari lozim. Ularni quyidagicha shaklda taqdim etish mumkin:

1-misra:
A) Tilini yalagan kishining qilig‘i jafolidir;
B) Tili yolg‘on erning qilg‘ilig‘i jafo va musibatdir;
D) Tili yolg‘on bo‘lgan bu kimsa, uning qilig‘i jafodir;
E**) Tili yolg‘on (yolg‘onchi) kishining qiliqlari jafodir.**

2-misra:
A) Kimda jafo bo‘lsa, u o‘sha yillarda qolib ketadi;
B) Kim jafokor bo‘lsa, uning jafosi ko‘p yillarga yetadi;
D) Jafo kimda bo‘lsa, u jafosini odamlarga emas, hayvonlarga qilishi kerak;
E) **Jafo kimda bo‘lsa, o‘sha kishi odam emas, balki yilqi – hayvondir.**

3-misra:
A) Kishi yolg‘onida vafo tilama;
B) Kishidan yolg‘on vafo tilama;
D) Yolg‘onchi kishi vafoni biladimi;
E) **Yolg‘onchi kishidan vafo kutmagin.**

4-misra:
A) Bu bir so‘zdirki, ko‘p yilqilarda sinalgandir;
B) Bu bir so‘zdirki, uquvli hayvonlarda sinab ko‘rilgandir;
D) Bu ko‘p yillar davomida uquv va zakovat bilan sinalgandir;
E) **Bu bir so‘zdirki, ko‘p yillar davomida sinalgandir.**

O‘quvchi o‘zi uchun to‘g‘ri deb bilgan misrani yuqoridagi kabi ajratib ko‘rsatadi. So‘ngra unda ifodalangan badiiy tasvir vositasini aniqlash topshirig‘i beriladi.

III. Darsni mustahkamlash.

“Bahor madhi” qismidan olingan parcha ustida ishlash. Undagi tasvir vositalarini aniqlash. O‘qituvchi darsning bu bosqichida ham suhbat metodini davom ettirgan holda o‘quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qiladi:

Darsimiz uchun tanlangan epigrafni qanday tushunasiz?

Siz bugungi mavzumiz uchun qaysi epigrafni tavsiya etgan bo‘lar edingiz?

Istiora haqida nimalarni bilasiz? Yusuf Xos Hojib asarida qanday istioralar uchraydi? Quyidagi misralarni o‘qing, undagi istioralarni topib, bajarayotgan vazifasini aytib bering.

Qara bash yag‘isi **qizil til** turur,
Necha bash yedi ul, taqi ma eyur.
Bashingni tilasang, tilingni ko‘daz,
Tiling tegma kunda bashingni yeyur.
Qora bosh yovi bu qizil til turur,
Necha bosh yedi u yana ma yur.
Boshing sog‘lig‘i-chun tiyib yur tiling,
Tiling istagan kun boshingga yetur.

Quyidagi parchalar asarning qaysi qismidan olingan? (O‘quvchilarning tayyorgarligiga qarab o‘qituvchi asarning turli boblaridan kichik-kichik parchalarni tavsiya etishi mumkin.)

Tazodni aniqlang:
Uqushlug‘, **vafalig‘**, kishi tuzuni,
Yulug‘lar kishika qamug‘ o‘zini.
Arig‘siz, **jafalig‘**, qilinchi o‘tun
Qali aydi ersa, qiyar so‘zini.

Ta’didga keltirilgan misolni asoslashga harakat qiling:
Tilingni ko‘dazgil, **ko‘z**ingni ko‘daz,
Bo‘g‘o‘zni ko‘dazgil, halal, yegil az.

Tajnisni topa olasizmi?
O‘sal bo‘lma, saqlan qamug‘ ishda san,
O‘sayuq arutti ekaguda san.

Bahor tasvirini esga oling. Unda qanday qush va hayvonlar haqida gap boradi? Shoir nima uchun ayni shu jonivorlarni tanlab olgan deb o‘ylaysiz? Quyidagi jadvalga qush va hayvon nomlarini joylashtiring. Ular qanday badiiy tasvir vositasini yaratish uchun asos bo‘lishini izohlashga hamda darslikdan misol keltirishga urinib ko‘ring.

Jonivorlarning matndagi nomi	Jonivorlar nomining bugungi kundagi muqobili	Qisqacha izoh
qug‘u	oqqush	
qaz	g‘oz	
o‘rdak	o‘rdak	
turna	turna	
kaklik	kaklik	
qora chumchuq	qora zog‘	
sanvach	bulbul	
ilik kulmiz	jayron	
sig‘un muyg‘aq	bug‘u	

IV. Uyga vazifa.

Quyida asarda qo‘llangan tasvir vositalarini topish, ularning bajarayotgan vazifalarini belgilash uchun o‘quvchilarning o‘zlari to‘ldirishlari mumkin bo‘lgan jadval namunasi tavsiya etilmoqda. Unga ko‘ra o‘quvchilar yuqorida to‘ldirgan jadvallaridagi jonivorlarning “Qutadg‘u bilig” asarida qanday badiiy tasvir vosita yaratish uchun asos bo‘lganligini jadvalning uchinchi ustuniga yozishlari topshiriq qilib beriladi. Sinfning tayyorgarlik darajasiga qarab ularning mazmunini o‘zgartirish ko‘zda tutiladi. Bunga tasvir vositalari haqidagi ma’lumotlarni qisqartirish yoki kengaytirish hisobiga erishish mumkin bo‘ladi.

Badiiy-tasvir vositasi	Misollar	Qisqacha izoh
tashbeh (o‘xshatish)	Ko‘kis turna ko‘kda unun yanguqular, Tizilmish tatirtag uchar, yelgurar.	
istiora		
epitet		
tazod		
ta’did		
tajnis		
talmeh		
so‘ztakrori		
alliteratsiya (so‘z boshidagi tovushlar takrori)		

Darsda qatnashgan o‘quvchilar baholanadi va dars yakunlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva M. Djumaboyeva D. Jahon adabiyotini o‘qitishda interaktiv metodlardan foydalanish. – Toshkent, 2019-yil. 28-bet.
2. Is’hoqov Y. So‘z sana’ti so‘zligi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2014.
3. Karimov Q. Ilk badiiy doston. – Toshkent: Fan, 1971.
4. To‘xliyev B. Badiiy asarlarni sharhlab o‘rganish. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013. 147- bet.
5. To‘xliyev B. Yusuf Xos Hojib va Alisher Navoiy. – Toshkent: Matbaa-tongi, M.CH.J. 2001. 67- bet.
6. To‘xliyev B., Karimov B., Usmonova K. Adabiyot. O‘rta ta’lim maktablarining 11-sinfi uchun darslik-majmua. – Toshkent: O‘zME nashriyoti, 2018.
7. Yo‘ldoshev Q. So‘z yolqini. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. 504- bet.

Metodik tavsiya

Oybibi ISKANDAROVA,
Toshkent davlat transport universiteti o‘qituvchisi,
filologiya fanlari nomzodi

MUAMMOLAR XUSUSIDA BA’ZI MULOHAZALAR

Til doimiy harakatda bo‘lganligi, unda jamiyat taraqqiyotiga mos yangi so‘zlar paydo bo‘la borishi hamda vaqti kelib ularning iste’moldan chiqishi bois unga xos bo‘lgan hodisalar doimo o‘rganishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat tiliga doir qator farmon va dasturlarida: “sanoat, bank-moliya, diplomatiya, harbiy ish tizimida o‘zbek tilining qo‘llanish doirasini kengaytirish, etimologik va qiyosiy lug‘atlar nashr etish, xalqaro muzokaralar va diplomatik munosabatlarda davlat tilidan foydalanish, me’yoriy-huquqiy hujjatlarini yaratish, davlat tili qoidalarining buzilishi bilan bog‘liq holatlarni bartaraf etish” kabi muammolar qamrab olingan va ularning yechimlari berilgan. [1:2] Shundan kelib chiqqan holda savodxonlikka to‘siq bo‘layotgan muammolarning ba’zilarini toifalash jadvali orqali ko‘rsatib o‘tishni lozim topdik:

Savodxonlidagi bu kabi qusurlar ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan guruhlarga ham, shuningdek, milliy guruh talabalariga ham, eng achinarlisi, ziyoli qatlamga ham xos.

So‘zni to‘g‘ri talaffuz qilmaslik, ya’ni orfoepik me’yorning buzilishi orfografik xatolarni keltirib chiqaradi. Bunday muammolarning oldini olishda aytilishi va yozilishi mos kelmaydigan so‘zlar qatnashgan mashqlardan foydalanamiz. Masalan:

T/r	Muammolar	Qaysi bo‘limga oidligi	Muammolar yechimi
1.	So‘zni his qilmaslik	Leksikologiya	O‘zbek va jahon adabiyoti namunalarini tahlil qilish, og‘zaki va yozma matn yaratish, lug‘at so‘zlarini shakllantirish orqali maqsadga erishiladi
2.	Chuqur til orqa *x* va bo‘g‘iz undoshi *h* tovushini farqlay olmaslik	Fonetika	“Ko‘z xotirasi” usuli ishga tushadi
3.	Qaratqich va tushum kelishigini farqlamaslik, qaratqich va egalik qo‘shimchasining joylashish tartibini bilmaslik, jo‘nalish va o‘rin-payt kelishiklarini to‘g‘ri qo‘llay bilmaslik…	Morfemika va sintaksis	Qaratqich va egalik, tushum kelishigini olgan ot va fe’l kesim qoliplari, jo‘nalish va o‘rin-payt kelishigi farqlari ifodalangan mashqlardan foydalanilishi maqsadga muvofiq
4.	Gapning bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarining odatdagi tartibini bilmaslik	Sintaksis	Qiyosiy mashqlar orqali hal etiladi
5.	Rasmiy ish qog‘ozlarini yozish malakasining yetishmasligi	Uslubiyat	Hujjatlarni shakllantirish orqali malaka hosil qilinadi
6.	Tinish belgilarining ishlatilish holatlarini bilmaslik	Punktuatsiya	Mashqlar orqali ko‘nikmaga ega bo‘linadi

Chekka x(h)ududlarda kuchli pedagok(g)lar ko‘p, biroq ular yashaydigan joyda ish(j)timoiy tarmoq va Internetdan foydalanish imkoni kam. Ustoz – ma’rifatchi, u har qanday sharoitda bilim bera biladigan fidoyi shaxsdir.

Ma’lumki, nutqning asosiy vazifasi – mantiqni yaratish. Chuqur til orqa x va bo‘g‘iz undoshi bo‘lgan h tovushini farqlamaslik oqibatida fonetik xatolar so‘zning ma’nosiga zarba beradi, paronimlarni keltirib chiqaradi. Bu xatolar nafaqat leksikologiya, balki orfografiyaga ham taalluqlidir. Bunda talabalar ko‘z xotirasini ishga soladi. Xolis, xatjild, xat, xizmat so‘zlari – chuqur til orqa, hamfikr, harakat, halol, hosil so‘zlari bo‘g‘iz tovushi deb ovoz chiqarib, takrorlasalar, o‘sha talaffuz talabalar xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi va amalda bunday so‘zlarni to‘g‘ri ishlata olishadi. Quyidagi mashqda bo‘g‘iz tovushi h va chuqur til orqa x tovushiga oid misollarni aralashtirib bajaramiz. Bunda talabalar lug‘at bilan ishlaydilar. Masalan: …issadorlik, …ujjatchilik, …o‘jalik, …isobot, …amdo‘stlik, …aridorbop.

Nazariy ma’lumotni mustahkamlash uchun talaba o‘qigan badiiy asar yoki yod olgan she’rlaridan h va x harfli so‘zlarga misollar yozib kelish vazifasini berish maqsadga muvofiq. Albatta, o‘sha badiiy asarlardan ta’sirlangan voqeliklar asosida og‘zaki matn yaratsalar darsning sifati oshadi.

Bo‘g‘iz undoshi h va chuqur til orqa x tovushlarini farqlashda ko‘z xotirasi ham katta yordam beradi. Bunday mashqlar bir necha darslarda ketma-ket bajarilsa, xotirada mustahkam o‘rnashadi.

Qaratqich va egalik qo‘shimchasi, tushum kelishigi va fe’l munosabatlarini o‘rganishda ularning qoliplaridan foydalanamiz. Ot bilan ot, olmosh va ot bog‘lanib so‘z birikmasi hosil qilganda, tobe so‘z qaratqich va bosh so‘z egalik qo‘shimchasini oladi. Ba’zan qaratqich, ba’zan egalik qo‘shimchasi tushib qolishi haqida nazariy ma’lumot beriladi. [3:39] Masalan:

Ota-onaning (ot) + duosi (ot)
Ustoz (ot) + o‘giti (ot)
Bizning (olmosh) + korxona (ot)

Tushum kelishigini olgan ot fe’l kesim bilan bog‘langanda tushum kelishigi ba’zan tushib qoladi. Bu ikkala so‘z orasiga yangi so‘z qo‘shilganda tushum kelishigi qo‘shimchasi doimo qo‘llanishi haqida nazariy ma’lumot beriladi. Masalan:

Bobomni (ot) sog‘indim (fe’l kesim).
Kitob (ot) varaqladim (fe’l kesim).
Hikoyani chuqur tahlil qildik.

Jo‘nalish kelishigi haqida tushuncha berilganda, payt otlariga qo‘shilib qachon? so‘rog‘iga javob bo‘lishi va payt holi vazifasini bajarishi, shaxs va narsa otlariga qo‘shilib kimga?, nimaga? so‘roqlariga javob bo‘lib, to‘ldiruvchi vazifasida kelishi haqida nazariy ma’lumot beriladi. Masalan:

Ishni kechga qoldirma.
Ilmsizga ishonch yo‘q,
Hunarsizga quvonch yo‘q.

O‘rin-payt kelishigi harakatning bajarilish o‘rni, paytini bildirishi, o‘rin holi, payt holi vazifasida kelishi, shaxs va narsa otlariga qo‘shilib, kimda? nimada? so‘roqlariga javob bo‘lib, to‘ldiruvchi vazifasida kelishi haqida nazariy ma’lumot beriladi. Masalan:

Kishi yerida sulton bo‘lguncha,
O‘z elingda cho‘pon bo‘l.

Yozda kuyungan,
Qishda suyunar.

Barcha xazina kitobda bisyor.

Gaplarning oddiy tartibi bo‘yicha mustahkamlovchi mashqlarga o‘tganimizda, rus tilining hind-yevropa tillar oilasi slavyan turkumiga kirishi, o‘zbek tilining turkiy tillar oilasining turkiy tillar guruhiga kirishi, bu til oilalari ichki tuzilishining farqli tomonlari mavjudligi, o‘zbek tilida kesim gapning oxirida turishi, rus tilida esa gapning boshida kelishi kabi holatlarga to‘xtalib o‘tish joiz:

1. COVID – 19 pandemiyasi ilk marotaba 2019-yilning dekabrida Xitoyning Uxan shahrida *qayd etilgan.* 2. Virus yo'talganda, aksa urganda chiqariladigan tomchilar orqali shaxsdan shaxsga *yuqadi.* 3. Kasallikning asosiy alomatlari *isitma, yo'tal va nafas qisishidir.* 4. Kasallik tarqalishi oldini olish uchun qo'llarni yuvish, yo'talganda og'izni to'sish, boshqalardan uzoqroq masofada bo'lish, niqobda yurish *tavsiya qilinadi.*	1. Пандемия COVID – 19 впервые *выявлена* в декабре 2019 года в городе Ухань Китая. 2. Вирус *передаётся* от человека к человеку при кашле и чихании. 3. Основными симптомами заболевания *являются* повышение температуры тела, кашель и одышка. 4. Для предотвращения распространения заболевания *рекомендуется* мыть руки, при кашле прикрывать рот, держаться подальше от окружающих, надевать маску.

"Ega, aniqlovchi, to'ldiruvchi, kesim", "Ega, to'ldiruvchi, hol, kesim", "aniqlovchi, ega, to'ldiruvchi, kesim" qoliplari asosida mashqlarni bajarish maqsadga muvofiq.

Ma'lum bo'lishicha, boshqaruv sohasidagi xizmatchilar o'z ish vaqtlarining 80% gacha qismini hujjatlashtirish ishiga sarflar ekan. [3:13] Bu ularning hujjatchilikda rasmiy ish qog'ozlari bilan bog'liq ko'nikmalari yetarli emasligidan dalolat beradi. Shunday ekan, davlat tili qoidalariga amal qilish, nutqiy va imlo savodxonlikka erishish har birimizning tabiiy ehtiyojimiz, zaruratimiz, majburiyatimizga aylanishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-sonli Farmoni.
2. 2020–2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish hamda til siyosatini takomillashtirish bo'yicha Davlat dasturi.
3. A.Nurmonov, N.Mahmudov, A.Sobirov, Sh.Yusupova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2010.
4. M.Aminov, A.Madvaliyev, N.Mahkamov, N.Mahmudov. Ish yuritish. – Toshkent, 2017.

Zebo SAIDJANOVA,
Urganch davlat universiteti o'qituvchisi,
Nilufar ZARIPOVA,
Urganch shahridagi 19-maktab o'qituvchisi

BADIIY ASAR TAHLILIDA TA'LIMIY-DIDAKTIK O'YIN METODIDAN FOYDALANISH

Ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion, pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash o'quvchi-talabalarga faqat tayyor bilimlarni bermasdan, ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlari, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlari, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. [1]

Pedagogik tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar berilgan yangi mavzu yuzasidan ma'ruza tinglaganda ma'lumotning 5 foizini, video, rasm, ko'rgazmalar ko'rganda 20 foizini, muzokara orqali birga tahlil qilganda 40 foizini, mashq qilganda, yozib va gapirganda 50 foizini, turli o'yinlar, loyiha usuli qo'llanganda hamda mustaqil tahlil etganda 75 foizini esida saqlab qolar ekan. Shuni inobatga olgan holda adabiyot darslarining didaktik o'yinlar asosida tashkil etilishi o'quvchining mavzuni yaxshi o'zlashtirishi va bilim, ko'nikma va malakasini oshirishida muhim omil bo'ladi.

Shundan kelib chiqib, o'qituvchilarga quyidagi takliflarni keltirish mumkin:

– avvalo, o'quvchilarda didaktik o'yinlarda ishtirok etish ongini shakllantirish;

– didaktik o'yinli darslarni tashkil qilish vaqtini (har darsda bir xil usulni qo'llash taklif qilinmaydi) to'g'ri tanlay olish;

– didaktik o'yin qoidalarini o'quvchilarga tushuntirish lozim bo'ladi.

Asosiysi, didaktik o'yinlar mavzu mazmun-mohiyatining o'quvchi xotirasida saqlanib qolishi bilan ahamiyatlidir.

Shu o'rinda adabiyot darslarida badiiy tahlilning pedagogik asoslari to'g'risida ham aytib o'tish lozim. Maktabda adabiyotni o'qitishdagi eng asosiy pedagogik tadbir badiiy asar tahlilidir. Badiiy asarni qabul qiladigan, undan ta'sirlanadigan, tahlillay oladigan o'quvchini tarbiyalagan muallimgina bosh pedagogik maqsadiga erishgan hisoblanadi. Chunki dasturda o'rganish ko'zda tutilgan adabiy materiallarni shunchaki o'qib ketaverish bilan adabiyot o'qitish yuzaga kelmaydi. Zero, hayot tajribasi juda kam, badiiy didi yetarli shakllanmagan o'quvchilar badiiy asarni mutlaqo teskari tushunishlari mumkin. Shu bois asar tahliliga katta e'tibor zarur. Busiz bolalarda ezgu ma'naviy sifatlar turg'un qaror top-

maydi. Badiiy tahlil badiiy asardagi tuyg'u, hissiyot va fikrni o'quvchi his-tuyg'ulari hamda ongiga ko'chirish demakdir. [2]

Adabiyotshunoslik ilmida badiiy tahlil ikki katta turga bo'linadi:

1) ilmiy-filologik tahlill;

2) o'quv-didaktik tahlil.

O'quv-didaktik tahlil o'qituvchi va o'quvchilar hamkorligida amalga oshiriladi. Bunda amal qilinishi shart bo'lgan bir qator tamoyillar borki, ularga rioya etilmay turib, tahlilda kutilgan natijaga erishib bo'lmaydi. Bu tamoyillarning asosiylari quyidagilar:

1) har bir tahlilning shaxsiy mulohaza ekanligi;

2) to'liq tahlilning bo'lishi mumkin emasligi;

3) biror asar bo'yicha butun sinf yoki o'quvchilar guruhi bir xil fikrga kelishi shart emasligi;

4) badiiy asarga yaxlit hodisa sifatida yondashish zarurligi;

5) tahlilda asarning tur xususiyatlari hisobga olinishi zarurligi;

6) asar bo'yicha bildirilgan har qanday fikr faqat asar matnidan keltirib chiqarilishi lozimligi.

O'qituvchi epik turdagi asarlar o'rganilayotganda, matnni tahlillash uchun savollar tuzib olishi shart. Ko'pincha, adabiyot o'qituvchilari avvaldan savol tuzib olishmaydi. Oqibatda, o'quvchilar oldiga umumiy, taxminiy savollar qo'yiladi. O'qituvchi savol tuzishga qanchalik jiddiy yondashsa, bolalarning asarni o'rganishi ham shunchalik muvaffaqiyatli bo'ladi. O'quvchilarning javobi keyingi savolni keltirib chiqarsa, juda yaxshi bo'ladi.

Adabiyot darslarida asar tahlili jarayonida o'yin usulini qo'llashning ahamiyati shundaki, bunda o'quvchilar erkin harakat qiladilar, ulardagi xavotir darajasi pasayadi. Jumladan, asarni qahramonlar bo'yicha o'rganish 6-sinfdan boshlab yaxshi samara beradi. Negaki, bu davrda o'smirlarda ma'naviyat masalalariga qiziqish keskin ortadi.

Shuning uchun, masalan, 6-sinfda Gulxaniyning "Zarbulmasal" asari o'rganiladi. O'quvchilar matnni o'zlashtirgach, ular oldiga "Gulxaniy nima sababdan qushlar tasviridan foydalandi?" degan savol qo'yish mumkin. Yoki sinfni kichik guruhlarga bo'lib, alohida topshiriqlar berish orqali ham maqsadni amalga oshirish mumkin. Asardagi maqollar kartochkaga yozilgan bo'ladi. O'quvchilar ushbu maqollarning qaysi o'rinda ishlatilganini tushuntirib boradi. Bu "Maqollarni sharhlaymiz" o'yini bo'ladi. Bu o'yinni sinfda kichik guruhlarga bo'lingan holda ham tashkil qilsa bo'ladi. Ushbu o'yinda maqollar mazmuni, uning qanday hayotiy vaziyatlarda qo'llanilishini idrok etish uchun real sharoit yaratiladi.

Badiiy asarni o'rganishning yana bir usuli muammoli tahlildir. O'quvchilar muammoni yechish jarayonida asar matniga tayanadi, unga estetik baho beradi. Adabiyot darslarida italiyalik ertakchi Janni Rodarining "Uchtadan oxiri bor ertaklar turkumi" mavzusini o'tishda ushbu usuldan foydalanish mumkin. Bilasizki, ertaklarda afsonaviy, o'ylab topilgan voqealar tasvirlanadi. Biroq ular zamirida kishini ezgulikka, xayrli ishlarga undovchi, insonni ma'naviy jihatdan go'zallashtiradigan sehrli bir kuch mavjud. Kattalarning ham, kichiklarning ham ertaklarni birdek yaxshi ko'rishi shundan bo'lsa, ajab emas. O'qituvchi o'quvchiga ertakning uchinchi o'zi xohlagan yakunni hikoya qilish vazifasini berish orqali yangi qobiliyatlarni namoyon qilish imkoniyatini ham beradi. Bunda o'quvchilar oldiga hayotiy va estetik masala qo'yiladi va unga har bir o'quvchi o'zicha javob beradi. Unda ertak yakuni qancha xilma-xil bo'lsa, o'shancha quvonmoq kerak, chunki qolipli fikrlash fikrsizlikdir.

Albatta, bu o'yinlar faqat o'yin uchun tashkil etilmaydi. Ularning bosh vazifasi – o'quvchilarning o'qish jarayonlariga nisbatan ongli, faol munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat. Ayni paytda, bu jarayonda o'quvchining nutqi tabiiy ravishda rivojlanib, boyib boradi. O'ziga ishonchi ortadi. Fikrlash doirasi kengayishiga yordam beradi.

Badiiy asarni o'rganishning eng keng tarqalgan usuli uni obrazlar bo'yicha o'rganishdir. Maktab davrida har bir bolada o'ziga xos axloqiy mezon shakllanadi. Ular har bir obrazning u yoki bu xarakterdagi ijtimoiy-axloqiy asosini bilishga intiladilar. Shu boisdan badiiy asarni obrazlar bo'yicha o'rganishda "Chaqqon to'p" o'yini samarali natija berishi mumkin. Bunda o'qituvchi asardagi obrazlar tizimi haqida oldindan tayyorlab qo'ygan savollari bilan murojaat qilib, bir o'quvchiga to'p otadi. O'quvchi javobni aytib, to'pni yana o'qituvchiga tezkorlik bilan qaytaradi. Agar javobni bilmasa, savolni takrorlab, boshqa o'quvchiga aytadi. Shu tarzda mavzuni chuqurroq o'rganib olish uchun zamin yaratiladi.

Badiiy asardagi obrazlar tahlili jarayonida "Hayot daraxti" deb nomlangan o'yindan ham foydalanish tavsiya qilinadi. Bunda asar sujetida qaysi jarayon aks etgan bo'lsa, shu so'zlar orqali daraxtni bezaydi (bunda daraxt maxsus plakatga yoki doskaga chiziladi). Asardagi ijobiy qahramonlar gul yoki meva shaklida chizilishi mumkin. Salbiy qahramonlar esa qurigan yaproq, zararkunanda qush yoki hasharot tarzida berilishi mumkin bo'ladi. Bu har bir o'quvchining asardagi obraz mohiyatini qay darajada anglab yetganligi bilan baholanadi. Har bir o'quvchi o'z fantaziyasidan, xulosalaridan kelib chiqqan holda daraxtni bezaydi. [3]

Xulosa qilib aytganda, didaktik o'yinlar o'rganilayotgan obyekt, hodisa va jarayonlarni modellashtirish asosida o'quvchining bilishga bo'lgan qiziqishi va faollik darajasini rag'batlantiruvchi o'quv faoliyat turi sifatida mavzuni chuqur o'zlashtirishda samarali natija beradi. Yosh avlodning ma'naviyatini boyitishda, tarbiyalashda ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan ta'lim metodi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – Toshkent, 2008. 14-bet.

2. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007–2010.

3. Богданова О.Ю. и др. Методика преподавания литературы. – Москва, 2008.

Gulnigor HALIMOVA,
Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi
32-maktabning ingliz tili fani o'qituvchisi

CHET TILNI O'QITISHDA TA'LIM SIFATI VA SAMARADORLIGIGA ERISHISH USULLARI

Bugungi globallashuv davrida keng qamrovli axborotlar oqimi ta'lim mazmunini doimiy tarzda yangilab, takomillashtirib, sifat jihatdan yuqori bosqichga olib chiqishni taqozo etmoqda. Jadal sur'atda o'zgarib borayotgan iqtisodiy-ijtimoiy va ma'naviy hayotda davrning o'zi o'quvchi yoshlar dunyoqarashini to'g'ri shakllantirish, yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishni talab etmoqda. Odatdagi usullardan foydalanib an'anaviy dars mashg'ulotlarini olib borish asta-sekinlik bilan o'z o'rnini intensiv va interfaol metodlarga, noan'anaviy dars o'tish uslublariga bo'shatib bermoqda. Shuning uchun ham hozirgi kunda o'quv jarayoniga yangi innovatsion metod, ilg'or pedagogik texnologiya, dars o'tishning nostandart, noan'anaviy uslublari, xususan, interfaol uslub keng joriy etilmoqda.

Eskicha uslubda, oddiy va zerikarli usul va metodlardan foydalanib dars jarayonini tashkil etishga bugungi kunning o'zi yo'l qo'ymaydi. O'quvchining mehrini qozonish, uning hurmati va e'tiboriga sazovor bo'lish, uni o'z faniga qiziqtira olish, chinakamiga "ustoz" degan sharafli nomga loyiq bo'lish uchun har bir pedagog o'z oldiga "Bugungi kun zamonaviy pedagoglari qanday bo'lishi kerak?" degan haqli bir savolni qo'yishi lozim.

Mening fikrimcha, bugungi kun o'qituvchisi birinchi navbatda o'z fanining ustasi, ya'ni mukammal bilim egasi bo'libgina qolmasdan, ana shu bilimni o'quvchiga sodda, tushunarli va qiziqarli, hech qachon unutilmaydigan qilib yetkazib bera oladigan darajada mahoratli, dunyoqarashi keng va hozirjavob bo'lishi, bugungi kun fan va texnika yutuqlaridan xabardor bo'lishi, bilim sohasi va tushuntirish usullari ko'p tarmoqli (boshqa fanlardan xabardor), qolaversa, mehnatsevar va fidoyi bo'lishi kerak. Bu chet til o'qituvchilarining zimmasiga juda katta mas'uliyat yuklashi bois ular ana shu mas'uliyatni chuqur his etgan holda yosh avlodga zamon talablariga mos dars mashg'ulotlarini tashkil etishga harakat qilmoqlari lozim.

Dars o'zi nima? Dars – bu ta'lim jarayonining asosiy tashkiliy usuli bo'lib, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati yaqqol ko'zga tashlanadigan jarayondir. Dars bevosita o'qituvchi rahbarligida olib boriladi. "Darsda o'quvchi o'zini shunday his etsinki, go'yo bog'da guldan-gulga uchib yurgan kapalakka o'xshasin", degan edi buyuk faylasuf alloma Abu Nasr Farobiy. Buning uchun o'qituvchi shunday bir mahorat bilan dars mashg'ulotini tashkil eta olishi lozimki, o'quvchilar darsda faol ishitrok etsin, yangi ma'lumotlarni osonlik bilan qabul qila olsin. Dars jarayoni o'quvchiga qiziqarli bo'lishi uchun u muayyan bir aniq maqsadga, yaxshi tayyorgarlikka ega bo'lishi kerak. Buning uchun:

a) darsga to'g'ri va aniq maqsad qo'yish;

b) "Dars muqaddas"da belgilab berilgan ketma-ketlik asosida DTSga mos dars ishlanmasining yaratilishi;

d) qo'llaniladigan metod, uslub va texnologiyalar aniq belgilangan bo'lishi;

e) to'rt nutq faoliyati turlari (o'qish, tinglab tushunish, gapirish va yozuv)dan interfaol usulda foydalanish;

f) vaqtdan unumli foydalanish va uni to'g'ri taqsimlay olish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, o'qitish jarayonida quyidagilarga e'tibor berish lozim:

– o'quvchini birdan kitobga jalb qilib qo'ymaslik kerak;

– o'qitish asta-sekin, osondan qiyinga o'tish yo'li bilan olib borilishi kerak;

– o'qitish yakka tartibda emas, balki jamoa tarzida tashkil etilishi maqsadga muvofiq;

– o'qitishda yaxshi natijaga erishish uchun o'quvchining qiziqishlari, xohish-istaklari, qobiliyati hisobga olinishi lozim;

– o'qitish turli harakatlar, qiziqarli o'yinlar va jismoniy mashqlar bilan umumlashtirib tashkil qilinishi kerak.

O'qituvchi o'quvchini birdan kitobga jalb qilib qo'yishi mutlaqo xatodir. Chunki o'quvchi darsga kirganda uning xayolida bundan oldingi o'tilgan fanlar bo'ladi. Shuning uchun ham, avvalo, o'qituvchi darsning dastlabki daqiqalarida o'z o'quvchilarini darhol o'z faniga olib kirishi, o'z muhitini yarata olishi darkor. Buning uchun o'qituvchida chiroyli qog'oz, qimmatbaho ko'rgazmali qurollar va tarqatma materiallar bo'lishi shart emas. Mohir pedagog eng sodda, eng oddiy tarqatma, rasm va ko'rgazmalardan foydalanib bo'lsa ham, eng mohirona usul va texnologiyalarni qo'llab, o'quvchilar diqqatini o'ziga qaratib, faniga qiziqtirib, o'rganilayotgan ma'lumotlarni o'quvchi xotirasiga joylab qo'ya olishi mumkin.

O'z tajribam va ustozlarim darslarini kuzatish asosida chiqargan xulosalarimdan kelib chiqqan holda darslarimda qo'llaydigan quyidagi bir necha metod va usullar, o'yinlarni chet til dars jarayonini tashkil etishda hamkasblarimga tavsiya qilaman.

1. My favourite song.

O‘quvchilar “warm up” uchun oldingi yoki o‘rganilayotgan bo‘lim mavzusiga mos bo‘lgan qo‘shiqlarni tinglashi va birgalikda ijro etishlari mumkin. Bunda o‘quvchilar:

– diqqatlarini jamlab, chet til muhitiga moslashadilar;

– o‘rganilgan yoki o‘rganilayotgan yangi so‘zlarni eshitish va takrorlash orqali xotirada qayta saqlaydilar;

– so‘zlarning talaffuzini o‘rganadilar va ayrim grammatik, sintaktik qurilmalarni tayyor holda oson qabul qila oladilar;

– qo‘shiq va musiqa ohangiga mos harakat va o‘yinlar bilan jismoniy va ruhiy hordiq oladilar.

Bunday mashqdan har qanday mavzuda, har bir darsda foydalanish mumkin. Bu nafaqat o‘quvchilarni chet til muhitiga olib kiradi, balki o‘tilgan mavzuni takrorlash yoki yangi mavzuni tanishtirishga ham yordam beradi.

2. My magic treasure.

Oldingi darslarda o‘rganilgan so‘zlar yoki ma’lumotlarni takrorlash uchun “My magic treasure” (Mening sehrli xazinam) o‘yinidan foydalanish, uni bir necha usulda qo‘llash mumkin. Birinchi usulda o‘qituvchi mo‘jaz quti yoki sandiqchani o‘quvchilarga namoyish qilib, uni to‘ldirish kerakligini aytadi. O‘quvchilar sandiqchani to‘ldirish uchun o‘qituvchi tilla tangachalar shaklida tayyorlagan qog‘oz bo‘laklariga oldingi darslarda o‘rganilgan so‘zlar, birikmalar, gaplarni ona tili yoki chet tilda yozib o‘quvchilarga tarqatadi. O‘quvchilar berilgan tangachalardagi so‘z, birikma yoki gap tarjimasini topib “xazina”ga qo‘shib boraveradi va oxirida qancha “xazina” to‘play olishganiga qarab baholanadilar.

Bu o‘yinni yanada faolroq shaklda qo‘llash ham mumkin. O‘qituvchi sandiqchani o‘quvchilar bilan birgalikda yasaydi. Har darsda o‘rganilgan so‘zlarni “tilla tangacha”lar orqasiga yozib, unga solib qo‘yaveradi. Har darsning o‘tilgan mavzuni takrorlash qismida yoki har bo‘lim oxirida yoki bo‘lmasa takrorlash darslarida o‘quvchilar sandiqcha ichidagi tangachalarni olib, unda yozilgan so‘zlarning tarjimasini topishlari yoki yozilgan savollarga javob berishlari kerak bo‘ladi. Agar tangachadagi so‘zni yoki savolning javobini to‘g‘ri topsalar, tangacha o‘quvchida qoladi. To‘plangan tangachalar (xazina)ning o‘yin oxiridagi miqdoriga qarab o‘quvchilar baholanadilar.

Yuqorida qayd etilgan har ikkala variantni o‘quvchilar bilan individual yoki ularni guruhlarga bo‘lib ham o‘ynash mumkin. Agar “xazina” to‘plash uchun ma’lum vaqt belgilansa, o‘quvchilar faolligi yanada oshadi. Bu o‘yinni guruhdagi o‘quvchilar bilim darajasi yoki yosh xususiyatlariga qarab o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritib moslab olish mumkin.

Masalan, o‘quvchilar yoki guruhlar “xazina”dan bitta emas, bir nechta tanga oladilar, ularning orqasida yozilgan so‘zlarni qo‘llab gap yoki bir necha gaplardan iborat kichik matn tuzishlari mumkin. Tuzilgan gap yoki matnlarni raqib jamoaga o‘qib berib, matn asosida savollar berish yoki uni tarjima qilishni so‘rashlari kerak. Raqib jamoa esa narigi guruh tuzgan gaplarni tarjima qilishi yoki tuzgan matnini tinglab savollariga javob berishi kerak bo‘ladi. Masalan, deylik, qutidan *see, cloud, name, umbrella, birds, tree* so‘zlari chiqdi. O‘quvchilar bu so‘zlarni qo‘llab quyidagicha matn tuzishlari mumkin:

I was on my way to school. There were dark clouds in the sky. Suddenly it started to rain. But I didn’t have an umbrella. My friend asked for it and I gave it to her. Her name is Sabina. I didn’t know what to do. Then I heard a bird’s sound. I looked around and saw two birds. They were on the branch of a big mulberry tree. Then I waited the rain to stop under the tree.

1)What did Sabina do?
2)Where was she going?
3)Why did she wait under the tree?

Bunda o‘quvchilarning nafaqat so‘z boyligi va hozirjavobligini, balki grammatik bilimlari, nutqi, yozuvi, tinglab va o‘qib tushunishini nazorat qilish, kamchiliklarini to‘g‘rilab borish ham mumkin.

3. My mirror.

5-sinf ingliz tili darsligida (Unit 1, Lessson 1) *“What’s your name?”* mavzusi berilgan bo‘lib, unda o‘quvchilar o‘zlari haqida gapirish va tanishtirishni o‘rganishadi. O‘quvchilar bu mavzuni 1-sinfda o‘rganishgani bois, 5-sinfda murakkabroq va aniqroq metodlar va o‘yinlardan foydalanish mumkin. Mavzu o‘quvchilarga tanishtirilgach va yangi so‘z va birikmalar rasm va videolavhalar yordamida o‘rgatilganidan so‘ng o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantiruvchi mashqlardan foydalaniladi. “My mirror” (Mening ko‘zguyim) texnologiyasi bu mavzuda qo‘llash mumkin bo‘lgan eng samarali usullardan biridir. O‘qituvchi o‘quvchilardan o‘z suratini ko‘zgu rasmi ichida chizish va uning atrofida o‘zlariga aloqador bo‘lgan so‘zlarni yozib chiqishni so‘raydi. Masalan, ismi, yoshi, oila a’zolari, sevimli raqami va h.k.

O‘quvchilar o‘z suratini chizib, so‘zlarni yozib bo‘lganidan so‘ng undan foydalanib o‘zlarini tanishtiradilar:

My name is _____ .
I am _____ years old.
I have _____ family members.
I have _____ brothers/sisters.
My favourite number is _____ .

O‘quvchilar faolligini oshirish uchun “ko‘zgu”lar almashtiriladi. Endi o‘quvchilar boshqa o‘quvchi ko‘zgusidan foydalanib, u haqida gapirib berishi kerak bo‘ladi.

His/Her name is _____ .

He/She _____ years old.
He/She has_____ family members.
He/She has _____ brothers/sisters.
His/Her favourite number is _____ .

Ushbu metod o‘quvchilarga o‘zi va boshqalar haqida ravon gapirib berishda yordam beradi, ularning og‘zaki nutqini o‘stiradi, fikrlash, qisqa so‘zlardan foydalanib gaplar tuzish qobiliyatini oshiradi. Uni olmoshlar, “have got” kabi qator mavzularda ham samarali qo‘llash mumkin.

4. Smart circles.

O‘tilgan mavzuni takrorlash va yangi mavzuni mustahkamlashda turli interfaol usullardan foydalanish mumkin. Shulardan biri “Smart circles” (Aqlli halqalar) dir. Bu o‘yinda o‘quvchilar ikkita halqa bo‘lib turib olishadi. Birinchi ichki aylanada o‘quvchilar soni nechta bo‘lsa, ikkinchi tashqi aylanada ham shuncha o‘quvchi bo‘lishi kerak. Masalan, 6 nafardan 12 o‘quvchi ishtirok etadi. Polda katta-katta 6 ta halqa chiziladi. Halqalar ichida o‘rganilgan mavzuga doir shartlar yozib chiqiladi. Quvnoq bir musiqa qo‘yiladi. Aylanalar teskari yo‘nalishda: ichki aylana soat strelkasi bo‘yicha, tashqi aylana soat strelkasiga teskari aylanadi. Musiqa to‘xtatiladi va o‘quvchilar turib qolgan halqa ichida yozib qo‘yilgan shartlarni bajarishi kerak bo‘ladi. Masalan, 5-sinf ingliz tili darsligining (Unit 1, Lessson 1) *“What’s your name?”* mavzusidagi 4-mashq, ya’ni “Two things about me” (men haqimda 2 ta narsa) mashqini shu usulda bajartirish mumkin. “I like…”, “I am good at…”, “My favourite…”, “I can…”, “I have…”, “I am…” bilan qanday qilib gaplar tuzilishi yana bir marta tushuntirib o‘tiladi va 6 ta halqa ichiga yozib chiqiladi. O‘quvchilarga shart tushuntirilgach, musiqa yoki qo‘shiq qo‘yiladi. O‘quvchilar ikkita halqa hosil qilib, halqalar teskari aylanadi. Qo‘shiq o‘chiriladi. Masalan, Sabina va Saida bitta halqada turib qolishdi. U halqada “I am good at...” yozuvi bor. Shunda Saida “I am good at” bilan darak bo‘lishli gap tuzadi. Sabina shu gapni inkor gapga aylantiradi. Keyin Sabina darak gap tuzadi. Saida uni inkor gapga aylantiradi.

Saida: I am good at doing sums.
Sabina: I am not good at doing sums.
Sabina: I am good at English.
Saida: I am not good at English.

Shu tarzda 6 ta halqadagi barcha o‘quvchilar tezlik bilan bo‘lishli va bo‘lishsiz gaplarni tuzib chiqishadi. Keyin halqalar yana davom etadi va, shu tarzda, barcha o‘quvchilar 6 ta halqadagi barcha birikmalarga gaplar tuzishadi. Shunda ularning har biri 6 tadan darak gap va 6 tadan shu gaplarning inkor shaklini tuzib chiqishadi. Jami bo‘lib o‘yin oxirida 72 ta bo‘lishli va bo‘lishsiz gaplar hosil bo‘ladi.

Bu usul orqali o‘quvchilar:

– darak gaplar tuzishni o‘rganishadi;
– inkor gaplar hosil qila olishadi;
– grammatik savodxonligi oshiradi;
– ularning og‘zaki nutqlari rivojlanadi;
– tinglab tushunishi rivojlanadi;
– faolligi va qiziqishi ortadi;
– jismoniy va ma’naviy hordiq olishadi.

O‘qituvchi esa, eng muhimi, qisqa vaqt ichida barcha o‘quvchilarning darsdagi faol ishtirokiga erisha oladi.

Bu o‘yinni darak va so‘roq gaplar tuzishda ham qo‘llash mumkin. Yoki, aylanalar ichiga shartlar yozilmasdan, bir-birining ro‘parasida turib qolgan o‘quvchilar bir-birlariga savollar berib intervyu olishi (mavzudagi 3b va 3c mashqlar uchun foydali) va o‘yin oxirida o‘z o‘rniga o‘tirib boshqa o‘quvchilar haqida ma’lumot yozishlari ham mumkin. Bunda, o‘quvchilarning yozma nutqi ham ishtirok etadi. O‘qituvchi o‘z mahoratidan kelib chiqqan holda bunga o‘qish ko‘nikmasini ham qo‘shishi yoki boshqa shartlar kiritishi, undan boshqa mavzularga moslab foydalanishi mumkin. Bu usulni nafaqat chet til o‘qituvchilari, balki boshqa fan o‘qituvchilari ham birdek qo‘llay olishi mumkin.

Darsning mustahkamlash yoki oldingi o‘tilgan mavzuni takrorlash qismlarida “True or False” (To‘g‘ri yoki Noto‘g‘ri), “Find the mistake” (Xatolikni top), “Find the odd one” (Ortiqchasini top) metodlari ham samaralidir. Bu metodlarning texnologiyasi barchaga ma’lum.

5. Find the question.

Tavsiya etiladigan yana bir qiziqarli va samarali usul – “Find the question” (Savolni top). Bunda o‘quvchilarga topilishi lozim bo‘lgan savol uchun javob yoki javoblar (test uchun) yozilgan tarqatmalar beriladi. O‘quvchilar berilgan javoblarga qarab savolni topishi kerak bo‘ladi. Masalan, tarqatmada shunday javob bor:

A) Tiger B) Hippo C) Goat D) Bear

O‘quvchi ushbu javoblarni o‘qigan holda javoblarga mos savol tuzishi kerak.

To‘g‘ri savol: *Which animal is domestic?*

O‘quvchi savolni tuzgach sinfga savol va javoblarni o‘qib eshittiradi va javobni topgan o‘quvchi o‘zi tuzgan savoli va javoblarini o‘qib beradi.

Shu zaylda o‘yin davom etadi. Bu o‘yinni juft bo‘lib yoki ikki guruhga bo‘linib ham o‘ynash mumkin. O‘qituvchi o‘z mahoratidan kelib chiqqan holda uni yanada takomillashtirishi mumkin. Bu o‘yin boshqa fanlar uchun ham mos keladi. O‘qish, gapirish, yozuv va tinglab tushunishni rivojlantiradi, fikrlash va izlanishni o‘rgatadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, bugungi kun talabiga javob bera oladigan o‘qituvchi har bir darsini oldindan mohirona rejalashtirib, qiziqarli va samarali, oddiy bo‘lsa-da tushunarli metod va texnologiyalarni qo‘llab dars o‘tishi lozim. Chunki, o‘qituvchining mahorati kelajak avlodning taqdiriga bevosita bog‘liqdir.

Zukhra KHAKIMOVA,
Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi, English teacher

INDEPENDENT WORK – A FACTOR IN ACTIVATING STUDENTS' COGNITIVE ACTIVITY AND FORMING COMMUNICATIVE COMPETENCE

Language is the bearer of national culture and national identity. Language proficiency in oral and written form is the basis and one of the prerequisites for the formation of thinking abilities, spiritual development and socialization of a person. Good proficiency in any language is a prerequisite for successful studies in all academic subjects.

Reforming the system of lifelong education in Uzbekistan, focused on entering the global information and educational space, has posed a number of important tasks for teachers of foreign languages related to the introduction of innovative methods and teaching techniques into the educational process.

It should be said that the ever-increasing flow of information and integration in all spheres of modern life requires restructuring of the educational process in the system of lifelong education, introducing such teaching methods and techniques that would allow in a short time to ensure a high level of mastery of the studied material, its formation and application in life practice.

Efficiency in teaching a foreign language is ensured not only by following the methodological systems, but also by teacher's creative approach to their implementation, which makes it possible to form students' need to learn, work rationally, develop mental activity and communicative activity, and show independence in solving the assigned tasks.

In recent years, a lot of positive experience has been achieved in the system of continuous education, especially in higher education. However, the system of lifelong education does not yet activate students' internal motives for learning at the proper level. Psychological research shows that education and training should be a two-way process, the result of which should be of interest to both the teacher and the student.

The national curriculum for English in general secondary schools is recommended when studying subjects of the philological cycle, especially foreign languages, to use modern pedagogical and innovative technologies to form key competencies. These can be non-play imitative active forms and methods of independent work.

Non-play imitation methods include: independent implementation of situational exercises, discussion of developed options, case method, project method, methods of group solution of creative tasks, trainings, group and individual practical exercises, solution of linguistic problems, use of various dictionaries and reference books as well as composing texts of various types using appropriate speech means, finding the required information in various sources and linking on them.

Reading literary texts and completing various creative tasks for them, students enrich their vocabulary and broaden their horizons. All this contributes to the formation of communicative, linguistic and speech competencies in students.

One of the important tasks in introducing modern educational technologies into the educational process is teaching pupils/students to independently acquire knowledge, new information, organize their self-study and self-education. This form of work is becoming an important and necessary component of the modern educational process today.

An effective way of enhancing students' speech and thinking activity, and forming their communicative competence is the organization of group work, which allows them to significantly increase their language practice and develop creative initiative.

The material for independent group work can be exercises and textbook texts in the form of situational communication. Having chosen a situation, the groups plan their work: how to combine relevant material, what vocabulary and grammatical forms to use, on which points to build a conversation. So, for example, when studying some aspects of a foreign language in the first years, you can apply the project method. The group should be divided into two subgroups, which represent, for example, any travel companies.

Each group draws up their own projects, plans and programs to attract tourists. Then they invite "tourists" by organizing various excursions, hikes, meetings, etc. In order to prepare good advertisement, the "employees" select the necessary material, repeat and study vocabulary, grammatical forms, and find songs, poems, entertaining materials, stands, literature, illustrations, listening texts, etc. that are suitable for the topic. Modern technical means cannot be dispensed with.

What is the independent work of a student/learner? Independent work/activity is a cognitive, educational activity performed on teacher's instructions under his/her guidance and control, but without his/her direct help and participation. Independent activity can take place when studying new material, when consolidating and repeating, or when generalizing and systematizing knowledge. The forms of organization of such activity are very diverse: its effectiveness depends on teacher's creative approach and pedagogical skills.

The aspect of independence that is specific to the subject "foreign language" is the independent expression of one's thoughts in speech, independent use of the studied language means. Students achieve the highest linguistic independence in writing miniature essays, essays on various topics, written stories, reports, spelling exercises using dictionaries, with the compilation of algorithms for

spelling actions, independent questions to texts, in reviewing, in compiling/summarizing tables, diagrams, in self-dictations, other types of self-training.

By correctly organizing independent work in the English language, it is possible to solve a number of didactic tasks: improve the skills in finding the necessary material, provide prompt feedback, and ensure individualization and differentiation of training. Thus, the end result of organizing independent work is not consolidation, not control of knowledge in the lesson, as it was in the traditional educational process, but teaching the independent acquisition of knowledge. Therefore, when organizing independent work, teachers should remember that they must guide students' independent work, manage them, give them the appropriate material, a list of used sources and guidelines, directions for implementation.

This approach corresponds to the modern teaching model, according to which the teacher not only predicts, designs and plans his activities in the lesson (class), but also develops the structure and content of students' educational activities. An important task of the teacher is to build the educational process as an educational dialogue with students, to create conditions for the development of their motivation for independence, the ability to educate themselves, and self-realization as a person.

Practice shows that as a result of such an organization of the educational process, interest in learning a foreign language increases, student's cognitive activity develops. Mastering the skills of self-education, students begin to enthusiastically participate in other forms of independent work. Independent work is usually spoken of in connection with the development of cognitive activity and students' independence in teaching spelling, vocabulary, and other language aspects. One of the important tasks of a modern teacher is to teach students the skills of using innovative technologies for studying material in the process of self-education. They should be adequate to modern technical capabilities and contribute to the harmonious entry of the individual into the information society. Today, the use of modern pedagogical and information technologies in the educational process is an integral and important part of lifelong education, an integral part of innovative technologies. Therefore, it is important to teach both foreign language teachers and students to use modern information and communication technologies in independent acquisition of knowledge.

The purposeful use of modern pedagogical, information and communication technologies in teachers' independent education contributes to an increase in the level of their general information culture, the development of their professional competence, and among students, on the one hand, it increases their interest in learning a language, on the other hand, it contributes to the formation of subject competencies (communicative, informational, linguistic and speech). In the course of independent work, students can prepare mini-projects for the study of a particular topic, prepare presentations and slides for them.

What does the widespread introduction of computer technologies into the educational process contribute to? There is only one answer to this question: it contributes to the accumulation and improvement of the quality of factual knowledge, the development of students' communication skills and information literacy. But for this, teachers must not only master methods of using multimedia and presentation slides in the classroom, but also create digital educational resources at a high level. In particular, one should dwell not only on the use of multimedia presentations in a foreign language lesson, but also on their creation. After all, a competently composed resource with the involvement of students increases the possibility of its active use in the lesson, and forms students' information and communication competencies. When designing a resource, teachers must clearly think over the goals of each specific lesson, for which the multimedia product will be intended (they must not forget about health-saving technologies that limit the time students work with a computer!). In addition, teachers must always remember about the use of forms, acceptable methods and teaching techniques in the classroom, educational technologies, pedagogical techniques of a multimedia lesson. Only a certain complex of oral, visual, textual information turns the slide into an educational episode, that is, into a relatively independent part of the lesson.

Using interactive exercises at a certain stage of the lesson for independent work, teachers must provide students with specific educational tasks that will be solved by them (verbs that imply the completeness of the educational action should be used): Read – List – Select – Show – Choose – Compare – Name, etc. Thus, students will not only hear from the teacher, but will also see in front of them an educational task on which they have to work. By doing this, we will achieve more comfortable working conditions for students.

For the repetition and consolidation of what has been learned, practice of educational skills (processing the information received) and practical application of the acquired knowledge, skills and abilities, it is most often logical to use simulators and tests both in English/foreign language lessons and lessons in other subjects.

In conclusion, we can say that independent work, carried out both in and outside the classroom, is one of the factors in enhancing students' cognitive activity and forming communicative competence in teaching English.

The use of modern educational technologies, especially multimedia resources in the classroom when performing independent work, activates students' speech and thinking activities, increases the level of feedback, expands the possibilities of self-control, forms their communicative, information and speech competencies, and generally contributes to an increase in the quality and efficiency of education.

The lesson becomes interesting, exciting and memorable! Isn't this the main thing for a teacher?

References

1. National curriculum for English for grades 1-11 of general secondary education schools. – Tashkent, 2020.
2. Dictionary-reference book on the methodology of the English language. – Moscow: Education, 1988.
3. Personally-oriented learning in the development of oral speech of students of foreign language groups. Journal "Language and Literature Teaching", 2015. No.6, p.73.
4. Materials of the Republican scientific and practical conference. – Gulistan, 2006.

Ravshanbek EGAMBERDIYEV,
Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidagi 22-maktabning
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

“HEDONE” TEXNOLOGIYASI

“Hedone” yunoncha so‘z bo‘lib, lazzat, rohat, zavq ma’nosini anglatadi. Bu texnologiyaning mazmun-mohiyati badiiy asarni o‘qib-o‘rganish va undan olgan zavqni tuyishdan iborat. Ushbu texnologiya orqali o‘rganuvchilar matnni yodida saqlash, so‘zlab berish, lug‘at so‘zlar bilan ishlash, undagi ko‘pma’nolilikni anglash imkoniyatiga ega bo‘ladi. O‘quv jarayonida manbalar (audio, video, suratlar) o‘quvchilarning yakka va guruh holatida o‘zlashtirib olishlari hamda suhbat-munozara qay darajada o‘zlashtirilganligi nazorat qilinadi. Texnologiyaning afzalligi shundaki, unda biror guruh bilimidagi bo‘shliqlarni boshqa guruh to‘ldiradi.

Ma’lumki, zavq-u shavq bilan o‘qilgan asar mohiyati to‘laqonli anglanadi. Badiiy asar ko‘pvazifalilik xususiyatiga ega. Chunonchi, 5-sinf adabiyot darsligidan o‘rin olgan Alisher Navoiyning “Sher bilan durroj” hikoyati ham lisoniy, ham adabiyot, ham ma’naviy-ma’rifiy nuqtayi nazardan muayyan vazifalarni bajaradi. Hikoyatdagi ko‘pqirralilikni o‘rganuvchilarga anglatishda ushbu texnologiya muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur texnologiya tahlili shuni ko‘rsatadiki, u suhbat metodida bo‘lgan barcha usullarni qo‘llash imkonini beradi.

Bu texnologiyani amalga oshirishda quyidagi kabi usullardan foydalanish yaxshi samara beradi:

“So‘zlar izohi” usuli

Mumtoz adabiyot namunalarini o‘qib o‘rganishda lug‘at bilan ishlash yaxshi samara beradi. Lug‘at bilan ishlash orqali o‘quvchilarning so‘z boyligi ortadi. Aynan bir so‘z o‘rnida uning ma’nodoshlarini qo‘llash imkoniyati paydo bo‘ladi. Chunonchi: *aduv* so‘zi o‘rnida dushman, raqib kabi ma’nodoshlarini qo‘llash o‘quvchilar uslubini shakllantiradi. So‘zlarning tarixiy shakllarini bilish esa o‘quvchilarni matn ma’nosini anglashga, nasriy bayon qilishga o‘rgatadi. Bunda, asosan, “So‘zlar izohi” usuli qo‘l keladi. Jadvalning bir tarafiga lug‘attalab so‘zlar yoziladi. Ikkinchi qismiga esa so‘zlarning ma’nosi yoziladi. Masalan:

Lug‘attalab so‘zlar	Izohi
besha	to‘qay, chakalakzor, o‘rmon, changalzor
vahshat	qo‘rqinchli, vahimaga soluvchi
daler	dovurak, jasur, qo‘rqmas
asad	1) arslon, sher; 2) burj nomi
ko‘k asadi	osmon yulduzi

“Buzilgan baytlarni tikla” usuli

Xilma-xil usullar o‘quvchilarda izlanuvchanlik, intiluvchanlik xususiyatlarini rivojlantiradi. “Buzilgan baytlarni tikla” ana shunday samarali usullardan biridir. Bunda baytdagi so‘zlar chalkash holatda beriladi. O‘quvchilar chalkash holatdagi buzilgan baytlarni tiklaydi. Buzilgan baytlarni tiklash ularning xotirasini kuchaytiradi, yod olish imkoniyatlarini orttiradi. Bu usulning yana bir muhim jihati o‘quvchilarda ijodkor uslubini anglashga ko‘mak beradi. Bundan tashqari ularda gap tartibi to‘g‘risidagi tushunchalarini mustahkamlaydi.

Buzilgan baytlar	Tiklangani
Bir beshada vahshat aro ko‘k asadidek daler bir sher bor edi.	Bor edi bir beshada bir tund sher, Vahshat aro ko‘k asadidek daler.
Erdi halok qilur bolasin mo‘r Chun bolalab zavqnok bo‘lur erdi	Chun bo‘lur erdi bolalab zavqnok, Mo‘r bolasin qilur erdi halok.
Moyayi payvandini ul tishlabon Asrar edi farzandini og‘zida.	Tishlabon ul moyayi payvandini, Og‘zida asrar edi farzandini.
O‘shul beshada durroje bor edi Andeshada vahmidin sheri jayon	Bor edi durroje o‘shul beshada, Sheri jayon vahmidin andeshada.

“Aks” usuli

O‘quvchilarga she’riy san’atlar xususida dastlabki ma’lumotlar berishda, takrorlar mohiyatini anglatishda “Aks” usuli ahamiyatlidir. Jadvalning birinchi qismiga aks holatidagi bayt yoziladi. Ikkinchi qismida esa o‘quvchilar baytni asl holatga keltiradi.

Aksi	Asli
O‘l hamrozim-u hamdam qo‘y vahmni, O‘l novosozim vaqti tarab-u aysh	Vahmni qo‘y, hamdam-u hamrozim o‘l, Aysh-u tarab vaqti navosozim o‘l.
O‘lay shod eshitib lahning dog‘i men, O‘lay ozod qayg‘uyidin ila nag‘mang	Men dog‘i lahning eshitib shod o‘lay, Nag‘mang ila qayg‘uyidin ozod o‘lay.
Sanga gazande yetsa, shart bukim, Sanga bande hiylasi falak solsa	Shart bukim, yetsa gazande sanga, Solsa falak hiylasi bande sanga.

"Ohangdoshini top" usuli

Baytlardagi ohangdosh so'zlarni aniqlash o'quvchilarda badiiy didni, she'riy nafosatni yuksaltiradi, o'quvchilarda qofiya ilmi haqida tasavvur paydo bo'ladi. Tushunchalarning nazariy asoslarini anglash xususiyatlari "Ohangdoshini top" usuli asosida shakllanadi va quyidagi tartibda tashkil etiladi:

Matn	Ohangdosh so'zlar
Qaydaki orom tutib sharza sher, Girdida durroj uchubon daler.	sher daler
Boshig'a parvoz ila gardish namoy, O'ylaki sulton boshi uzra humoy.	namoy humoy
Sher eshitib aning ilhonini, Fahm qilib savtida yolg'onini.	ilhonini yolg'onini

"Fikrni bayon et" usuli

O'quvchilarni mustaqil nasriy bayon qilishga undash ularda mazmunni anglash, tushunish, fikrni bayon etish ko'nikmalarini taraqqiy ettiradi. Matnni ongli ravishda o'zlashtirish uni batafsil bayon qilishga yordam beradi. O'quvchilarda ana shunday qobiliyatlarning shakllanishida "Fikrni bayon et" usuli ahamiyatlidir. Bu usulni quyidagi tartibda tashkil etish maqsadga muvofiq:

tushunish, ifoda etish uchun quyidagi tartibda reja tuziladi:

Changalzordagi qo'rqinchli sher.
Sherning zavqqa to'lishi.
Sherning chumolilardan azoblanishi.
Sherning moyayi payvandini og'zida asrashi.
O'shul beshadagi durroj.
Sherning bolasini tishlab to'qayda yurishi.
Durrojning vahmi, sherning qo'rquvi.
Sherning qo'rquvdan jigarporasini yaralashi.
Motam ustiga motam.
Sher ko'nglining ozorlanishi, durroj bilan kelishuvi.
Hamdam-u hamrozim bo'l.
Durroj xonishlaridan shod sher.
Sher himoyasidagi durroj.
Sherning durrojga lutf qo'lini cho'zishi.
Sherning sadoqati.
Sherning afsuni.
Sherning atrofida parvona durroj.
Sherning durroj xonishlaridagi yolg'onni fahmlashi.
Yolg'on to'g'rilar oldida qoralanadi.
Durrojning kibrlanishi.
Ovchining qasdi.
Ovchi domidagi durroj.
Durrojning chin faryodi.

Asl matn	O'quvchi bayoni
Der edi, yolg'on demakim shum erur, Kizb tuz el ollida mazmum erur.	Yolg'on gapirma. Yolg'on to'g'rilar oldida qoralanadi.
Pand eshitmas edi durroji mast, Kizbdin etmas edi afg'onini past.	Durroj o'zining bu holatidan mast bo'lib pand-u nasihatni eshitmas, aslo fig'onini pasaytirmas edi.
Bir kun aning qasdig'a bir saydgar, Hodisa domin yoyib erdi magar	Uni tutish qasdida bo'lgan ovchi tuzog'ini yoyib qo'ydi.

"Kim ko'p ma'lumot topadi?" usuli

Bunda o'quvchilarga mavzuga doir qo'shimcha manbalar topish topshirig'i beriladi. Bu holat ularning dunyoqarashini kengaytiradi, manbalar bilan ishlash malaka va ko'nikmalarini shakllantiradi.

O'qituvchi o'quvchilar fikrini rivojlantirishi uchun qo'shimcha manba tarzida mavzu doirasidagi hikmatli so'zlar, masalan, rostgo'ylik va yolg'onchilik haqidagi xalq maqollarini taqdim etishi yaxshi samara beradi:

Chinni yolg'onga chulg'ama,
Durni loyga bulg'ama.
Rostgo'y shon tutar,
Durug'go'y qon yutar.
Yolg'onchining uyi kuysa ham hech kim ishonmaydi.
Yolg'onchiga tong otmas.
Yolg'onga yo yolqov ishonar, yo anqov.

"Rejali ish, jo'yali ish" usuli

Har bir asarni reja asosida o'qib o'rganish maqsadga muvofiq. Chunki reja fikr bayonida izchillikni, batafsillikni ta'minlaydi. Reja tuzish o'quvchining tasavvurini kengaytiradi, tafakkurini yuksaltiradi. Shu boisdan ham reja asarda tasvirlangan voqeaning rivojlanishini ifoda etish uchun xizmat qiladi. "Sher bilan durroj" maqolatida tasvirlangan voqeaning rivojlanishini anglash, chuqur

Durroj faryodining "yolg'onligi".
Durrojning halokati.
Chin so'z – mo'tabar, yolg'on so'z – halokat.

Maqolatdagi 32 baytning mazmunini tuzilgan reja asosida qayta hikoya qilib berish asarni izchillik bilan o'rganishga zamin yaratib beradi. Tuzilgan reja asosida o'quvchilardan asarni mantiqiy qismlarga ajratish so'raladi. Ajratilgan qismlarga sarlavha topish taklif qilinadi. O'quvchilar tomonidan "Onalik zavqi", "Ovchining qasdi", "Yolg'onchilik kechirilmaydigan gunoh", "Kibr umr zavoli" kabi sarlavhalar taqdim etiladi. O'quvchilar guruhlarga ajratiladi. Har bir guruh o'zlariga taqdim etilgan mavzu bo'yicha matn yozadi. Ajratilgan har bir qism bo'yicha yozilgan matnning yaxlitligini ta'minlaydi. Buning uchun o'qituvchi har bir guruhga ajratilgan asar qismlarini so'zlab, izohlab bergani ma'qul. Shundagina u ko'zlagan maqsadiga erisha oladi.

"Hedone" texnologiyasidan kutilayotgan natijalar: o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqi rivojlanadi; topgan, o'rgangan ma'lumotlaridan zavqlanish hissi paydo bo'ladi; badiiy matn bilan ishlash malaka va ko'nikmalari rivojlanadi; o'quvchilarning so'z boyligi ortadi; tushunchalarni farqlash malakalari shakllanadi; o'quvchilarning tasavvur olami boyiydi, tafakkuri yuksaladi.

Sayyoraxon ABDUVALIYEVA,
Andijon viloyati Qorasuv shahridagi 1-maktabning
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

O‘ZBEK TILI FANIDAN MUSTAHKAMLASH DARSLARIDA “ZAKOVAT” USULIDAN FOYDALANISH

(10-sinf)

Darslarda interfaol usullardan foydalanish dars samaradorligini oshirishi hech birimizga sir emas. Shunday samarali usullardan biri “Zakovat” o‘yini bo‘lib, ushbu usuldan ta’lim o‘zga tillarda olib boriluvchi sinflarda foydalanish tajribamdan o‘rtoqlashishni maqsad qildim.

Buning uchun o‘quvchilardan 10 nafari bitta jamoa bo‘lib, doira shaklidagi stol atrofida o‘tiradilar, qolgan o‘quvchilar tomoshabin sifatida jamoaga yordamchi guruh bo‘ladi. Mavzuga oid o‘nta savol beriladi. Doskaga orqa tarafida raqamlar yozilgan mevalarning rasmi yopishtiriladi. Jamoa ishtirokchilaridan biri doskadagi mevalardan birini tanlaydi, uning ortida yozilgan raqamdagi konvert savoli o‘qituvchi tomonidan o‘qiladi. Jamoaga 1 daqiqa vaqt beriladi. Har bir to‘g‘ri javob uchun 1 balldan berib boriladi.

1-konvert

Savol: Berilgan gaplarda uyushib kelgan bo‘laklarni aniqlang, qanday so‘roqqa javob bo‘lishini ayting. Ularni o‘zaro bog‘lovchi vositalarni ko‘rsating.

1. *Bu yil bog‘imizdagi o‘rik, olma, shaftoli va behi daraxtlari hosilga kirdi.*

2. *Uzoqdan yaylovlar, qirlar, tog‘lar ko‘rinardi.*

3. *She’rni ifodali o‘qing va yod oling.*

Javob:

1-gapda: *o‘rik, olma, shaftoli, behi* so‘zlari uyushib kelgan, ega uyushgan, uyushiq bo‘laklar ***va*** teng bog‘lovchisi yordamida bog‘langan.

2-gapda: *yaylovlar, qirlar, tog‘lar* so‘zlari uyushib kelgan, gapda ega uyushgan, ohang yordamida bog‘langan.

3-gapda: *o‘qing, yod oling* so‘zlari uyushib kelgan, ushbu gapda kesim uyushgan, ***va*** teng bog‘lovchisi yordamida o‘zaro bog‘langan.

2-konvert

Karning bemor ziyorati

Bir kar odam qo‘shnisi kasal bo‘lganidan xabar topdi va o‘zicha shunday o‘yladi: “Qo‘shnimni borib ko‘rib, undan hol-ahvol so‘rashim lozim. Ammo men karman, qulog‘im eshitmaydi, u esa kasal – ovozi chiqmaydi. Darvoqe, kasaldan so‘raladigan savollar ham, olinajak javoblar ham ma’lum. Men: “Qandaysiz?” – deyman. U: “Yaxshiman, rahmat”, – deydi. “Nimalar yeyapsiz?” – deb so‘rayman. Albatta, biror ovqat nomini aytadi. Men: “Osh bo‘lsin”, – deyman. “Qaysi tabiblar kelyapti?” – degan savolimga ham biror ismni aytib javob beradi. Men: “Yaxshi tabib”, – deyman, vassalom” .

Kar kasalning yoniga borib, bosh tomoniga o‘tirdi va:

– Qandaysiz, qo‘shnijon? – deya hol-ahvol so‘ray boshladi.

Kasal ingrab:

– O‘lyapman! – deya javob bergach, kar:

– Oh-oh, juda xursand bo‘ldim, – dedi.

– Bu nimasi, men o‘laman, desam, bu kulaman, deydi?! – deya jahli chiqdi bemorning.

Kar yana so‘radi:

– Nima yeyapsiz?

– Zahar! – dedi bemor jahl bilan. Kar biror ovqat nomi deb gumon etdi va:

– Osh bo‘lsin! – dedi.

Kasalning toqati toq bo‘ldi.

– Davolashga qaysi tabiblar kelyapti?

– Qani yo‘qol bu yerdan! Azroil kelyapti! – deya tutoqdi bechora kasal.

– Juda bilimli tajribali tabib u… Inshoolloh, yaqinda bir chorasini topadi.

Kasal ortiq chiday olmadi:

– Yo‘qooool! – deya baqirdi.

Kar esa qo‘shnichilik haqqini ado etganidan mamnun bo‘lib chiqdi.

Savol: Bu hikoyat orqali qanday xulosa chiqarish mumkin?

Javob: Kar qilgan qiyosi tufayli o‘n yillik do‘stligi va hol-ahvol so‘rashi bekorga ketdi. Sening tuyg‘u qulog‘ing kar bo‘lsa, ko‘ngil qulog‘ing ochiq bo‘lmog‘i kerak. Ko‘ngil qulog‘i har narsani sezadi, eshitadi. Hikoyatda har bir so‘zni o‘ylab gapirish, aytilgan so‘z inson qalbiga ozor yetkazmasligi kerakligi uqtiriladi.

3-konvert

Savol: Quyidagi topshiriqni bajarsangiz, Fariddin Attorning ibratli so‘zini o‘qiysiz:

1. Yoqimli so‘zining ma’nodoshi.
2. Tugallangan ohang bilan aytiladi.
3. Yuklama.
4. Chiroyli so‘zining ma’nodoshi (qo‘shma so‘z).
5. bo‘lgil.
6. Undov so‘z.
7. axiy.
8. Toki.
9. Ism so‘zining ma’nodoshi + -ing.
10. Ochun so‘zining ma’nodoshi + -da.
11. bo‘lsin.
12. Qo‘li ochiq so‘zining ma’nodoshi.

Javob:

Xush gap-u xushchehra bo‘lgil, ey axiy,
Toki noming dunyoda bo‘lsin saxiy.

4-konvert

Jamoaga "Bliss – so'rovnoma" jadvali beriladi. Jamoa a'zolari jadvalga to'g'ri javoblarni "+" belgisi bilan belgilab chiqadilar.

Savol: Ega qaysi so'z turkumi bilan ifodalangan?

"BLISS SO'ROVNOMA"

	Ot	Sifat	Modal so'z	Olmosh	Son	Harakat nomi	Ravish
Shamol gul hidlarini atrofga taratdi	+						
Yaxshi ish bitirur		+					
Ular to'garak mashg'ulotiga muntazam qatnashar edilar				+			
Ikkovimiz biroz aylandik					+		
O'qish boshlandi						+	
Ko'plar yig'ilishga qatnashdi							+
Bor – boricha, yo'q – holicha			+				

5-konvert

"Uychasini toping". O'quvchilarga so'zlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi va so'zlarning bir-biriga mosini qo'yib joylashtirib chiqishlari so'raladi.

Aniqlovchi	Qanaqa?	Qanday?	Qaysi?
Hol	Qanday qilib?	Qachon?	Qayerda?
To'ldiruvchi	Kimga?	Nimani?	Kimni?

6-konvert

Savol: Berilgan so'zlar ishtirokida sodda yoyiq gaplar tuzing: *olimlar, bilimga, ijodkorlik, tibbiyot, iqtisodiyot, samarasini ko'rish, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, izlanmoq, mashaqqatli yo'l, fidokorlik, dunyoga tanitmoq, fan-texnika asri, ustozlar*.

7-konvert

Savol: Berilgan so'zlar orasidan tub va yasama shaxs otlarini aniqlang: *o'qituvchi, san'atkor, sportchi, hamshira, xonanda, shifokor, aloqachi, soatsoz, dehqon, kimyogar, qo'shiqchi, shoir, haydovchi, muhandis, rassom, haydovchi, quruvchi, zargar, tilshunos, gilamdo'z, sotuvchi, uchuvchi*.

Javob:

Tub shaxs otlari: dehqon, xonanda, muhandis, hamshira, rassom, shoir.

Yasama shaxs otlari: o'qituvchi, san'atkor, sportchi, shifokor, aloqachi, soatsoz, kimyogar, qo'shiqchi, haydovchi, quruvchi, zargar, gilamdo'z, tilshunos, sotuvchi.

8-konvert

Lug'at ustida ishlash

Savol: Berilgan so'zlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Скоростной.
2. Гордость отечества.
3. Патриотизм.
4. Развиваться.

Javob:

1. Tezyurar.
2. Vatan faxri.
3. Vatanparvarlik.
4. Rivojlanmoq

9-konvert

Izohli lug'at

Savol: "Balo" so'zining ma'nodoshlarini toping.

Javob: usta, bilag'on, bilarmon, epchil, chaqqon, uddaburon, ustamon.

10-konvert

Savol: Rasmga qarab sodda gap, qo'shma gaplar ishtirokida matn tuzing.

Dars so'ngida faol qatnashgan, to'g'ri fikrlarni bergan o'quvchilar aniqlanadi va har bir o'quvchi baholanadi.

Shoira SODIQOVA,
Toshkent shahar Chilonzor tumanidagi
202-maktabning ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

BUTUNDAN QISMGA BESH QADAM

O‘quvchilarda nutqiy kompetensiya elementlari – o‘qish, tinglash, gapirish va yozish orqali lingvistik kompetensiya elementlari – matnni ketma-ketlikka amal qilgan holda yozma bayon qilish, mantiqiy, kreativ, ijodiy va tanqidiy fikrlash; gapning ifoda maqsadi va tuzilishiga ko‘ra turlarini farqlash, nutqda ulardan foydalanish; so‘z birikmasi, ularning o‘zaro bog‘liqligi (qaysi bo‘lakka tobeligi) va gapdagi tartibini bilish, nutqda to‘g‘ri qo‘llash; sodda gap, gap bo‘laklarini farqlash; ega, kesim, fe’l kesim va ot kesimni bilish, gap bo‘laklari tartibiga rioya qilgan holda gaplar tuzishga o‘rgatishda yangicha pedagogik texnologiyalardan foydalanganda yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Shuni inobatga olgan holda o‘z tajribalarim asosida yaratilgan texnologiyalarni siz aziz hamkasblarim bilan baham ko‘rishni maqsad qildim.

“Butundan qismga besh qadam” metodi
(Sintaksis)

Ushbu metod 8-sinf ona tili darsida Fan va texnologiyalar (VI bo‘lim) bo‘limi o‘rganilgandan so‘ng mustahkamlash darslarida qo‘llanilishi mumkin. Yoki ushbu bo‘limni o‘rganish jarayonida bir necha dars davomida bosqichma-bosqich yoki bitta mustahkamlash darsining o‘zida foydalanish mumkin. Bu metodda topshiriqlar matndan qismga, ya’ni so‘zga qarab yo‘naltiriladi. Metodni sintaksis bo‘limidagi gap va uning tuzilishi, gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari, so‘z birikmalari, gap bo‘laklari mavzularini o‘rganishda qo‘llash maqsadga muvofiq. Bunda o‘quvchilarga (yoki guruhlarga) audiomatn yoki videomatn taqdim etiladi. O‘quvchilar matnni tinglab, o‘zi tushungan mazmunni gapirib beradi. Dars davomida esa matn ustida ishlanadi. Matn bilan ishlash uchun quyidagi topshiriqlardan foydalaniladi:

1. Matn mazmunini so‘zlab bering (gapirish – o‘rganilgan matnni ketma-ketlikka amal qilgan holda og‘zaki bayon qilish, nutqni adabiy talaffuz me’yorlariga amal qilgan holda ifodali, ravon, mazmunli va ta’sirchan gapirish).
2. Berilgan matn ichidan uchta asosiy qism – gapni ajrating (yozish – matnni ketma-ketlikka amal qilgan holda yozma bayon qilish, mantiqiy, kreativ, ijodiy va tanqidiy fikrlash).
3. Gaplarning tuzilishi va ifoda maqsadiga ko‘ra turlarini aniqlang (lingvistik kompetensiya – gapning ifoda maqsadi va tuzilishiga ko‘ra turlarini farqlash, nutqda ulardan foydalanish).
4. Gapdagi so‘zlarning bog‘lanishini tahlil qiling (lingvistik kompetensiya – so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishi va ularning o‘zaro bog‘liqligi (qaysi bo‘lakka tobeligi) va ularning gapdagi tartibini bilish, nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish).
5. Gapdagi so‘zlarni sintaktik tahlil qiling (lingvistik kompetensiya – sodda gap, gap bo‘laklarini bilish; ega, kesim, fe’l kesim va ot kesimni bilish, gap bo‘laklari tartibiga rioya qilgan holda gaplar tuzish).

O‘qituvchi o‘rganilayotgan mavzudan kelib chiqqan holda topshiriqlarga biroz o‘zgartirish kiritishi, hayot bilan bog‘liq savollar ham kiritishi mumkin.

Namuna:

O‘quvchilarga “Garajdagi startap: Nanotexnologiya kuchini innovatsiyaga aylantirayotgan laboratoriya” mavzusidagi videorolik ko‘rsatiladi.

Garajdagi startap:

Nanotexnologiya kuchini innovatsiyaga aylantirayotgan laboratoriya

Dunyodagi eng yirik internet do‘kon – Amazon, multiplikatsion mahsulotlari bilan butun dunyo bolalari qalbini zabt etgan – Disney, bir kunda millionlab odamlar foydalanadigan qidiruv tizimi – Google va nanotexnologiyani innovatsiyaga aylantirayotgan – Lotus engineering. Ularni nima bog‘lab turishini bilasizmi? Ularning barchasi o‘z faoliyatini oddiygina garajda boshlagan. Amazon, Disney va Google allaqachon muvaffaqiyatga erishgan. Lotus engineering ham hali o‘z yo‘li avvalida bo‘lishiga qaramay, foydali loyihalarni amalga oshirishga ulgurdi.

Lotus engineering – Yevropaning qay bir burchagida emas, o‘zimizning Toshkentda joylashgan laboratoriyaning nomi. U shunchaki oddiy tajribalar o‘tkaziladigan laboratoriya emas. U yerda nafaqat O‘zbekiston, balki butun dunyo uchun ham hali yangi bo‘lgan yo‘nalish – nanotexnologiya kuchidan foydalangan holda innovatsiyalar yaratiladi. Eng qizig‘i, u qachonlardir mashina tuzatishga xizmat qilgan oddiy garajda joylashgan.

Lotus engineering loyihasi rahbari Amir Obidov ilg‘or materialshunoslik va injiniring doktori, professor. Janubiy Koreyada magistratura va doktoranturada tahsil olib, ilmiy ishini yoqlagan yosh olim O‘zbekistonga qaytgach, ilmiy faoliyatni yangicha yo‘sinda davom ettirish haqida o‘ylay boshlaydi.

1-topshiriq. Videomatn mazmunini so‘zlab bering (gapirish – o‘quvchilar o‘rganilgan matnni ketma-ketlikka amal qilgan holda og‘zaki bayon qiladi, nutqni adabiy talaffuz me’yorlariga amal qilgan holda ifodali, ravon, mazmunli va ta’sirchan gapiradi). O‘quvchilar bir-birining fikrini tinglab, izohlaydi. “Men shu gapni mana bunday ifodalashim mumkin”, degan fikrlarni bildirishlari mumkin. Bu orqali tanqidiy tahlil qilish jarayoni kuzatiladi. Gavda va qo‘l harakatlarining nutq jarayonidagi o‘rni ham tahlil qilinadi.

2-topshiriq. Videolavhadan xotirangizda qolgan uchta fikrni yozing (yozish – matnni ketma-ketlikka

amal qilgan holda yozma bayon qilish, mantiqiy, kreativ, ijodiy va tanqidiy fikrlash).

Bu uchta gap videolavhada o'quvchini qiziqtirgan fikrlardan iborat bo'ladi. Topshiriq bajarilgach, guruhlarning yozgan gaplari muhokama qilinadi. Guruhlar yozgan gaplar turlicha bo'lishi tabiiy. Topshiriqni bajarish, muhokama qilish jarayonida o'quvchilar o'zlarini qiziqtirgan ma'lumotlar haqida mustaqil fikrlaydi va bu juda muhim (gapirish – mantiqiy, kreativ, ijodiy, tanqidiy fikrlash va fikrni og'zaki bayon qilish).

1-guruh:

1. Lotus engineering – Yevropaning qay bir burchagida emas, o'zimizning Toshkentda joylashgan laboratoriyaning nomi.

2. O'zbekistondagi ilmiy tadqiqot institutlari ham nanotexnologiya bilan shug'ullanadi, lekin asosiy maqsad nanotexnologiyadan innovatsiya yarata olish bo'lishi kerak.

3. Laboratoriyada ultrabinafsha nurlarini qaytaruvchi nanokukunlar ustida ish olib borilmoqda.

2-guruh:

1. Eng qizig'i, laboratoriya qachonlardir mashina tuzatishga xizmat qilgan oddiy garajda joylashgan.

2. Laboratoriya tashkil topganiga endigina bir yil bo'lganiga qaramay, bir necha loyihalar yo'lga qo'yilgan.

3. Sun'iy ravishda hosil qilingan nanoustunchali qoplamalardan tayyorlangan materiallar mutlaqo suv o'tkazmaydi, ular yordamida har qanday ob-havoga chidamli palatkalar tayyorlash mumkin.

3-guruh:

1. Bu laboratoriyada har qanday turdagi virus, bakteriya, mikrob, zamburug'larni to'liq yo'qotib beruvchi sterilizator yaratildi.

2. Yangi loyihada maxsus filtrlar shahar ko'chalaridagi mashinalardan chiqayotgan zaharli gazni yutib, toza havo chiqarib berishni ko'zda tutadi.

3. Amir Obidov – o'z startapini muvaffaqiyatli boshlab olgan o'zbek olimi.

Guruhlarning ajratib olgan gaplari muhokama qilinadi. Har bir guruh nima uchun aynan shu gapni tanlaganiga munosabat bildiradi. Eng asosiy fikrlar aniqlanadi.

Bu topshiriq videomatn muallifining maqsadini anglash hamda o'quvchilarda tahlil qilish, kreativ fikrlash malakasini oshirishga ham yordam beradi.

3-topshiriq. Gaplarning tuzilishi va ifoda maqsadiga ko'ra turlarini aniqlang (lingvistik kompetensiya – gapning ifoda maqsadi va tuzilishiga ko'ra turlarini farqlash, nutqda ulardan foydalanish). O'quvchilar 2-topshiriqqa ko'ra yozib olingan gaplardan birini tuzilishi va ifoda maqsadiga ko'ra tahlil qiladilar.

1-guruh: *Laboratoriyada ultrabinafsha nurlarini qaytaruvchi nanokukunlar ustida ish olib borilmoqda.* Bu gap tuzilishiga ko'ra sodda gap, ifoda maqsadiga ko'ra darak gap.

2-guruh: *Sun'iy ravishda hosil qilingan nanoustunchali qoplamalardan tayyorlangan materiallar mutlaqo suv o'tkazmaydi, ular yordamida har qanday ob-havoga chidamli palatkalar tayyorlash mumkin.* Bu gap tuzilishiga ko'ra qo'shma gap, ifoda maqsadiga ko'ra buyruq gap.

3-guruh: *Bu laboratoriyada har qanday turdagi virus, bakteriya, mikrob, zamburug'larni to'liq yo'qotib beruvchi sterilizator yaratildi.* Bu gap tuzilishiga ko'ra sodda gap, chunki unda bitta grammatik asos bor. Ifoda maqsadiga ko'ra darak gap.

4-topshiriq. Gapdagi so'zlarning bog'lanishini tahlil qiling (lingvistik kompetensiya – so'zlarning bog'lanishi, ularning o'zaro bog'liqligi (qaysi bo'lakka tobeligi) va ularning gapdagi tartibini bilish, nutqda to'g'ri qo'llash).

1-guruh: *laboratoriyada ish olib borilmoqda* – tobe bog'lanish, boshqaruv, *-da* o'rin-payt kelishigi qo'shimchasi yordamida bog'langan, fe'lli birikma; *ultrabinafsha nurlari* – bitishuv, otli birikma, so'zlar o'zaro mazmunan bog'langan.

2-guruh: *suv o'tkazmaydi* – tobe bog'lanish, boshqaruv, *-ni* tushum kelishigi qo'shimchasi tushib qolgan, fe'lli birikma.

3-guruh: *virus, bakteriya, mikrob, zamburug'larni* – so'zlar sanash ohangi bilan teng bog'langan.

5-topshiriq. Gapdagi kesim (ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol)ni aniqlang. Bunda bir guruh berilgan gapning kesimini, ikkinchi guruh gapning egasini, uchinchi guruh esa boshqa bo'lakni aniqlashi ham mumkin: *Laboratoriyada ultrabinafsha nurlarini qaytaruvchi nanokukunlar ustida ish olib borilmoqda.*

1-guruh: *Ish olib borilmoqda* – kesim.

2-guruh: *laboratoriyada* – hol...

O'qituvchi guruhlarning javoblarini tinglab, ularni kerakli o'rinlarda to'ldirib boradi va rag'batlantiradi.

"Fonetik diagramma" metodi

Dars jarayonlarida barcha o'quvchilar ham birday qatnashmaydi. Ularni darsga qiziqtirish uchun ona tilini turli fanlarga bog'lab tashkil qilish kerak. O'quvchilarning diqqatini tortadigan hayotiy matnlar bilan ishlash ham ayni muddao. Ushbu metod har qanday fanga qiziqadigan o'quvchining ham diqqatini tortadi. Bunda sinf o'quvchilari odatdagiday turli so'zlar yoki buyuk shaxslarning nomlari bilan emas, turli tovushlar bilan nomlanadi. Masalan, "A" guruh, "B" guruh, "D" guruh. Sinf yozuv taxtasiga har bir guruh uchun "Fonetik diagramma" jadvali ilib qo'yiladi. Ushbu jadvaldagi vertikal o'qqa 1 dan 5 gacha ballar belgilanadi, gorizontal o'qqa esa bugungi dars uchun mo'ljallangan 3–5 ta topshiriq, A, B, D harflari bilan belgilab olinadi. Har bir topshiriq guruhlar tomonidan qay darajada bajarilishiga qarab vertikal o'qdagi ballar to'g'risiga belgilab boriladi. Oxirida belgilangan nuqtalar tutashtirilib, ma'lum bir chizma shakli hosil qilinadi.

Topshiriqlar:

1. Matn bilan tanishing va savollarga javob bering. Har bir guruhga bir tovush bilan boshlanuvchi so'zlardan iborat matn beriladi. Guruhlardan matnni diqqat bilan o'qib chiqish va mazmuni bilan tanishish, matn mazmunida ularning hayotiga o'xshash va farqli voqea-hodisalar bor yoki yo'qligini gapirib berishlari so'raladi. Guruhlarda nechta a'zo javob berganiga qarab vertikal o'qdagi ballar to'g'risiga belgi qo'yiladi.

“A” guruh uchun matn:

Toshpo‘lat to‘qqizga to‘ldi

Toshpo‘lat to‘qqizga to‘ldi. Toshtemir tog‘a Toshpo‘latni tabrikladi. Toshpo‘lat tog‘asiga tengdoshlarini tanishtirdi.

Tursunoy Toshpo‘latga Tyanshan tog‘idan tutilgan to‘qqizta toshbaqadan to‘rttasini topshirdi. Toshtemir tog‘a toshbaqa tutmagan. Toshpo‘lat to‘qqizga to‘lganda Toshtemir tog‘a to‘qayzordan to‘rtta tustovuq, to‘qqizta tipratikon, tag‘in tipratikan tutganchalik to‘ng‘izni tuzoqqa tushirgan. Tutilgan to‘ng‘izlarning tuyog‘ini toping.

“B” guruh uchun matn:

Boqivoy boboning bog‘i

Baxmaldagi Boqivoy boboning beshta bolasi bor. Bular Baxtiyor, Burxon, Bekmurod, Bektemir, Bahodirlardir. Boqivoy boboning bitta bog‘i bor. Bog‘ning bir burchagida baland bino bor. Bu bino bog‘dorchilikdan bino bo‘lgan. Boqivoy bobo bilan bolalari bog‘dorchilik bilan band bo‘ladilar.

Bog‘da bodomlar bor. Bahorda Boqivoy bobo bodomlarni butaydi. Bolalar bodom butalarini bog‘laydilar. Bog‘langan butalarni bog‘ning burchagiga bosadilar.

Savol:

1. Siz hayotingizda matn bilan bog‘liq voqea-hodisalarga guvoh bo‘lganmisiz?

2. Ikkinchi savol har bir guruhning matn mazmunidan kelib chiqib beriladi. Masalan, “Matndagi masalani ishlang”, “B tovushi bilan boshlanadigan qanday o‘simliklarni bilasiz?” kabi.

2. Tovushni tanishtiring. Matnda qaysi tovush bilan boshlanuvchi so‘zlar qatnashganligi aniqlanadi. So‘ng tovushning hosil bo‘lish usuli va hosil bo‘lish o‘rni kabi bir qator belgilari izohlanadi. Masalan, “A” guruhga berilgan matnda **t** tovushu bilan boshlanuvchi so‘zlar qatnashgan. Shuning uchun ular **t** tovushi undosh tovush, til oldi undoshi, jarangli jufti **d** undoshi ekanligini izohlashadi. Guruhlarni baholash uchun izohda beshtagacha ma’lumot aytilsa, vertikal o‘qdagi 5 ball, to‘rtta izoh keltirilsa, 4 ball to‘g‘risiga belgi qo‘yiladi.

3. Misollar toping va izohlang. Guruhlar o‘zlari izohlagan tovushlar so‘z oxiri yoki o‘rtasida qatnashgan so‘zlarga beshtagacha misollar topadi. Shu so‘zlarning talaffuzi va imlosini izohlaydi. Masalan, “A” guruh **g‘isht, daraxt, o‘qiyapti, tabiat, faqat** kabi so‘zlarini aytishlari, **g‘isht, daraxt** so‘zlarida **t** undoshi talaffuzda tushib qolishi, ammo yozganda ifodalanishini, **o‘qiyapti** so‘zida ba’zan o‘quvchilar **t** undoshi o‘rniga **d** undoshini yozib imlo xato qilishlarini, **tabiat** so‘zida **i** va **a** unlisi orasida **y** tovushi orttirib talaffuz qilinishi, ammo yozuvda yozilmasligini aytib izohlashlari mumkin. Bunda ham guruhlar nechta so‘zning talaffuzi va imlosini izohlaganiga qarab vertikal o‘qdagi ballardan tegishlisining to‘g‘risiga belgilab boriladi.

4. Matn tuzing. Guruhlar yuqoridagi matnga o‘xshagan bir tovush bilan boshlanuvchi so‘zlar qatnashgan matn tuzishlari kerak. Bu o‘quvchilarning so‘z boyligi ortishi va matn tuzish ko‘nikmasi shakllanishiga yordam beradi.

“Hamkorlar” metodi (Leksikologiya)

Ushbu metodni Leksikologiya bo‘limidagi sinonim so‘zlar, terminlar, joy nomlari, qarindosh-urug‘chilik bilan bog‘liq atamalar mavzularida qo‘llash mumkin. Buning uchun o‘quvchilar 5–6 ta kichik guruhlarga ajratiladi va har bir guruhga bir qancha gaplardan iborat kichik matnlar hamda maxsus jadval tarqatiladi. Ulardan matnlarni birgalikda o‘qib, beriladigan topshiriqlarni hamkorlikda bajarish talab etiladi. Metodni amalga oshirish uchun “Davom ettir”, “Iztopar” va “Nozik ma’nolar” usullaridan foydalaniladi.

Metodni qay tartibda amalga oshirishni ikkita guruh misolida ko‘rib chiqamiz. Guruhlarga quyidagicha tugallanmagan matnlar tarqatilishi mumkin:

1-guruh:

Madinaning akasi kecha Toshkentdan keldi. Uning uyiga qishloqdagi barcha qarindoshlari yig‘ildi. Shokir aka mehmonlarga poytaxtda ko‘rgan-bilganlari haqida gapirib berdi.

2-guruh:

Bizga kecha adabiyot darsida “Oq kema” asaridan parcha o‘qib kelish topshirilgan edi. O‘qituvchimiz bugun shu asardan olgan taassurotlarimizni so‘radilar. Juda ko‘pchilik o‘quvchilar shu asar haqidagi o‘z fikrlarini og‘zaki bayon qilishdi.

Dastlab mening eng yaqin o‘rtog‘im Komiljon asar mazmunini so‘zladi. Keyin ustozimiz asar g‘oyasi va qahramonlari haqida savollar berdi. Hamma o‘z fikrini bildirdi. Bahs-munozara qizg‘in davom etganidan tanaffus bo‘lganini ham bilamay qolibmiz. Sinfdoshlarim juda kitobsevar-da. Men ular bilan faxrlanaman.

Topshiriqlar quyidagi usullar orqali bajariladi:

1. “Davom ettir” usuli. Bu usulni amalga oshirish uchun har bir guruhga tugallanmagan matnlar beriladi. Guruh a’zolaridan matnlarni diqqat bilan o‘qish va uni hamkorlikda mantiqan davom ettirish talab etiladi. Bu topshiriq uchun 5 daqiqa vaqt ajratiladi. Masalan, 1-guruh berilgan tugallanmagan matnni quyidagicha to‘ldirib tugatishi mumkin:

Madinaning akasi kecha Toshkentdan keldi. Uning uyiga qishloqdagi barcha qarindoshlari yig‘ildi. Shokir aka mehmonlarga poytaxtda ko‘rgan-bilganlari haqida gapirib berdi. Madina akasining hikoyasini tinglar ekan, Toshkentdagi baland-baland binolar, so‘lim bog‘lar,

keng ko'chalarni xayolan tomosha qilardi. U akasidan muzeylar, zamonaviy kutubxonalar haqida so'radi. Akasining hikoyasini tinglarkan, poytaxtni o'z ko'zi bilan ko'rish, muzey va kutubxonalarga sayohat qilish istagi tug'ildi. Akasi kelasi safar uni ham olib ketishini aytdi.

2-guruh:

Bizga kecha adabiyot darsida "Oq kema" asaridan parcha o'qib kelish topshirilgan edi. O'qituvchimiz bugun shu asardan olgan taassurotlarimizni so'radilar. Juda ko'pchilik o'quvchilar shu asar haqidagi o'z fikrlarini og'zaki bayon qilishdi.

Har bir guruh matnni shu tartibda davom ettiradi va tugatadi. So'ngra ular to'ldirgan matnlar o'qitiladi, boshqa guruhlarning matnga munosabati tinglanadi.

2. "Iztopar" usuli. Bunda guruhlar bir-biri bilan matn almashishadi va boshqa guruhning matnidan o'z matnlaridagi qaysi so'zning ma'nosiga yaqin (yoki ilm-fan, joy nomlari va boshqa so'zlar) so'zlar ishlatilgan bo'lsa, shularni izlab topadi va ularni maxsus jadvalga joylashtiradi, ma'nolari, o'xshash va farqli tomonlarini izohlaydi. Bunday so'zlar tilshunoslikda qanday umumiy nom bilan atalishini topadi va jadvalni to'ldiradi. Bu topshiriq 5–7 daqiqada bajariladi. Masalan, 1-guruh 2-guruh matnidagi *bayon qilmoq, so'zlamoq* so'zlari o'zlarining matnidagi *gapirib bermoq, aytmoq* so'zlariga ma'no jihatidan yaqinligini izohlaydi. 2-guruh esa 1-guruh matnidagi *so'ramoq* so'zi o'zlarining matnidagi *savol bermoq* so'zi bilan ma'nodosh ekanligini izohlaydi. Shunday ma'noni ifodalovchi so'zlarga yana misollar topib, jadvalga joylashtirishadi. Bu so'zlar shakli har xil, ammo bir-biriga ma'nosi yaqin so'zlar, ya'ni sinonimlar ekanligi aniqlanadi. Jadval to'ldirilgach, o'qituvchiga topshiriladi. Masalan:

1-guruh:



3. "Nozik ma'nolar" usuli. "Hamkorlar" metodining so'nggi bosqichida ushbu usul qo'llanadi. Bunda guruhlar "Iztopar" usuli orqali topgan sinonim so'zlarni o'zlariga tegishli matndagi so'z bilan almashtirib ko'rishadi va so'zlarning ma'no nozikligi, gap qurilishidagi o'zgarishlarni izohlashadi. Buning uchun 5 daqiqa vaqt ajratiladi. Masalan, 1-guruh matnidagi "*U akasidan muzeylar, zamonaviy kutubxonalar haqida so'radi*" gapidagi *so'radi* so'zini *savol berdi, bilib olmoqchi bo'ldi, so'roqqa tutdi* so'zlari bilan almashtirib ko'radi va so'zlarning ma'no nozikliklarini izohlaydi:

– U akasidan muzeylar, zamonaviy kutubxonalar haqida ***so'radi*** (umumiy so'rash);

– U akasi***ga*** muzeylar, zamonaviy kutubxonalar haqida ***savol berdi*** (bitta savol berdi);

– U akasidan muzeylar, zamonaviy kutubxonalar ***to'g'risida bilib olmoqchi bo'ldi*** (bilishga bo'lgan qiziqishni qondirish);

– U akasi***ni*** muzeylar, zamonaviy kutubxonalar ***borasida savolga tutdi*** (ko'plab savollar berdi);

– U akasidan muzeylar, zamonaviy kutubxonalar haqida ***so'rab qoldi*** (kutilmaganda so'rash).

Guruhlar shu tartibda gap tarkibida sinonim bo'la oladigan birliklarning ma'no nozikliklarini izohlaydi. Sinonim so'z (yoki birlik)larning har biriga gaplar tuzadi. Matndagi gapga mos bo'lgan so'z hamda grammatik birlik haqida fikr yuritadi. Ayni paytda topshiriqlarning keyingi turi sifatida yuqoridagi gaplarning birida mantiqiy urg'u olishiga ko'ra bo'laklar o'rnini almashtirib, ma'noviy (uslubiy) o'zgachalikni sharhlash topshirig'i berilishi ham mumkin.

2-guruh:



O'qituvchi guruhlarning javoblarini tinglab, kerak o'rinlarda ularni to'ldirib boradi va rag'batlantiradi.

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI
ПРЕПОДАВАНИЕ ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ | LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

Elmurod NASRULLAYEV,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

ISTIQLOL DAVRI DRAMATURGIYASIDA NAVOIY TALQINI

Dramatik asarda qahramon xarakterini harakatda ochish san'ati bo'yicha dramaturgiyamizda o'ziga xos adabiy maktab yaratilgan. Bu maktab qanchadan qancha san'atkorlarni tarbiyalab voyaga yetkazdi, yetkazyapti, ijodiy cho'qqilarga ruhlantirdi, ruhlantiryapti. Xarakterlarni harakatda ochish san'atida dramatik asarlarning mavjud xislat-an'analarini muallif bilan birga safdoshlari ham davom ettiradi, ularni yangi-yangi novatorlik xususiyatlar bilan boyitadi.

Har bir ijodkor, u xoh yozuvchi, xoh shoir, xoh dramaturg bo'lsin, tarixga murojaat qilish bilan undan zamonaviy masalalarni hal qilishga ko'maklashuvchi faktlarni izlaydi, tarixga zamonamiz tendensiyalari nuqtayi nazaridan yondashib, uni davrimiz xizmatiga bo'ysundiradi. Mislsiz jangovor sahifalarga boy tariximiz zamondoshlarimizga hamma vaqt yaqin va qimmatli.

O'zbek dramaturgiyasida Izzat Sulton va Uyg'unning "Navoiy" dramasidan so'ng o'tgan davrda bu mavzuga qo'l urilmadi. Adabiyotshunos olima D.Salohiyning qayd etishicha, Uyg'un va Izzat Sultonning XX asr o'rtalarida sahnalashtirilgan "Alisher Navoiy" spektaklidan keyin Navoiy badiiy timsoli teatr sahnasida ifodalanmagan edi[1]. Ana shu kemtiklikni to'ldirish maqsadida so'nggi yillarda Iqbol Mirzoning "Samarqand sayqali" va Muhammad Alining "Navoiy va Boyqaro" tarixiy dramalari yaratildi. Ularda Hazrat Navoiy timsolining badiiy talqini har ikkala muallif uslubiga xos va betakror tarzda aks etgan.

Shoir Iqbol Mirzo "Samarqand sayqali" dramasida 25 yoshlarida butun Xurosonga shoir sifatida tanilib ulgurgan Navoiyning ilm tahsili maqsadida Samarqandga kelishi va u yerda kechirgan hayotini yoritib berishga harakat qilgan. Shoir hayoti Samarqand davri ilmiy va badiiy adabiyotida ancha batafsil yoritilgan bo'lsa-da, bu mavzu dramaturgiyada hanuz o'z ifodasini topmagan edi. O'zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzoning bu mavzuga murojaat etishi nafaqat milliy dramaturgiyamiz, balki milliy madaniyatimiz va san'atimiz tarixida g'oyat ahamiyatli hodisa bo'ldi, desak, adashmagan bo'lamiz. Bu dramatik asarning yaratilishini davr ehtiyoji, madaniy hayot talabi, aytish mumkinki, tashnalik bilan uzoq kutilgan adabiy hodisa deb e'tirof etish mumkin. Dramaturg yigit yoshidagi Navoiyni, avvalo, ichki dunyosi go'zallikka boy, hayotni sevgan, kamolotga intilgan shaxs sifatida tasavvur etadi. Bunday inson esa dunyoviy muhabbatdan bebahra qola olmaydi. Hazrat Navoiyning shaxsiy sevgi fojiasi qariyb olti asrki, uning muxlislarini qiziqtirib keladi. Albatta, ulug' shoir Samarqandda kimnidir sevgan, degan fikr tarixiy ma'lumot emas. Ammo dramaturg konfliktni kuchaytirish, obraz xarakterini mukammal talqin qilish maqsadida badiiy to'qima yaratadi. Bu badiiy to'qima asarga yorug' bir ruh olib kirib, o'quvchi va tomoshabin zavq-shavqini, qiziqishini oshirishga xizmat qilgan.

Asardagi ayrim ko'rinishlarda talqin etilishicha, shoirning Samarqand adabiy muhiti bilan munosabati sovuqroq kechgan. Ana shu sovuqlik kayfiyati bo'rttirilgan sahnalarda ifoda etilgan. Bu holatga adabiyotshunos D.Salohiy quyidagicha munosabat bildiradi: "Aslida bunday emas. Axir, Navoiy bejizga umr bo'yi Samarqandni eslab o'tli misralar bilan ta'riflamagan:

Samarqand sayqali ro'yi zamindur,
U ko'ngul qibla'si, dilga yaqindur.

"Majolis un-nafois"da guvohlik berishicha, Hazratning bu davrlarda nufuzi juda baland va hayotining xush-xandon o'tgan daqiqalari ko'p bo'lgan. Shu ma'noda, dramaga xushchaqchaq kayfiyat tug'diruvchi ommaviy biror epizod yoki bozor sahnasimi kiritilishi kerak edi"[2]. Olima Samarqandda Alisher Navoiyning yirik diniy rahnamo, keyinchalik, shoirning naqshbandiya ta'limotining yetuk olimlardan biri bo'lib yetishishida muhim rol o'ynagan donishmand alloma Xoja Ahrori Vali (r.a.) bilan uchrashganini ta'kidlab, asarda shu voqeaga biror ishora berilganida, tarixiy haqiqat kamchiliksiz aks etishi mumkinligini qayd etadi.

Markazida Hazrat Navoiy timsoli turgan dramatik asarlardan yana biri Xuroson davlati va buyuk temuriylar saltanati tarixining yetuk bilimdoni, O'zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Ali qalamiga mansub "Navoiy va Boyqaro" she'riy dramasi bo'ldi. Ushbu asarda temuriylar saltanatining umidi, kelajagi sanalgan oqil shahzoda Mo'min Mirzoning saroy fitnalari oqibatida qatl etilishi tasvirlanadi. Bu fojia butun umidini Mo'min Mirzoga bog'lagan Navoiyni qattiq larzaga soldi. Asarda shoirning Sulton Husayn bilan bolalik chog'laridan boshlangan do'stligi, bu do'stlikka sadoqatni toat-ibodat maqomida deb bilgan shoirning shohga munosabati qanday kechishi, Badiuzzamon bilan nevarasining o'limida aybsiz aybdor bo'lib qolgan qiblagoh va farzand o'rtasidagi munosabatlar keskin dramatik holatlar orqali ochib berilgan. Mana shunday ziddiyatli voqealar asnosida dramaturg buyuk do'stlik taqdiri hal bo'layotgan jarayonlarda Hazrat Navoiyning ulug'vor siymosi, do'stlik qudratini yangicha talqinda gavdalantira olgan. Asarning she'riy yo'lda yaratilganligi ham uning badiiy qimmatini oshirishga xizmat qilgan, deb bemalol aytish mumkin.

[1] Salohiy D. Allomaning Samarqandga yangi tashrifi. – Toshkent: "Teatr" jurnali, 2017. 1-son. 6-bet.
[2] O'sha manba, 8-bet.

Xurshida NISHONOVA,
Namangan shahridagi 43-maktabning
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

O'ZBEK TILIDA MA'NO KO'CHISH HODISASI

Jamiyatning taraqqiy etishi til taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Har bir yangi tushuncha shu tushunchalarni ifodalovchi til birliklarining paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. So'z yangi yaratilgan, yangi o'zlashtirilgan davrida o'zining yagona ma'no kategoriyasiga egalik qiladi. Keyinchalik, uning ko'p ma'nolilik xususiyati shakllanadi (terminlar bu ta'rifdan mustasno). Ana shu xususiyatiga ko'ra ko'p ma'nolilik, ya'ni polisemiyani keltirib chiqaruvchi sabab va asoslarni o'rganish va ularga tayangan holda so'zning ma'no taraqqiyotini belgilash mumkin.

Hozirgi o'zbek adabiy tili semasiologiyasiga doir tadqiqotlarda so'zlarda ma'no ko'chishi va ularga oid qator ishlar amalga oshirilganiga qaramay, bu mavzu bugungi tilshunosligimizning dolzarb muammolaridan biri sanaladi.

O'zbek tilshunosligida so'zlarda ma'no ko'chish usullari turlicha tasniflanadi. Jumladan, so'zning ko'p ma'noliligini uning asosiy ma'nosidan kelib chiqishini o'rgangan Otaqo'zi Azizov shunday yozadi: "Predmet belgilarining, xususiyatlarining o'xshashligi, bir-biriga to'g'ri kelishi, bir predmet nomining ikkinchi predmet yoki hodisaga ko'chirilishi natijasida so'zning ko'chma ma'nolari hosil bo'ladi". Olim so'zning ko'chma ma'nolari hosil bo'lish usullarining ikki turini belgilagan: metafora va metonimiya. Sinekdoxa metonimiyaning bir ko'rinishi sifatida e'tirof etilib, vazifadoshlik hodisasining o'ziga xosligi ta'kidlanadi, ammo vazifadoshlik ma'no ko'chish usulining alohida turi sifatida ham, metaforaning tarkibida ham ko'rsatilmaydi.[1]

O'zbek tilidagi ba'zi darslik va qo'llanmalarda ma'no ko'chish usullarining besh turi farqlanadi: metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, kinoya.[2] Yana ayrim darslik va o'quv qo'llanmalarda bu tasnif metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoishlik usullarini o'z ichiga oladi.

Ma'no ko'chish usullarining metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, kinoya, tagma'no tarzida tasniflanishi ham kuzatiladi. Tilshunos M.Mirtojiyev ma'no ko'chish usullari sifatida metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik va tobelilik[3]ni sanab o'tadi.

O.Azizov ma'no ko'chish usullarini tavsiflar ekan, metonimiya (yunoncha qaytadan nomlash)ning bir qismi sifatida sinekdoxa (yunoncha birga aniqlamoq)ni kiritadi.

Metafora – narsa va hodisalar yoki ularning belgilari va xususiyatlari o'rtasidagi qisman o'xshashlik asosida bir narsa va hodisani ifodalash.

Metonimiya – bir predmet nomini boshqa nom bilan almashtirish usuli bo'lib, bunga ikki tushunchaning o'zaro bog'lanishi asos bo'ladi.

Sinekdoxa – shaxs yoki predmet qismini aytish bilan butunni tushunish yoki aksincha.

Vazifadoshlik – narsa va hodisalar orasidagi funksional o'xshashlik asosida birining nomi ikkinchisiga ko'chiriladi.

Kinoya – so'zni teskari ma'noda qo'llash.

Tagma'no – butun boshli gapni, hatto kichik hajmli bir gapni yangi ko'chma ma'noda qo'llash.

Ko'rinib turibdiki, ko'chma ma'noni hosil qiluvchi metafora (o'xshashlik), metonimiya (qayta nomlash), sinekdoxa (birga anglash), vazifadoshlik (funksional o'xshashlik), tobelilik (hosila ma'noning bosh tobeligi), kinoya (aks ma'no), tagma'no (yangi ko'chma ma'noda qo'llash) kabi hodisalarning ajratilishi va tasniflanishi borasida turli xil qarashlar mavjud.

Yuqoridagi nazariy fikrlarga tayangan holda ma'no ko'chish usullarining quyidagi tasnifini keltirish mumkin:

1. Metafora o'xshashlik bo'lib, vazifadoshlikni metaforaning vazifa o'xshashligi sifatida qarash lozim, ya'ni:
– shakl o'xshashligi (og'iz – hovuzning og'zi);
– belgi o'xshashligi (yengil eshik – yengil ta'zim);
– harakat o'xshashligi (qush uchdi – xayol uchdi);
– vazifa o'xshashligi (tomir – daraxt ildizi; tomir – qo'l tomiri).

2. Metonimiya qayta nomlash hisoblanib, unda xususiyatlar o'rtasidagi aloqadorlikka asoslaniladi (xona kuldi – xona ichidagi odamlar kuldi).

3. Sinekdoxa – birga anglash, ya'ni qism orqali butun yoki butun orqali qismni ifodalash (Dunyoda o'zimizdan qoladigani shu tuyoq. A.Qodiriy).

Fikrimizcha, kinoya, tagma'noga ma'no ko'chish usullari sifatida qarash unchalik to'g'ri emas. Chunki bu usullar bilan ma'no hosil bo'lishida so'zning ma'nosi bosh ma'nodan o'sib chiqmaydi, balki u teskari ma'noda qo'llanadi. Yangi hosila ma'no yuzaga kelmaydi. Shu sabab bu hodisalarga ma'no ko'chishining usullari sifatida emas, polisemiyaga yondosh hodisa sifatida qarash to'g'riroq bo'ladi. Shuningdek, M.Mirtojiyev darsligida ko'rsatilgan tobelilik usulini ham tasnifga kiritmadik, sababi Mirtojiyev tomonidan tobelilik usuliga keltirilgan (oy, tip, qarich kabi) misollarning ko'pchiligi boshqa manbalarning deyarli barchasida metonimiya sifatida e'tirof etilgan.

---

[1]Azizov O. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent, 1960. 59–61-betlar.
[2]Mengliyev B., Xoliyorov U. O'zbek tilidan universal qo'llanma. – Toshkent: Fan, 2008. 67-bet.
[3]Sayfullayeva R., Mengliyev B. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.
[3]Sayfullayeva R., Mengliyev B. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.
[4]Mirtojiyev M. O'zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. 94–97-betlar.

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ ПРЕПОДАВАНИЕ | LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

Abdumannon HASANOV,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

TILSHUNOSLIKDA LAKUNA MUAMMOSI

Annotatsiya. *Maqolada lakuna tushunchasining tilshunoslikda shakllanishi, keng ommalashuvi hamda terminologik jihatdan konkretlashuvi haqida mulohazalar bildirilgan. Shuningdek, lakuna hodisasining unga yondosh hodisalardan farqlanishi haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *lakuna, realiya, muqobilsiz so'z, lakunarlik, ekvivalentlik, nomsiz tushuncha, konsept, leksik qiyoslash.*

Annotation. *The article discusses the formation of the concept of lacuna in linguistics, its widespread popularity and terminological concretization. It also suggests that the lacuna phenomenon differs from its adjacent phenomena.*

Key words: *lacuna, realia, non-alternative word, lacunar, equivalence, lexical gap, concept, lexical comparison.*

Аннотация. *В статье рассматриваются вопросы становления понятия лакуны в языкознании, его широкая популярность и терминологическая конкретизация. Также высказано предположение, что феномен лакуны отличается от смежных с ним явлений.*

Ключевые слова: *лакуна, реалия, безальтернативное слово, лакунарность, эквивалентность, безымянный концепт, концепт, лексическое сравнение.*

Tilshunoslikda so'nggi yillarda keng qo'llanilayotgan tushunchalardan biri lakunadir. Bugungi kunda bu tushuncha lingvomadaniyatshunoslik, tarjimashunoslik, madaniyatlararo muloqot nazariyasi, sotsiolingvistikaga oid tadqiqotlarda faol qo'llanilmoqda. Har bir sohada uning qo'llanilishida mushtarak jihatlar bo'lgani kabi farqli jihatlar ham mavjud. Bu farqli jihatlar tadqiqot sohasining talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda mualliflar tomonidan turlicha talqin qilinish orqali reallashmoqda.

Lakuna termini ilk bor kanadalik olimlar J.Vine va J.Drabelne tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Mazkur olimlar "Fransuz va ingliz tillarini qiyoslash uslubi" nomli kitobida lakunaga ikki til qiyosida aniqlanadigan lisoniy hodisa sifatida quyidagicha ta'rif bergan: "Bir tildagi so'zning boshqa tilda muqobili topilmagan o'rinlarda lakuna hodisasi voqelanadi"[1]. Ta'rifdan ham ko'rinib turibdiki, mazkur o'rinda olimlar lakunaning ikki til muqoyasasida aniqlanadigan, ikki madaniyatning konseptosferasida bir-biriga muqobil bo'lmagan tushunchalarni ifodalash uchun mazkur terminni qo'llagan. Lakuna termini keyingi davrdagi juz'iy semantik o'zgarishlarga uchrasa-da, asl terminologik xususiyatlarini saqlab qolishida ayni shu ta'rif birlamchi asos vazifasini o'tab kelmoqda.

Lakuna muammosi bilan jiddiy shug'ullangan olimlardan yana biri V.Gak lakunalarni "til leksik sathidagi bo'shliqlar, bor bo'lishi kerak bo'lgan so'zlarning mavjud emasligi", deb izohlaydi. Mazkur izohdan sezish mumkinki, olim lakunaning til ichida mavjudligini e'tirof etadi. Albatta, til leksikasidagi bo'shliqlarning mavjudligi tilshunoslik ilmida avvaldan ma'lum. Lakuna termini shakllanmasdan oldin ham F.Gumbolt, F.de Sossyur qarashlarida leksik tizimdagi "bo'sh katakchalar", leksik tizimdagi ba'zi paradigmalarda ikkinchi qutbning mavjud emasligi haqida jiddiy munozaralar yuritilgan. O'zbek adabiy tilining asoschisi Alisher Navoiy o'zining "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida ham turkiy va forsiy so'zlarni qiyoslash chog'ida muayyan tilda ayrim tushunchani ifodalovchi so'zning mavjud bo'lmasligini badiiy misollar tahlilida tushuntirib o'tgan.

Lakuna terminining keng qo'llanilishi va ommalashishi XX asrning 70-yillaridan boshlangan. Chunki ayni shu yillarda lingvomadaniyatshunoslik, tarjimashunoslik, lingvomamlakatshunoslik sohalarida tillarni qiyosiy o'rganish, ularning bog'liqligi va farqlanishlarini tadqiq etishga e'tibor ancha kuchaydi. Mazkur tadqiqotlarda lakuna tushunchasi oraliq, lakuna, zid so'zlar, oraliqlar, lakunalar yoki til xaritasidagi oq dog'lar, tarjima qilib bo'lmaydigan so'zlar, muqobilsiz, nol so'z, muqobilsiz yoki fonli leksika, tasodifiy lakunalar, tarjimasiz leksika kabi atamalar bilan nomlangan. Garchi turli manbalarda turlicha nomlangan bo'lsa-da, tilda mavjud semema (tushuncha)ning nomsiz bo'lishini ifodalovchi mazkur hodisa haqida tadqiqotchilarning qarashlari bir-biriga yaqin.

Lakuna tushunchasining keng o'rganilishi uning yondosh hodisalardan farqlanishini ta'minlagan. Dastlab, barcha muqobilsiz so'zlarni lakuna sifatida baholash avj olgan bo'lsa, keyingi yillarda lakuna terminining semantik qamrovi torayib, konkretlashdi (terminlashdi): uning tarkibidan semema sifatida qo'llanib kelingan ekvivalentsiz so'z, realiya kabi tushunchalar ajratildi. Mazkur jarayonda lakuna tushunchasining mohiyati aniq va oson tushuniladigan darajagacha konkretlashdi.

O'tgan asrning 80-yillarida lakuna, realiya va ekvivalentsiz so'zlar bilan o'rganilishi natijasida ikki til qiyosida aniqlanadigan lingvistik hodisalarni tavsiflash va

tushuntirishda muayyan qiyinchiliklar yuzaga keldi. Xususan, 1975-yilda yaratilgan V.Muraveyevning "Leksik lakunalar (fransuz va rus tili leksikasi misolida)" nomli ishida realiya hodisasi ham lakuna tushunchasi tarkibida qaraladi. Shu bois Muraveyev lakunani "muloqot jarayonida boshqa madaniyat vakili umuman tushunmaydigan yoki to'la tushuna olmaydigan, shu madaniyat vakili tilida o'z ifodasini topgan milliy-madaniy unsur"[2] sifatida izohlaydi.

1986-yilda e'lon qilingan S.Vlaxov, S.Florinning "Tarjimada tarjimasizlik" kitobida ham realiyalarga lakunaning tarkibiy qismi sifatida qaralgan. Mazkur kitobda lakuna "muayyan xalqning madaniy, tarixiy, ijtimoiy-maishiy hayoti uchun xarakterli va boshqa xalqlar uchun begona bo'lgan, o'sha xalq tilida aniq muqobili bo'lmagan so'z" sifatida tushuntiriladi[3]. Shu kabi holatni M.Vereshagin, V.G.Kostomarovning "Til va madaniyat: rus tilini xorijiy til sifatida o'rganishda lingvomamlakatshunoslik" nomli ishida ham uchratish mumkin. Unda qayd etilishicha, "Tildagi bo'shliqlarning eng yuqori nuqtasi, odatda, tushunchaning o'zi mavjud emasligi bilan bog'liq bo'lgan, u yoki bu tushunchani ifodalash uchun kerakli ekvivalentning umuman yo'qligidir".[4]

Keyingi tadqiqotlarda, xususan, I.Sterninning "Leksik lakuna va ekvivalentsizlik tushunchasi" nomli monografiyasida realiyalar va muqobilsiz so'zlarni lakunalardan farqlash lozimligi ta'kidlanadi. Lakunaning ko'proq tarjima jarayonida sezilishi va aniqlanishi uning ekvivalentsiz so'z va realiya bilan qorishtirilishiga sabab bo'ladi. Aslida I.Sterninga qadar bu ikki tushuncha umumlashtirilib, lakuna sifatida qaralgan. Aynan I.Sternin ishlaridan keyin bu lingvistik hodisalarni farqlash ancha ommalashdi. Ekvivalentlik (va unga yondosh ekvivalentsizlik) tushunchasi lakuna termini bilan bir vaqtda paydo bo'lgan (bu ikki tushuncha ham kanadalik olimlar J.Vine va J.Drabelne tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan). Shuningdek, bir muddat lakuna hodisasi ekvivalentsiz so'zlar tarkibida tadqiqqa tortilgan va birgalikda o'rganilgan. Mazkur davrda realiya termini qo'llanilmagan va bu hodisa ham ekvivalentsiz so'zlar tarkibida qaralgan. Garchi realiya termini o'tgan asrning 20-yillarida paydo bo'lgan bo'lsa-da, uni lakuna hodisasi bilan qorishtirish va ekvivalentsiz so'zlarni tavsiflashda munozarali fikrlar bildirilishi hozirgacha davom etib kelmoqda. Buning asosiy sababi realiyaning muayyan bir millat tili va madaniyatigagina xos unsur ekanligini turlicha talqin etish bilan bog'liq. "Realiyalar muayyan xalqning tarixiy taraqqiyoti va madaniyatini tashkil etuvchi insonlar, voqealar, institutlar, narsa-buyumlar"[5] sifatida baholansa-da, ularning qamrovi va chegaralari nisbiylashuvi natijasida talqinlarning turfa xil shakllanishi bu ta'riflarning bir-biridan farqlanishini yuzaga keltirmoqda.

Lakuna va realiyaning o'xshash jihatlari: ular ikki til va madaniyatni qiyoslashda seziladi, aniqlanadi; qiyoslovchi (subyekt) tilida ularga muqobil so'z mavjud emas. Lakunani realiyadan farqlovchi jihatlar: realiyada noodatiylik, notanishlik, g'ayritabiiylik va tushunarli emaslikning qavariq namoyon bo'lishi. Biroq ayrim tadqiqotchilar mazkur xususiyatlarni lakunaga ham tegishli deb hisoblaydi.[6] Ayni shu xildagi qarashlar ham lakuna va realiyaning qorishtirilishiga sabab bo'lmoqda.

Realiya va lakunaning eng muhim farqi – lakuna muayyan tilda ifodalanmagan va boshqa tilda ifodalangan tushuncha; uni boshqa til sohiblari osongina tushuna oladi, anglaydi. Realiyani esa tushunish va tasavvur qilish biroz mushkul. Chunki u muayyan millatning urf-odatlari, lisoniy idroki, dunyoqarashi mahsuli sifatida reallashadi. Shu bois u boshqa til (va madaniyat) sohibi uchun notabiiy va g'ayrioddiy tuyuladi.

Realiyani muayyan "xalqning turmush tarzi, madaniyati va urf odatlarini o'zida aks ettirgan, boshqa xalq va til uchun begona bo'lgan so'z"[7] sifatida tushunilishi va tavsiflanishi, bizningcha, eng maqbul yo'ldir. Realiyadan farqli ravishda lakuna har qanday millat vakili uchun anglanilishi va qo'llanilishi mumkin bo'lgan sememaning leksemasizligi tarzida tushunilishi bu boradagi izlanishlarda ilmiy mo'ljalning to'g'ri olinishini ta'minlaydi.

Til leksikasini qiyoslashda kuzatiladigan hodisalardan biri bo'lgan ekvivalentlik hodisasi qiyoslanayotgan tillardagi bir-biriga muqobil (vazifadosh, o'rindosh) so'zlarning mavjudligini tavsiflashga xizmat qiladi. O'z tabiatidan kelib chiqib ekvivalentlik lakuna va realiya hodisalariga zidlanadi. Mazkur hodisa turli tillardagi so'zlarni bir-biriga o'girish orqali oson tushunilishini ta'minlaydi.

Ayrim olimlar lakuna va ekvivalent birliklarni konseptlar muqoyasasi orqali izohlashga harakat qiladi. Fanda ilk bor konsept terminini qo'llagan S.A.Askoldov-Alekseyev unga quyidagi ta'rifni beradi: "Fikrlash jarayonida tushunchaning o'rnini bosadigan mavhum obyekt, harakatlar va shu turdagi fikriy amallar to'plami konseptdir"[8]. Bugungi kunda kognitiv tilshunoslikda asosiy terminlardan biri sifatida keng qo'llanayotgan mazkur tushunchaga "operativ xotira birligi, mental leksik baza, ong va konseptual sistema tili, bilim kvanti"[9] sifatida qaraladi.

Ikki til leksikasi qiyoslanar ekan, undagi aksar so'zlar ekvivalent bo'lsa-da, ular butunlay bir-biriga muqobil, mos bo'la olmaydi[10]. Buning asosiy sababi muayyan konsept turli millatlarda turli madaniy semalarga ega bo'ladi. Masalan, ajdar konsepti o'zbek tilida afsonaviy xayoliy ilon sifatida anglansa, Xitoy madaniyatida u totemistik semasi bilan ulug'vorlik va qudrat timsoli sifatida reallashadi. Bu kabi holatlar til egalari lisoniy idroki, dunyoqarashi, ruhoniy sajiyasi bilan bog'liq holda vujudga keladi. Bundan bilish mumkinki, ikki tilda ekvivalent bo'lgan birliklar muayyan semasiga ko'ra lakunarlik kasb etishi mumkin. Yuqoridagi misolda ajdar konseptining Xitoy madaniyatidagi diniy-totemistik semasi o'zbek tili uchun lakunar birlik sanaladi. Yana bir misol: Yangi yil bayrami yangi yilning boshlanishi bilan nishonlanadigan an'ana sifatida ko'pgina xalqlar madaniyatida mavjud. Biroq xalqlarning turli taqvimlardan foydalanishi sabab ularning nishonlanish vaqti bir-biriga nisbatan jiddiy farqlanishi kuzatiladi. Garchi

ularning mohiyati, mazmuni bir xil bo‘lsa-da, muayyan milliy-madaniy xususiyatlarga ko‘ra bir-biridan jiddiy farqlanadi.

Leksik birliklar mavjudligi xalq ongida muayyan konseptning mavjudligini ko‘rsatadi. Ammo konseptning mavjudligi uchun lingvistik birlikning mavjud bo‘lishi shart emas[11]. O‘zbek xalqi konseptosferasida ulug‘ kishilarning gapini qaytarmaslik (gapini ikki qilmaslik, e’tiroz bildirmaslik) konsepti mavjud. Biroq uni nomlovchi leksema yo‘q (shu bois uni izoh yoki so‘z birikmasi bilan tushuntirishga to‘g‘ri keladi). Mazkur holat tilda konseptga mos leksemaning doimo mavjud bo‘lavermasligini ko‘rsatadi. Ikki til muqoyasasida konseptning farqlanishi semantik va bo‘laklab tahlil qilishda yanada yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan, rus tilida olma mevasi va daraxtini nomlovchi ikkita leksema (яблоко, яблоня) mavjud bo‘lsa, o‘zbek tilida bu ikki semema bitta leksema bilan ifodalanadi.

Tilshunoslikda lakunani unga yondosh hodisalardan farqlash va tavsiflash bugungi kunda uzil-kesil yakun topgan. Xususan, ingliz va rus tilshunosligida bu borada alohida tadqiqot maktablari yuzaga kelgan. Bu ilmiy maktablarda lakunani ikki til muqoyasasida o‘rganilishi yetakchilik qilsa-da, lakuna hodisasining til ichida ham mavjud bo‘lishi, bu hodisaning til taraqqiyotidagi rivojlantiruvchi omillardan biri ekanligiga so‘nggi paytlarda alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu boradagi muhim tadqiqotlardan biri rus olimasi G.Bikovaning “Lakunarlik leksik sistemologiyaning kategoriyasi sifatida” nomli ishidir. Unda olima lakunaning turlari, aniqlanish usullari, yuzaga kelish sabablari, baratarf etish yo‘llarini rus tili materiallari asosida keng aspektda tadqiq etgan.

Bikovaning qayd etishicha, lakuna – “muayyan tovush qobig‘iga ega bo‘lmagan va hozirda bir necha so‘z bilan ifodalanayotgan, ertami-kechmi leksik reallashish uchun “tramplinda turgan”, yangi so‘z sifatida obyektlashadigan tushuncha”[12]. Mazkur talqinda lakunaning til qiyosidagina emas, balki bir til ichida ham kuzatilishi qayd etiladi. Olimaning e’tiroficha, har qanday nomsiz tushuncha lakuna emas, balki leksik reallashish arafasida turgan semema lakunadir. Muloqot jarayonida ko‘p murojaat etiluvchi konseptga leksik reallashtirish ehtiyoji seziladi (agar u nomlanmagan bo‘lsa). Zero, lisoniy-nutqiy ehtiyoj til birliklarining shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Ayrim hollarda norelevant (zarur darajada ahamiyatli bo‘lmagan) tushunchalar nomlari nutqda faol qo‘llanmasligi oqibatida nofaol qatlamga o‘tib qolishi mazkur qarashning o‘rinli ekanligini ko‘rsatadi.

Leksik lakunaning yana bir muhim xususiyati uning konsept (semema) sifatida til egalari ongida mavjudligidir. Mazkur tushuncha o‘z ifodachisiga ega bo‘lmagan vaqtda so‘z birikmalari (yoki izoh va tushuntirishlar) bilan ifodalanadi. Bu kabi ifodalashlar nutq jarayoni uchungina amal qiladi va u nutq jarayoni yakunlangach, parchalanib ketadi va leksik birlik maqomini saqlay olmaydi.

Bugungi kunda lakunani o‘rganish faqat ikki tildagi farqli jihatlarni aniqlashdangina iborat emas. Til leksikasining tizimli to‘ldirilishi, boyitilishi uchun ham mazkur lingvistik hodisani chuqurroq tadqiq etish lozim. Tadqiqotchilar o‘zga tilni o‘z tillari bilan qiyoslab, leksik sathdagi bo‘shliqlarni aniqlash va ularni bartaraf etishga intilar ekan, tafakkur va tasavvur bilan bog‘liq, ongda shakllanadigan yangi tushunchalarning paydo bo‘lishi va ularning nomlanish jarayonlarini atroflicha tadqiq etishga harakat qilmoqda. Kuzatilgan va to‘plangan natijalar asosida til leksikasini boyitish bilan birga yangi so‘zlarning paydo bo‘lish va ommalashish jarayonlarini baholash imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. O‘zbek tilshunosligida ham bu boradagi ishlarni jonlantirish, milliy til tarkibidagi lahja va dialektlarni adabiy til bilan qiyoslash asosida adabiy til leksikasidagi lakunalarni aniqlash va to‘ldirish til taraqqiyoti va sofligini ta’minlashga xizmat qilishi shubhasiz.

---

[1]Vinay J., Darbelnet J. Stylistique comparee du fraicais et de l’anglais. – Paris, 1958. p.10.
[2]Муравьев В.Л. Лексические лакуны (на материале лексики французского и русского языков). – Владимир, 1975. – С. 24.
[3]Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. – Москва: Высш. шк., 1986. – С. 416.
[4]Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Лингвистическая проблематика страноведения в преподавании русского языка иностранцам. – Москва: Изд-во МГУ, 1971. – С. 43.
[5]Handschin Cf.H. Methods of Teaching Modern Languages. – New York: World Book Company, 1924. p.209.
[6]Musayeva F. Lakuna hodisasi va uni bartaraf etishda sheva leksikasining ahamiyati // O‘zbek tili va adabiyoti, 2020. 3-son, 97-bet.
[7]Kasimova Z. Dunyo tilshunosligida realiyalar tasnifi // “Til va adabiyot ta’limi” jurnali, 2020-yil 9-son, 39-bet.
[8]Аскольдов С.А. Концепт и слово // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста: антология. – Москва, 1997. – С. 260–267.
[9]Краткий словарь когнитивных терминов / Е.С.Кубрякова, В.З.Демьянков, Ю.Г.Панкрац, Л.Г.Лузина. – Москва, 1996. – С. 245.
[10]Xolmonova Z., Saidahmedova O., Nurillayeva O. Lingvokulturologiyaga oid tushunchalar tadqiqi /monografiya/ – Toshkent: Navro‘z, 2018. 76-bet.
[11]Голубева Н.А. Принципы выявления концептуальной лакунарности. Источник: https://cyberleninka.ru/article/n/printsipy-vyyavleniya-kontseptualnoy-lakunarnosti/viewer
[12]Быкова Г.В. Лакунарность как категория лексической системологии. – Благовещенск: Изд-во БГПУ, 2003. – С. 201–260.

Nazokat BOBOJONOVA,
Urganch davlat universiteti Pedagogika fakulteti o'qituvchisi

YOZMA ADABIYOTDAGI YUSUF ALAYHISSALOM QISSASI SUJETINING GENETIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Maqolada jahon xalqlari yozma adabiyotidagi Yusuf alayhissalom haqidagi qissa sujetining tarixiy asoslari bilan bog'liq adabiy-folkloriy manbalar tahlil qilingan. Qiyosiy-tarixiy metod asosida ushbu an'anaviy sujetning genezisi qadimgi Misr mifologiyasiga borib taqalishi asoslangan.*

Kalit so'zlar: *yozma adabiyot, folklor, adabiyotshunoslik, qissa, sujet, motiv, mif, afsona, rivoyat, doston, mifologik tasavvur, mifopoetik kontekst, obraz.*

Annotation. *The article describes the historical foundations of the plot of the history of Prophet Joseph in the written literature of the peoples of the world. Based on a comparative and historical method, the genesis of this traditional plot is based on ancient Egyptian mythology.*

Key words: *written literature, folklore, literary criticism, story, plot, motive, myth, legend, epic, mythological imagination, mythopoetic context, image.*

Аннотация. *В статье анализируются фольклорно-литературные источники, связанные с историческими основами сюжета об Иосифе Прекрасном в письменной литературе народов мира. На основе сравнительно-исторического метода доказано, что генезис данного традиционного сюжета связан с древнеегипетской мифологией.*

Ключевые слова: *письменная литература, фольклор, литературоведение, повесть, сюжет, мотив, миф, легенда, предание, эпос, мифологическое воззрение, мифопоэтический контекст, образ.*

Ma'lumki, yozma adabiyotda Yusuf alayhissalom qissasining sujeti asosida yaratilgan badiiy asarlarning yuzaga kelishi va takomillashib borishi uzoq tarixga ega. Jahon adabiyotshunosligida Yusuf qissasining tarixiy ildizlari va bu obrazning shakllanishiga asos bo'lgan qadimiy manbalar haqida turlicha fikr-mulohazalar bildirilgan. Biroq birlamchi manbani aniqlash masalasida hamma tomonidan e'tirof etilgan yaxlit fikrga kelinmagan. O'rta asr tatar mumtoz adabiyotining arab tilida bitilgan asarlardagi manbalarini o'rgangan A.M.Axunovning yozishicha, "Yusuf alayhissalomning qaysi millat va dinga mansubligi masalasida turli diniy konfessiyalarning vakillari o'rtasidagi tortishuvlar hamon to'xtaganicha yo'q. Yusuf musulmonmi, yahudiymi yoki nasroniymi? Munozaraga sabab bo'layotgan asosiy masala ana shunda. Shu o'rinda mazkur sujetning u yoki bu elementlari qay darajada turli madaniyatlardan o'zlashtirilgan va, umuman, bu mavzu o'zlashma sujetmi o'zi, degan savol tug'iladi. Bu xususda ilmiy adabiyotlarda turlicha qarashlar ilgari surilgan: nasroniy dinining agiografik manbalari tadqiqotchilari islom dini bu sujetni "Injil"dan o'zlashtirgan, deb hisoblaydilar; ateistlar "Qur'oni Karim"dagi Yusuf alayhissalom qissasi "Injil"dagi gulyuzli Iosif haqidagi rivoyatning talqini deb biladilar; islom ulamolarining fikricha esa "Zabur", "Injil" va "Qur'oni Karim" Alloh tomonidan tushirilgan muqaddas kitoblardir. Yusuf alayhissalom qissasining bu kitoblardagi talqinlarida mushtaraklik va o'xshashlikning sababi ham ana shunday". [1:19–20]

Shunday bo'lsa-da, jahon adabiyotshunosligida ushbu go'zal qissa sujetining kelib chiqishiga asos bo'lgan birlamchi manbalarni aniqlashga doir muayyan urinishlar bo'lgan. Jumladan, dunyo xalqlari adabiyotining qadimiy davrini mifologiya bilan bog'liqlikda tadqiq etgan taniqli adabiyotshunos olima O.M.Freydenbergning taxminicha, gulyuzli Iosif haqidagi "Injil" qissasining kelib chiqishi Osiris va Adonis haqidagi qadimiy Misr miflariga borib taqaladi. [2:137]

Taniqli turkman adabiyotshunosi M.Soyegov Yusuf to'g'risidagi yahudiy-nasroniy-islomiy sujetning ilk manbasini ko'hna hind buddaviylik manbalaridan izlash lozim, degan qarashni ilgari suradi. [3] Nazarimizda, mazkur afsonada ikki og'a-inining kichigi, ya'ni ukaning och qoplonga yemish bo'lishga rozi bo'lishi va bundan voqif bo'lgan otasining iztiroblari Yusufni bo'ri yedi degan xabarni eshitgan Ya'qub alayhissalomning qanchalar fig'on chekishiga o'xshab ketsa-da, aslida uyg'ur afsonasi sayyor sujet asosida yuzaga kelganligi ko'rinib turibdi.

Yusuf haqidagi qissa sujetining yuzaga kelishi tarixi va manbalari yuzasidan tadqiqot ishlari olib borgan tojik olimi S.K.Azorboyevning taxminicha, "Injil", "Qur'oni Karim"dagi Yusuf qissasi qahramoni obrazining kelib chiqishi miloddan burungi XVII–XVI asrlarda yashagan Misr donishmandi Imxotep (bu shaxs otining qadimiy shakli Imutes) to'g'risidagi rivoyatlarga bog'lanadi. Chunki qadimgi Misr papiruslari orqali yetib kelgan ma'lumotlarga qaraganda yetti yillik qurg'oqchilik Imxotep davrida ro'y bergan. Buning ustiga miloddan avvalgi XVII–XVI asrlarda hukmronlik qilgan Misr fir'avnlarining etnik kelib chiqishi semit tillarida so'zlashgan qadimgi yahudiy qavmlariga mansub bo'lgan. Olimning yozishicha, "Saxel orolidan topilgan papirusdagi yozuvga ko'ra esa fir'avn Josefga bo'lajak yetti yillik qurg'oqchilik haqidagi xabar tushida ayon bo'ladi, tushida xalq ochlikdan qanchalik azob chekayotganini ko'rgan fir'avn buyuk tabib va ulug' donishmand Imxotepdan maslahat so'raydi. U har bir shaharga yetarlicha g'alla jamlash-

ni maslahat beradi. Shunday qilib, Imxotep haqidagi og‘zaki hikoyalar davrlar o‘tishi bilan rivojlanib, rivoyatga aylangan, ulug‘ donishmand ismi esa rivoyatlarda Futifar, Potifor, Ibn Riyan va boshqa nomlar bilan atala boshlangan. Yusuf obrazi bilan bog‘liq qissaning tarixiy asoslari qadimgi Misrda yashagan semit tilli qavmlar hayotida ro‘y bergan real hayotiy voqealarga borib taqaladi. Yahudiylarning muqaddam kitobida esa bu qissa diniy ruhda talqin qilingan”. [4:76–84]

“Qissasi Rabg‘uziy”ning “Qissayi Yusuf alayhissalom” faslini tadqiq etgan H.O.Safarovaning fikricha, “Yusuf va Zulayho ishqiy sarguzashti g‘oyat qadimiydir va, dastlab, arab va yahudiylarning og‘zaki ijodiyotida paydo bo‘lgan. So‘ngra muqaddas diniy kitoblarga, jumladan, avval Qadimgi Ahd hisoblaguvchi Tavrot va Zaburga, keyin Yangi Ahd sanaluvchi Injilga o‘tgan. Nihoyat Qur’oni Karimda alohida sura shaklida bir qadar mufassal ifodasini topgan”. [5:17]

Ma’lumki, Yusuf payg‘ambar qissasining diniy manbalardagi ifodasi va yozma adabiyotdagi ijodiy talqinlarida akalarining g‘arazgo‘yligi natijasida quduqqa tashlanib, otasining diydoridan mosuvo bo‘lgan o‘g‘ilning g‘aroyib sarguzashtlarini tasvirlash orqali Yusufning sabr-matonati, sadoqati va halol-pokizaligi ulug‘lanadi. Binobarin, qissa kompozitsion qurilishidagi tugunning bevosita aka-ukalar munosabati bilan aloqadorligi esa ushbu sujetning kelib chiqish manbasini qadimgi Misr folkloriga bog‘lash imkonini beradi.

XIX asrning o‘rtalarida fransuz arxeologi d’Orbini tomonidan topilgan o‘n ikkita papirusga yozilgan iyeroglifli yozuv miloddan avvalgi 1200-yildan 1194-yilgacha hukmronlik qilgan Seti II, ya’ni Misrning yangi hukmdorlari XIX sulolasiga mansub xoqon davrida yozilganligi aniqlangan. Unda “Ikki aka-uka haqida qissa” deb nomlangan mif bayon etilgan bo‘lib, qadimgi misrliklarning arxaik folkloriga mansub ushbu asotir Gomerning mashhur “Odisseya”sidan ancha avval yaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Unda aytilishicha, “bir zamonlar yashab o‘tgan chol bilan kampirning ikki o‘g‘li bor bo‘lib, ularning kattasiga Anubis, kichigiga esa Bata deb ism qo‘yilgan ekan. Anubis uylangan bo‘lib, yer-suv, mol-mulki mo‘l ekan, Bata esa xuddi uning o‘g‘liday uydagi yumushlarni bajararkan. Bata akasi Anubis nima ish buyursa bajarar, mollarini boqar, yer haydab dehqonchilik qilar, hosil pishganda o‘rib-yig‘ib olar ekan. Anubis ham unga xuddi otasiday mehribonlik qilarkan. Bir kuni Anubis yerni haydab don ekish uchun Bataga ho‘kizlarni tayyorlashni buyuribdi. Yer haydab, g‘alla ekishayotganda bir payt olib kelingan urug‘lik bug‘doy yetmay qolibdi, shunda Anubis Batani don olib kelish uchun uyiga yuboribdi. Bata bir ko‘targanda besh qop bug‘doyni dast ko‘targanini ko‘rgan Anubisning xotini yigitning kuchiga qoyil qolib, xayoli buzilibdi. Darvoza oldida uni to‘xtatib, birga bo‘lishni taklif qilibdi. Agar Bata bu taklifga ko‘nsa, unga yaxshi kuylak tikib berishni va’da qilibdi. Bundan qattiq ranjigan Bata juda g‘azablanib, yangasining taklifini rad etibdi va bo‘lgan gapni akasiga aytmaslikka so‘z berib dalaga qaytibdi. Ammo Anubisning xotini bu gapga ishonmay, uyoq-buyog‘iga buyoq surtib, badanini timdalanganday qilib ko‘rsatibdi-da, eri kelgach Bata uni zo‘rlamoqchi bo‘lib kaltaklaganini aytib tuhmat qilibdi. Jahli chiqqan Anubis ukasini o‘ldirmoqchi bo‘libdi, ammo begunoh Bata xalos qilishni so‘rab Ra tangriga iltijo qilibdi. Ra uni o‘z himoyasiga olib, aka-ukaning o‘rtasida timsohlar suzib yurgan jo‘shqin daryo paydo qilibdi. Akasidan qutulgan Bata daraxtzor vodiyni o‘ziga makon qilibdi, xudolar uni husn bobida dunyodagi hamma ayollardan ham ziyoda bo‘lgan bir qizga uylantirishibdi. Bata akasi shu yerga ham izlab kelishi mumkinligidan xavfsirab o‘zining yuragini “ash” degan daraxt ichiga yashirib qo‘yibdi.

Kunlardan bir kuni Bataning xotini daryo sohilida sayr qilib yurganida uning bir tola tilla sochi daraxt shoxiga ilinib suvga tushibdi va oqib borib fir’avnning qo‘liga tushibdi. Fir’avn ana shu tilla soch egasi bo‘lgan qizni izlab topibdi, qanday qilib bo‘lsa-da uning ko‘nglini ovlab uylanish uchun qizga turli sovg‘a-salomlar beribdi. Bundan erib ketgan ayol fir’avnga cho‘ri bo‘lishni istab qolibdi va eri Bataning yuragi yashiringan daraxtni ko‘rsatibdi. Fir’avnning odamlari qiz ko‘rsatgan daraxtni chopishganda Bata o‘lib qolibdi. Ammo xudolar uni yana chaqaloq ko‘rinishida qayta tiriltiribdilar. Fir’avn uni o‘z o‘g‘liday ko‘rib parvarishlabdi. Oradan ma’lum vaqt o‘tgach o‘z eriga xiyonat qilib, uning o‘limiga sababkor bo‘lgan ayol jazosini olibdi. [6:77–78]

Mazkur mif sujetining Anubisning xotini Bataga oshiq bo‘lib qolishi va sevgisi rad etilgach, yigitga tuhmat qilishi, Anubisning o‘z ukasini o‘ldirmoqchi bo‘lishi, xudo Ra tomonidan aka-uka o‘rtasida daryo paydo qilishi, Bataning akasidan olisdagi diyorga ketib g‘oyib bo‘lishi, fir’avnning dushmanligi kabi motivlari Yusuf qissasi kompozitsion qurilishidagi Ya’qub payg‘ambar o‘g‘illarining Yusufni o‘ldirmoqchi bo‘lishlari, Yusufning quduqqa (suv detali orqali daryo tushunchasiga aloqador) tashlanishi, Yusufning Misrga qul qilib sotilishi (akalaridan uzoqlashishi), Zulayhoning o‘z quli (qadimgi Misr asotirida erining ukasi, aslida xizmatkor-qul) Yusufga oshiq bo‘lishi, ayolning Yusufga tuhmat qilishi kabi motivlarga o‘xshab ketadi. Bu esa diniy manbalar orqali yozma adabiyotga transformatsiyalanib ketishi natijasida betakror badiiy qadriyatlarning yaratilishiga asos bo‘lgan Yusuf qissasi sujetining tarixiy ildizlari miloddan burungi XIII–XII asrlarga mansub qadimgi Misr mifologiyasiga borib taqalishini ko‘rsatadi.

Anubis bilan Bataning sarguzashtiga bag‘ishlangan qadimgi Misr asotirining sujeti, keyinchalik, madaniy aloqalar natijasida avval Old va Yaqin Osiyoga, keyinroq esa Markaziy Osiyo va Yevropaning boshqa hududlariga ham keng tarqalgan.

Qiyosiy materiallarning barchasi gulyuzli Iosif haqidagi qissaning yaratilishiga birlamchi manba bo‘lgan mifopoetik kontekst qadimgi Misrda yaratilib, keyinchalik, ko‘pgina mushtarak motivli folklor asarlarining yaratilishiga asos bo‘lgan “sayyor sujet” ekanligini ko‘rsatadi.

“Ikki aka-uka haqida qissa” sujeti kompozitsion qurilishi jihatidan tahlil qilinsa, unda jahon, shu jumladan, o‘zbek folklorida ham ko‘p uchraydigan mifologik xarakterdagi motivlar mavjudligini ko‘ramiz. Masalan, o‘zining shahvoniy orzusiga yetolmagan Anubisning xotini Bataga tuhmat qilishi “Injil”dagi Iosifga Pantefriyaning xotini tuhmat qilishiga hamohangdir. Bu motiv

"Erali bilan Sherali", "Shirin bilan Shakar" nomli o'zbek xalq romantik dostonlarida ham uchraydi. Anubisning o'z ukasi Batani o'ldirish niyatida quvlashi epik qahramonning ta'qib qilinishi motivining qadimiy tiplaridan biri bo'lishi mumkin. Akasi qachonlardir uni topib kelishidan qo'rqqan Bata o'z yuragini daraxt tanasi ichiga yashirib qo'yishi jonning tanadan tashqarida mavjud bo'lishi to'g'risidagi animistik miflar ta'sirida kelib chiqqan. Bu inonch-e'tiqodning o'zbek xalq ijodidagi eng yorqin misoli devlar jonining quti ichidagi kaptar, tosh orasidagi qurtda bo'lishi, "Qilichqora" ertagida kenja ukaning joni qilichida bo'lishi kabi motivlar hisoblanadi. Oltin sochli parining bir tola sochi daryoda oqib ketishi natijasida qahramonning boshiga mushkul ish tushishi lavhasi o'zbek xalq ertaklariga ham xos bo'lgan sujet elementlaridan biridir. Bataning xudolar yordamida chaqaloq ko'rinishida qayta dunyoga kelishi o'lib-qayta tiriluvchi ma'budlar to'g'risidagi qadimgi miflarga bog'liq motivdir. Shu nuqtayi nazardan, O.M.Freydenbergning Iosif obrazining genezisini qadimgi Misr mifologiyasidagi Osiris bilan bog'lashi [2:138] o'zini oqlaydi.

Bataning yuragi (ya'ni joni) "ash" deb ataladigan daraxt tanasining ichida yashirib qo'yilgani kabi qadimgi Misr miflarida Osirisning qabri ustida uni qo'riqlab turuvchi muqaddas daraxt o'sib turadi, deb bayon qilingan. [7:33] Har ikki personaj ham daraxt hamda o'lib-tiriluvchi tabiat kulti bilan bog'liqligi ularning o'zaro bog'liqligini, ya'ni "Ikki aka-uka haqidagi qissa"dagi Bata obrazi o'lib qayta tiruvchi tabiat kultining timsoli sifatida tasavvur qilingan Osirisning mifopoetik transformatsiyasi ekanligini ko'rsatadi. Qadimgi miflarda Osiris boshoqli ekinlar, dov-daraxtlar va o'simliklar ruhi sifatida tasavvur qilinganligini ingliz etnografi J.Frezer ham qayd qilgan. [8:169–197] Ana shu tarixiy-vorisiy aloqadorlikka ko'ra gulyuzli Iosif (Yusuf) obrazining genetik asoslari qadimgi Misr folklorida saqlanib qolgan Bata sujeti orqali Osiris to'g'risidagi miflarga borib taqaladi.

Demak, "Yusuf va Zulayho" sujetining eng qadimgi shakli deb qaralayotgan "Ikki aka-uka haqida qissa" asotirining mazmuni "sayyor sujet"ga aylanib, turli variantlar holida birmuncha rivojlangan holda muqaddas diniy kitoblarga ko'chgan.

Miloddan burungi XIII–XII asrlarda shakllanib, yozuvga olingan aka-uka haqidagi asotir aslida bir necha vaqt xalq orasida bevosita jonli og'zaki ijro orqali ommalashib kelgan. Keyinchalik, Seti II sulolasi davri voqea-hodisalarini papirusga muhrlayotgan paytda kotib Ennana o'zi eshitgan ushbu mif mazmunini ham hikoya qilib ketgan ko'rinadi. Ana shu asotirning xalq orasidagi og'zaki namunalari ta'sirida Iosif (Yusuf) haqidagi epik sujetning ilk namunalari dastlab diniy rivoyat tarzida "Qadimgi Ahd" va "Yangi Ahd"dan o'rin olgan. "Qadimgi Ahd" nomi bilan mashhur bo'lgan muqaddas bitiklar "Tavrot" va "Zabur", "Yangi Ahd" esa "Injil" deb nomlangan. Ularda gulyuzli Iosif haqidagi qissaning diniy afsona shaklidagi talqini o'z aksini topgan.

Yusuf qissasi "Qur'oni Karim"ning 12-surasi, ya'ni "Yusuf" surasida keltirilgan. Qissa sujetining arab, fors-tojik va turkiy xalqlar folklori hamda yozma adabiyotida keng tarqalishida mazkur sura tafsirlari hamda payg'ambarlar qissalarining turli talqinlari, jumladan, Nosiruddin Burhonuddin Rabg'uziyning "Qissasul anbiyo" asari asosiy manba vazifasini o'tagan. Yusuf va Zulayho to'g'risidagi ishqiy-romantik dostonlarning yuzaga kelishida Abu Ja'far Muhammad ibn Jarir ibn Yazid ibn Kasir ibn Talib at-Tabariyning (839–923-yillar) "Ta'rix ar-rusul va-l-muluk", ya'ni "Payg'ambarlar va podsholar" tarixi asari (bu asar somoniylar davrida arab tilidan fors-tojik tiliga tarjima qilingan)dagi Yusuf qissasi talqiniga bag'ishlangan fasllar ham muhim rol o'ynagan. Xususan, o'rta asrlar turkiy yozma adabiyotining yirik namoyandasi Qul Alining "Qissai Yusuf" dostonining yaratilishiga Tabariy "Ta'rix"i asos bo'lganligi ma'lum.

Bizningcha, Yusuf mavzusining o'zbek xalqi orasida keng yoyilishiga sabab bo'lgan eng muhim manbalardan biri atoqli tilshunos olim A.K.Borovkov tomonidan XII–XIII asrlarga mansubligi aniqlangan va fanda "O'rta Osiyo tafsiri" [9] nomini olgan asardir. Qarshidan topilgan bu tafsirning muallifi noaniq bo'lsa-da, lekin uning leksikasida o'sha davr tiliga xos lug'aviy qatlam yaqqol ko'zga tashlanishi ushbu asarning mamlakatimizda yaratilganligidan dalolat beradi. "Qur'oni Karim"ning barcha suralari, jumladan, "Yusuf" surasi ham o'ziga xos tarzda sharhlangan ushbu tafsir bir necha asrlar davomida madrasa-yu maktablarda, shuningdek, xalqning o'qimishli qatlami orasida keng shuhrat qozongan.

Genetik asoslariga ko'ra, Yusuf alayhissalom haqidagi an'anaviy qissa sujetining kelib chiqishi va tarixiy-tadrijiy rivoji "mifologik fabulat"→"diniy rivoyat"→"badiiy kontekst" bosqichlarini o'z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ахунов А.М. Арабский источник средневековой тюрко-татарской литературы: на материале трудов ат-Табари. – Казань: Изд-во ТГГИ, 2001.
2. Фрейденберг О.М. Миф об Иосифе Прекрасном // Язык и литература. Т. 8. – Москва, 1932.
3. Соегов М. Иудейско-христианско-исламский сюжет об Иосифе и буддийская легенда о принце и голодной тигрице (по материалам их переводов, языка и искусства) // Jazyk a kultúra. – Прага, 2013. – číslo 15 (wwwff.unipo.sk›jak/15_2013/soegov.pdf
4. Азорабеков С.К. Сказание о Юсуфе и его отражение в персидско-таджикской прозе X–XI веков: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2005.
5. Safarova H. Rabg'uziyning "Qissasi Yusuf Siddiq alayhis-salom" asari manbalari: Filol. fanlari nomz. diss. – Samarqand, 2001.
6. Сказка о двух братьях // Бадж Э.У. Египетские сказки, повести и легенды. – Москва, 2009. – С. 77–78.
7. Викентьев В.М. Древнеегипетская повесть о двух братьях. – Москва, 1917.
8. Фрэзер Ж. Золотая ветвь. – Москва: Политиздат, 1989.
9. Боровков А.К. Лексика среднеазиатского тефсира XII–XIII вв. – Москва: Наука, 1963.

Ozoda TURSUNOVA,
Buxoro davlat tibbiyot instituti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

"PARONIMLARNING IZOHLI LUG'ATI"NI TUZISH XUSUSIDA

Annotatsiya. *Maqolada maktab o'quvchilari uchun paronim so'zlarning izohli lug'atini tuzish tamoyillari haqida mulohaza yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *ona tili ta'limi, mustaqil fikrlash, o'quv lug'atlariga zarurat, paronimlar lug'atini tuzish tamoyillari.*

Annotation. *This article considers the principles of drawing up the explanatory dictionary of paronymic words for school students.*

Key words: *native language education, independent thinking, need for dictionaries, the principles of drawing up the dictionary of paronymic words.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются принципы составления толкового словаря паронимических слов для школьников.*

Ключевые слова: *обучение родного языка, независимое мышление, потребность в словарях, принципы составление словаря паронимических слов.*

O'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishning asosiy omillaridan biri dars jarayonida ham, darsdan tashqari mustaqil ta'lim jarayonida ham ta'lim oluvchilarni o'quv lug'atlaridan foydalanishga o'rgatishdir. Zero, birgina ona tili ta'limi jarayonida o'quvchi foydalanishi uchun kamida o'ttizdan ortiq o'quv lug'atiga ehtiyoj borligiga qaramay bizda o'quv lug'atlarining sanoqli turlari mavjud. Afsuski, o'rta umumta'lim maktablarida ulardan ham yetarlicha foydalanilmaydi. Agar dunyoning rivojlangan mamlakatlari, jumladan, ingliz, nemis, fransuz kabi tillar bo'yicha o'quvchilarning ona tili darslarida foydalanishlari uchun 20–30 turdan ortiq o'quv lug'atlari mavjudligi hisobga olinsa, bizda o'quv lug'atchiligiga jiddiy e'tibor qaratilishi zarurligini sezamiz.

O'rta umumta'lim maktablarida ona tili ta'limining asosiy maqsadini chuqur anglagan mutaxassislar tomonidan qator o'quv lug'atlari yaratilgan. O.Shukurov va B.Boymatovaning "O'zbek tilining ma'nodosh so'zlar o'quv lug'ati", Y.Hamrayevaning "O'zbek tilining o'zlashma so'zlar o'quv lug'ati", U.To'rayeva va D.Shodmonovaning "O'zbek tilining zid ma'noli so'zlar o'quv lug'ati", B.Mengliyev va B.Bahriddinovaning "O'zbek tilining so'z tarkibi o'quv lug'ati", X.Suvonova va G.Turdiyevaning "O'zbek tilining shakldosh so'zlar o'quv lug'ati", T.Nafasov va V.Nafasovaning "O'zbek tilining o'quv toponimik lug'ati", "O'zbek tilining talaffuzdosh so'zlar o'quv lug'ati", X.Norxo'jayevaning "O'zbek tilining eskirgan so'zlar o'quv lug'ati", B.Mengliyev, B.Bahriddinova, O'.Xoliyorov, M.Zaripova va M.Xushvaqtovning "O'zbek tilining so'z yasalishi o'quv lug'ati" kabilar shular jumlasidan. Hozirda mazkur lug'atlarning takomillashtirilishi va respublika miqyosida ommaviy ravishda chop etilishi, shuningdek, maktab o'quvchilarining qo'llariga yetkazilishi kutilmoqda.

Shuningdek, maktab o'quvchilari uchun "Paronimlarning izohli lug'ati"ni tuzish va ommalashtirish masalasi ham yuqorida ta'kidlangan "o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilish" ehtiyojidan kelib chiqadi.

Maktab o'quvchilar nutqida oqlik va oqliq, borlik va borliq, burch va burj, alpoz va alfoz yoki darz va dars, amr va amir, ahl va ahil, bob va bop, tib va tip, tub va tup kabi birliklar ba'zan farqlanmasligini bilamiz. O'quvchilarga ana shu kabi paronimik juftliklarning izohli lug'atini yangicha tamoyilda berish bolaning til sezgirligini oshirib, muayyan so'z xususida to'liq ma'lumot olish imkonini beradi.

Paronim so'zlarni sistemali tahlil asosida o'rganish tilning lug'at tarkibi semantik maydonlardan tashkil topgan butun bir tizim ekanligini ochib ko'rsatish va o'quvchi tafakkurini o'stirishda yordam beradi. Shunga asoslanadigan bo'lsak, maktab o'quvchilari uchun mo'ljallangan paronim so'zlarning izohli lug'atini tuzishda quyidagi tamoyillarga tayanib ish ko'rish lozim bo'ladi:

– nazariya va amaliyot uyg'unligi tamoyili. Paronimlarning izohli lug'atida berilayotgan materiallar o'zbek tilshunosligida erishilgan yutuqlarga har tomonlama mos kelishi, xususan, paronimiya nazariyasining amaliyotdagi ko'rinishi bo'lmog'i zarur;

– alifbo tartibida ifodalash tamoyili. Lug'atda tushunchalar me'yoriy ko'rinishda, mazmuniy maydonlar doirasida emas, alifbo tartibi bo'yicha berilishi lozim. Bu usul o'quvchilarni tayyor materialdan foydalanish, shuningdek, mustaqil izlanish, fikr yuritish, izoh va xulosalar chiqarishga o'rgatishda qo'l keladi. Shu yo'l bilan bugungi kun kishisida yangi turdagi lug'atdan, shuningdek, Internet materiallaridan foydalanish malakasini shakllantirish mumkin;

– ilmiylik tamoyili. Yaratilajak paronimlarning izohli lug'atida keyingi 15–20 yil ichida o'zbek tilshunosligida keng rivojlanayotgan tizimlilik yo'nalishi o'z aksini topishi zarur;

– ta'limiylik tamoyili. Paronimlarning izohli lug'ati ona tilidan amaldagi o'quv dasturi hamda DTS talablarini nazarda tutgan, shuningdek, ta'lim oluvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda o'quvchilar o'rganishi uchun tuziladi;

– **izohsiz izoh chiqarish tamoyili**. Paronimik izohli lug'atda berilayotgan leksemalar sodda va tushunarli bo'lishi talab etiladi. Masalan, lug'atdan foydalanuvchi **adl** leksemasida "*adolat*", "*to'g'rilik*", "*odillik*" semalari borligini oson anglab yetishi zarur. Ushbu *kuch*, *qudrat, peshvo, tarafdor* kabi leksemalar bilan ma'noviy birikishi natijasida alohida ijobiy tushuncha maydonini hosil qilishi (*adl kuchi*, *adl qudrati, adl peshvolari, adl tarafdorlari*), ikkinchi tomondan "*haqsizlik*" semasi bilan *jaholat, johillik, adolatsizlik, bedodlik* ko'rinishidagi leksemalar bilan zid ma'noli semantik qatorni hosil qilishini anglab yetishi va shuning yordamida izohsiz izoh chiqara olishi kerak;

– umumiylik-xususiylik tamoyili. Lug'at tuzishda umumiylik-xususiylik dialektikasiga tayanib ish ko'rish muhim. Mazkur usulda leksemalar orasidagi ma'nodoshlik, uyadoshlik, tur-jins, butun-bo'lak, darajalanish kabi munosabatlar aniqlanadi, bu ifodalanayotgan mohiyatning serqirraligini yoritib berishda yordam beradi;

– izchillik tamoyili. Paronimlarning izohli lug'atida tushuncha maydonlari ichida keltirilayotgan leksemalar bir-biriga aralashib ketmasligi, aniq bir reja ostida birikishi zarur.

Keltirilgan talablarga rioya qilingan taqdirdagina o'zbek tilida paronimlarning izohli lug'atini tuzishning nazariy hamda amaliy masalalarini to'g'ri hal qilish mumkin. [2:8–21]

Tushuncha maydonidan foydalanib paronimlarning izohli lug'atini tuzishda paronimik munosabatdagi juftliklarning paradigmatik, sintagmatik va iyerarxik xususiyatlarini inobatga olish zarur. Chunki paronimlar ham bu borada rang-barang xususiyatlarga ega. Misol tariqasida ko'p ma'noli adil hamda adl paronimik juftligiga murojaat etamiz. Ushbu paronimik juftlikda talaffuziy o'xshashlik mavjud. Ko'p ma'noli adil va to'g'ri, egilmagan, bukilmagan, tik, to'ppa-to'g'ri kabi ma'nolarni anglatuvchi so'zlar ma'no jihatidan bir-biriga yaqin tursa-da, sintagmatik xususiyatlariga ko'ra o'zaro zidlanadi. Masalan, adil qomat, adil bosh, adil terak, adil novda deyish mumkin, ammo adil ko'cha, adil yo'l, adil ketmoq, adil bormoq birikmalaridagi ko'cha, yo'l, ketmoq, bormoq bilan aslo almashtirib bo'lmaydi. Paronimik lug'atda bu kabi masalalar, shubhasiz, o'z yechimini topadi. Shuningdek, bunday lug'atda imkon qadar (agar shunday xususiyatlar mavjud bo'lsa) partonimik, giper-giponimik, graduonimik singari munosabatlar ifodalanadi. Shu tariqa paronimlarning izohli lug'atida olam – ong – til dialektik munosabati [2:15] aks etadi.

O'zbek tilshunosligida paronimlar chegarasini belgilashda har xilliklar mavjud. Bu esa lug'at tuzish ishiga ancha "soya" soladi. Chunonchi, Sh.Shoabdurahmonov va boshqalar hammuallifligidagi "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kitobida "Paronimlar" mavzusida quyidagilar qayd etilgan: "Fonetik strukturasi boshqa-boshqa, talaffuzda o'xshash, yaqin bo'lib qoladigan so'zlar **paronimlar** deyiladi. So'zlarning o'zaro bunday munosabatda bo'lish hodisasi **paronimiya** deyiladi. *Fakt – pakt, afzal – abzal, amr – amir* va boshqalar. Demak, paronimiya adabiy normada talaffuz etmaslik, adabiy talaffuz normasini, shuningdek, so'zning fonetik strukturasini to'g'ri bilmaslik natijasida sodir bo'ladi.

Omonim, omofon, omograf va paronimlar haqida aytilganlardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, ularda ikki yoki undan ortiq so'zning o'zaro birlik hosil qilishi shakliy munosabatga, talaffuziga ko'radir. Bunda so'zlarning ma'no jihati hech qanday ahamiyatga ega emas". [7:51]

U.Tursunov va boshqalar hammuallifligida yozilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kitobining "Leksik paronimiya" mavzusida quyidagilar qayd etilgan: "Leksik paronimiya. Ikki leksemani o'zaro paronim deyish uchun ular: 1) yasama leksemalar bo'lishi; 2) ayni bir leksemadan yasalgan bo'lishi; 3) ayni bir turkumga mansub bo'lishi; 4) yasovchi morfemalarining mazmun planida umumiylik bo'lishi; 5) yasovchi morfemalari ifoda plani jihatidan o'xshash bo'lishi kerak. Rus tilidan o'zlashgan quyidagi baynalmilal leksemalar yuqorida sanalgan talablarga mos keladi, demak, paronimlar deb qaraladi: Abonent (abonement egasi) – abonement (biror narsadan ma'lum muddat foydalanish huquqini beradigan hujjat); bunda: a) yasash asosi – abon-; b) yasovchilar – -ent, -ement...

Leksik paronimlar ancha sodda talablar asosida ham belgilanadi: fonemalar tizimida faqat bir fonemasi bilan farqlanib turadigan ikki leksema o'zaro paronim deb qaraladi. Shunday talab yetarli deyilsa, alpoz (ahvol, yo'sin) – alfoz (lafz leksemasining ko'pligi), abzal (asli afzor: asbob, egar-jabduq) – afzal (yaxshi, ortiq), xalos (ozod) – *xolos* (faqat), tizmoq (ipga shodalamoq) – chizmoq (chiziq tushirmoq), xush (yaxshi, yoqimli) – hush (kishining sezish, idrok etish, anglash qobiliyati), rux (shaxmat donalaridan birining nomi – to'ra) – ruh (kishining his-tuyg'ularini aks ettiruvchi kayfiyati) kabi juftlarni paronim deyish mumkin". [6:49]

Shu o'rinda keltirilganlardan bir-birini rad etuvchi ba'zi misollarni solishtiraylik:

– "O'zbek tili leksikologiyasi" kitobida amr bilan amir so'zlarining o'zaro munosabatiga e'tibor beraylik. Amr so'zi buyruq leksik ma'nosiga ega bo'lib, *amir* esa undan yasalgan buyruq beruvchi leksik ma'nosiga ega. Bu so'zlar arab tiliga oid va shu tilga xos usulda yasalgan. Unda so'zning undoshlari o'zgarmagan holda unlilarining almashinishi yoki unli ortishi orqali yangi so'z yasaladi. Yana shunga o'xshash vaqf, kofe, tabiat so'zlaridan ham voqif, kafe, tabiiyot so'zlari yasalgan. Bunday o'zak so'zlar bilan undan yasalgan so'zlar o'rtasida ham paronimik munosabat yo'q; [8:255]

– Sh.Shoabdurahmonov va boshqalar hammuallifligidagi "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kitobida keltirilishicha, fonetik strukturasi boshqa-boshqa, talaffuzda o'xshash, yaqin bo'lib qoladigan so'zlar **paronimlar** deyiladi. So'zlarning o'zaro bunday munosabatda bo'lish hodisasi **paronimiya** deyiladi. *Fakt – pakt, afzal – abzal, amr – amir* va boshqalar; [7:51]

– "O'zbek tili leksikologiyasi" kitobiga ko'ra bod va bot, yod va yot, mard va mart, qayd va qayt, sob va sop, tub va tup, kompaniya va kampaniya, ulish va ulush kabi qatorlar ham paronim emas, omofonlardir; [8:55]

– Sh.Rahmatullayevning "Hozirgi adabiy o'zbek tili" kitobiga ko'ra …*bob – bop, tib – tip, yot – yod, sutxo'r – sudxo'r, nufuz – nufus,* … kompaniya – kampaniya... omofonlardir; [5:42–44]

– Y.D.Pinxasov muallifligidagi "Hozirgi adabiy o'zbek tili. Leksikologiya va frazeologiya" kitobida qayd etilishicha, o'zbek tilida *tug – tuk, tuz – tus, tub – tup, sudxo'r – sutxo'r, tambur – tanbur, she'r – sher* so'zlari omofonlar sanaladi;

– Sh.Shoabdurahmonov va boshqalar hammuallifligidagi "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kitobida qayd etilishicha, omofonlardagi o'zaro farq ular tarkibidagi bir fonemada bo'ladi. Lekin bu fonemalar ham fonetik xususiyatlari jihatidan bir-biriga juda yaqin turadi. Shu sababli ham bu so'zlarning talaffuzi bir xil bo'ladi: *tub – tup, yod – yot, bob – bop, mard – mart, tanbur – tambur, sudxo'r – sutxo'r, bod – bot, sud – sut* va boshqalar;

– M.Olimovning "Ilmul-lug'ot yoki leksikologiya" kitobiga ko'ra aytilishi ham, yozilishi ham har xil, lekin shakli bir-biriga nihoyatda yaqin bo'lgan so'zlar paronim so'zlar deb ataladi. Masalan*: asr – asir, tanbur – tambur, nufuz – nufus*…; [4:72]

– 5-sinf "Ona tili" darsligida qayd etilishicha, faqat bir tovush bilan farqlanuvchi, lekin bir xil talaffuz qilinadigan so'zlarga paronimlar deyiladi: a*fzal – abzal, amr – amir, daho – daha, devon – davon, bob – bop, tub – tup, ramz – razm, yolqin – yorqin, sayil – sayr, sada – sado* [3:177] va h.k.

Demak, paronimlarning ta'rifida ham, ularning chegarasini belgilashda ham, darslik va o'quv qo'llanmalarda keltirilayotgan misollarda ham qator chalkashliklar, har xilliklar mavjud. Bizningcha, paronimiyaning mohiyati o'zaro ohangdosh so'zlarning ikki tomonlama – fonetik hamda semantik munosabatlariga asoslanadi. [8:55] Paronimlar lug'atini tuzishda ham nazariy jihatdan shu tamoyilga tayanish zarur.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, paronim so'zlarning ham eng ko'pi inson va uning xususiyatlari tushunchalariga aloqador, ularni semantik maydonlarga kiritishda har bir paronimik juftlikdagi so'zning sinonimi, antonimi, graduonimi kabilar ham nazardan chetda qolmasligi kerak. Shundagina maktab o'quvchisining bugungi ehtiyoj va talablariga javob bera oladigan lug'at yuzaga keladi. Chunonchi:

adil – so'zning kelib chiqishi: arabcha so'z – "teng", "barobar"; atash ma'nosiga ko'ra: ko'p ma'noli so'z. 1. Ma'nodoshlari: to'g'ri, egilmagan, bukilmagan, tikka; zid ma'nosi: bukchaygan, egik; uyadoshlari: to'g'ri, egilmagan, bukilmagan, tikka, tik, basavlat; sintaktik aloqa: adil qomat, adil bosh, adil terak, adil novda va hokazo; 2. Ma'nodoshlari: burilmagan, qaytmagan, to'ppa-to'g'ri, to'g'ri; uyadoshlari: burilmagan, qaytmagan, to'ppa-to'g'ri, to'g'ri, ravon, tekis; sintaktik aloqa: adil ko'cha, adil yo'l, adil ketmoq, adil bormoq va h.k.;

adl – so'zning kelib chiqishi: *arabcha so'z* – "*adolat*", "*to'g'rilik*"; atash ma'nosiga ko'ra: *bir ma'noli so'z*; ma'nodoshlari: *adolat, to'g'rilik, odillik*; zid ma'nolari: *jaholat, johillik, adolatsizlik, haqsizlik, bedodlik*; uyadoshlari: *adolat, to'g'rilik, odillik, halollik, g'arazsizlik*; sintaktik aloqa: *adl kuchi*, *adl qudrati, adl peshvolari, adl tarafdorlari.*

Keltirilgan tahlildan ko'rish mumkinki, maktab o'quvchilari uchun mo'ljallangan oddiygina "Paronimlarning izohli lug'ati" o'quvchiga paronimik juftlikdagi so'zning etimologiyasi, lug'aviy ma'no ifodalay olish xususiyati (polisemantik yoki monosemantik xarakteri), shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turi (sinonimi, antonimi, uyadoshlari yoki omonimik xususiyati), sintaktik munosabati (qanday so'zlar bilan sintaktik aloqaga kirisha olishi) bilan tanishadi. Tabiiyki, bu o'quvchiga 6–7 lug'atga murojaat etib, ortiqcha vaqt sarflashining oldini oladi va til hodisalarini bog'lanishli o'rganish imkonini yaratadi. Bu kabi lug'atlarni kompyuter xotirasiga joylashtirish o'quvchi uchun yanada qulaylik tug'diradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Barkamol avlod orzusi // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: O'zME, 2000.
2. Bobojonov Sh. Milliy lug'atchilik masalalari. – Qarshi: Nasaf, 2004.
3. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Qodirov V., Jo'raboyeva Z. Ona tili. Umumta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. 3-nashri. – Toshkent: Ma'naviyat, 2011.
4. Olimov M. Ilmul-lug'ot yoki leksikologiya. – Buxoro, 2010.
5. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent: Universitet, 2006.
6. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. − Toshkent: O'zbekiston, 1993.
7. Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. − Toshkent: O'qituvchi, 1980.
8. O'zbek tili leksikologiyasi. (Mas'ul muharrirlar: A.Hojiyev, A.Ahmedov) – Toshkent: Fan, 1981.
9. Sh.Hamroyeva. Maktab o'quvchilariga mo'ljallangan o'zbek tili ideografik lug'ati (hayvonlarni atovchi so'zlar misolida) tuzish tamoyillari. Magistrlik dissertatsiyasi. – Buxoro, 2005.

Dilshod RO'ZIQULOV,
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti mustaqil izlanuvchisi

HARBIY MATBUOTDA BADIIY-PUBLITSISTIK JANRLAR LEKSIKASI VA LISONIY XUSUSIYATLARI

